

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI
AKADEMIYASI**



**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH VA HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTIKASI TO'G'RISIDAGI QONUNLAR IJROSI USTIDAN
NAZORAT KAFEDRASI, "TERGOV FAOLIYATI" YO'NALISHI
TINGLOVCHISI XOLIQOV SHAMSHOT ULUG'BEK O'G'LNING**

**"O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA QILISH JINOYATINI TERGOV
QILISH METODIKASI: MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI"
MAVZUSIDAGI**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHI

Ilmiy rahbar: M.Toshov (kadrlar bo'limi boshlig'i)

Ilmiy maslahatchi: I.Astanov (Phd, yur.f.dok)

TOSHKENT-2022

REJA:

I BOB O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA QILISH JINOYATI VA UNITERGOV QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

KIRISH.....3-8

1.1 O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining jinoiy-huquqiy tasnifi.....**9-26**

1.2 O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilishning ilmiy-nazariy asoslari.....**27-35**

II BOB O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA QILISH JINOYATINI TERGOV QILISHNING AMALIY ASOSLARI

2.1 O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan tergov qilishni rejalahtirish va o'tkaziladigan tergov harakatlari tasnifi.....**36-68**

2.2 O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilishga qo'llaniladigan zamonaviy usullar.....**69-74**

III BOB O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA QILISH JINOYATINI TERGOV QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1 O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan xorijiy tajriba.....**75-80**

3.2 O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan muammolar va ularni bartaraf etish masalalari.....**81-95**

XULOSA.....96-102

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....103-106

KIRISH

Mavzuning asoslanganligi va dolzarbliyi. Ijtimoiy munosabatlar rivojlangani singari jamiyatdagi munosabatlar tizimi murakkablashib, turli-tuman ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar o'z navbatida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda vujudga kelib, insonlar tabiatini o'zaro bog'laydi. Ijtimoiy munosabatlar bevosita insonning dunyoqarashi, fikrlash madaniyatiga ta'sir ko'rsatsa, iqtisodiy munosabatlar inson mavjudligining moddiy kafolati sanaladi. Iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borar ekan, turmush tarzi, yashash darajasi, davlatning turli jabhalardagi qudrati rivojlanadi, takomillashib boradi. Shu bois, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirmasdan turib, ko'plab qo'yilgan davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish imkonsizdir. Mamlakatlar o'z qonunchiligiga iqtisodiyot negizini muhofaza etadigan yuridik normalarni shuning uchun ham eng asosiy normalar qatorida belgilaydi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-55-moddalarida *mulk shakllarining tengligi, xususiy mulkning daxlsizligi, mulkdorning o'z mulkidan o'zining xohishiga ko'ra foydalanishi, mulk shakllarining davlat himoyasi ostida ekanligi* belgilab qo'yilgan.¹ Mulkning daxlsizligi tushunchasi Qadimgi Rimning 12- jadval qonunida ham o'z ifodasini topgan.² Fransiyada 1789-yilda qabul qilingan "Inson va fuqaro huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyaning 17- moddasida "*mulk daxlsiz va muqaddas huquq bo'lib, undan hech kim mahrum etilishi mumkin emas, qonuniy ravishda belgilangan jamoat zarurati aniq taqozo qilgan hollar bundan mustasno, shuningdek,adolatli va oldindan tovon to'lash sharti bilan ushbu huquq cheklanishi yoki mahrum qilinishi mumkin*"³ deya belgilangan. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi to'g'risida"gi xalqaro hujjatning 17- moddasida "*Har kim, xoh yakka, xoh birgalikda, mulkka egalik qilish huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan o'z mulkidan mahrum*

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz qonunchilik milliy bazasi.

² Odilqoriyev H., Azizov N., Madirimov X. Davlat va huquq tarixi. 2015-yil.

³ <https://www.conseil-constitutionnel.fr/le-bloc-de-constitutionnalite/declaration-des-droits-de-l-homme-et-du-citoyen-de-1789>.

*qilinishi mumkin emas”*⁴ deb mustahkamlab qo’yilgan. Bundan tashqari, 1966-yilda qabul qilingan “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar to’g’risida”gi xalqaro Paktning 6-moddasida *shaxsning bevosita bir qator doimiy iqtisodiy huquqlari kafolatlanishi* ham bejiz emas.⁵ Germaniya Federativ Respublikasining 1949-yil 13-mayda qabul qilingan Konstitutsiyasining 14-moddasida “*mulkchilik huquqi kafolatlanadi, mulkchilikdan foydalanish jamiyat manfaatiga zarar yetkazmasligi va ijobjiy holatlarga xizmat qilishi kerak*”⁶ ligi aytib o’tilgan. Jamiyat iqtisodiy negizi bo’lgan mulkchilik shakllarining daxlsizligi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 35-moddasida,⁷ Qozog’iston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida⁸, 1947-yil 27-dekabrda qabul qilingan Italiya Konstitutsiyasining 42-moddasida⁹, Yaponiya Imperiyasi Konstitutsiyasining 29-moddasida¹⁰, Janubiy Koreya Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida¹¹, Singapur Respublikasi Konstitutsiyasining 160-moddasida¹² keltirib o’tilgan.

Birinchidan, har bir davlat mulk shakllarining tengligiga bevosita yuridik mazmun bag’ishlar ekan, unga qarshi qaratilgan har qanday ijtimoiy xavfli qilmishga qarshi keskin kurash olib boradi. Mulkka qarshi qaratilgan talon-taroj jinoyatlari jamiyat iqtisodiy negiziga qarshi qaratilgan eng xavfli jihatlardan biridir. Shu bois, ko’plab mamlakatlar, shu jumladan, bizning respublikamizda ham mulkka qarshi qaratilgan talon-taroj jinoyatlari, ayniqsa o’zganining mulkini o’zlashtirish yoki rastrata orqali talon-taroj qilish jinoyatiga qarshi keskin chora-tadbirlar ko’riladi. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “...oldimizda turgan yana bir vazifa xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirishga halaqit berayotgan barcha to’siq va

⁴ <https://www.un.org/fr/universal-declaration-human-rights/>

⁵ <https://www.ohchr.org/fr/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights/>

⁶ <https://www.bundesregierung.de/resource/blob/998616/388674/8ebe168c59975c69406341a69612f94c/loi-fondamentale-data.pdf/>

⁷ <https://www.constitution.ru/fr/part2.htm>

⁸ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1005029&pos=278;-56#pos=278;-56/

⁹ <https://mjp.univ-perp.fr/constit/it1947.htm/>

¹⁰ https://japan.kantei.go.jp/constitution_and_government_of_japan/constitution_e.html/

¹¹ <https://mjp.univ-perp.fr/constit/kr1988.htm/>

¹² <https://sso.agc.gov.sg/Act/CONS1963?ProvIds=P114#pr160/>

cheklovlarni barataraf etishdan iboratdir”¹³ deya bildirgan fikrlari nihoyatda o’rinlidir.

Ikkinchidan, tadqiqot ishimizning dolzarbligining yana bir jihat, mamlakatimizda talon-taroj jinoyatlari, xususan biz tadqiqot olib borayotgan o’zlashtirish yoki rastrata qilish yo’li bilan o’zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatining kundan kunga o’sib borayotganidir. Xususan, o’zlashtirish yoki rastrata qilish yo’li bilan talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan *2015-yilda 3883 ta ish, 7595 nafar shaxsga; 2016- yilda 4020 ta ish, 8442 nafar shaxsga; 2017-yilda 3286 ta ish, 6458 nafar shaxsga; 2018-yilda 1927 ta ish, 3491 nafar shaxsga; 2019-yilda 1620 ta ish, 2992- nafar shaxsga nisbatan ish ko’rilgan bo’lsa, bu ko’rsatgich 2020-yilda 2583 ta jinoyat ishi* sudda ko’rish uchun tayinlangan.¹⁴

Uchinchidan, tadqiqot ishimizning yana bir dolzarbli shundaki, aynan o’zlashtirish yoki rastrata qilish yo’li bilan o’zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatining jinoiy-huquqiy, kriminologik jihatlari mavzusi doirasida ko’plab tadqiqot ishlari olib borilib, mazkur jinoyatni tergov qilishning kriminalistik jihatlariga kamdan kam hollarda e’tibor berilayotgani va deyarli tadqiqot ishlarining olib borilmayotganligidadir. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda mazkur jinoyatni tergov qilishning metodikasi, tergov harakatlarini o’tkazishning eng samarali taktikasi, tergov vaziyatlari va isbot qilinishi lozim bo’lgan holatlar borasida yetarli manba va xulosalarning mavjud emasligi ham tadqiqot ishimizning ahamiyatini oshiradi. Tadqiqot ishimiz bevosita sud-tergov faoliyatida mazkur jinoyatni jinoyat ishini qo’zg’atishdan boshlab toki uni ayblov xulosasi va ayblov dalolatnomasi bilan sudga chiqarish jarayonigacha amalga oshiriladigan tergov qilishning metodologiyasini o’z ichiga qamrab olganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida o’zlashtirish yoki rastrata qilish yo’li bilan o’zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish jarayonida vujudga keladigan har qanday masalalarni o’z ichiga qamrab oladi.

¹³ Ш.М.Мирзиёев “Миллий тараққиёт йўлимизни катъийлик билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз” 1-Т Тошкент “Ўзбекистон” 2017. 68-6

¹⁴ www.stat.uz

Tadqiqot predmeti o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish borasidagi normalar, yuridik adabiyotlardagi g'oyalari, fikrlar, ilmiy yondashuvlar va qarama-qarshiliklar borasidagi ilmiy bahslar tanlandi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish metodikasini nazariy jihatdan o'rganib chiqib, ular yuzasidan kelib chiqqan savollarga javob qidirish, soha ilm-fani rivoji va qonunlar takomillashishiga hissa qo'shishdir. Ushbu maqsad tadqiqotning:

- ✓ *o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatining jinoiy-huquqiy tabiatini va mohiyatini ochib berish va tahlil qilish;*
- ✓ *o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilishning tashkiliy-huquqiy masalalarini tahlil qilish;*
- ✓ *o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilishning kriminalistik qoidalarini yoritish;*
- ✓ *o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish xususida milliy qonunchiligidimiz va uning amaliyotini tahlil qilish;*
- ✓ *o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalarni ishlab chiqish vazifalarini o'z ichiga qamrab oladi.*

Ilmiy yangiligi: Tadqiqot ishimizning ilmiy yangiligi shundaki, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan amalga oshiriladigan tergov harakatlarining eng muhim jihatlarini o'z ichiga qamrab oladigan ilmiy metodologik qo'llanmani ishlab chiqishdir. Boisi, bugungi kunda aynan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish yuzasidan tergov harakatlarining eng muhim jihatlarini qamrab oladigan ilmiy manba mavjud emas. Xususan, tadqiqot ishimizda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan tayinlanadigan

hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish, taftish, tintuv, yuzlashtirish, ekspertiza tergov harakatlarining eng muhim jihatlari yoritdi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Chop etilayotgan darsliklar, ilmiy maqolalar, ilmiy va amaliy tadqiqot ishlarida o'zlashtirish va rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkni talon-toroj qilish jinoyatlarining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga e'tibor berilib, masalaning kriminalistik jihatlariga yetarlicha to'xtalib o'tilmayapti. Agar oxirgi yillar davomida amalga oshirilgan monografik tadqiqotlarga qaraydigan bo'lsak, jinoyat-huquqiy yo'nalishdagina U.M.Mirzayev va M.M.Qalandarovlar tomonidan nomzodlik ilmiy darajalarini olish uchun tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, biroq mazkur jinoyatni tergov qilish yo'nalishida biror bir doktorlik tadqiqoti amalga oshirilmaganligi fikrimizning isbotidir. Jinoyatlarni tergov qilish tushunchasi, metodikasi va ayrim turdag'i jinoyatlarni tergov qilish O'zbekistonda chop etilgan o'quv va ilmiy adabiyotlarda umumiy tarzda yoritilgan. Aynan, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergov qilishning kriminalistik-xususiy jihatlarni emas, balki kriminalistik-umumiyligi jihatlarni qamrab oladigan yoki ushbu mavzuga aloqador belgilar yuzasidan S.A.Otaxo'jayev, O.CH.Xoliquov¹⁵, M.F.Ergashev, M.H.Obidov, Sh.P Alaev¹⁶, I.R.Astanov¹⁷, Sh.P.Muxammadov¹⁸, A.B.Hikmatov, A.B.Abdulaxatov¹⁹, A.O.Aripov²⁰, A.X.Imomnazarov, E.A.Xayrullayev, F.Z.Mirzaev²¹, A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova, M.Abdukarimovalar²² ilmiy adabiyotlar yaratganlar. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li

¹⁵ S.A.Otaxo'jayev, O.Ch.Xoliquov. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005-yil

¹⁶ M.F.Ergashev, M.H.Obidov, Sh.P Alaev. Tergovchi.Qo'llanma. T: "G'afur G'ulom matbaa ijodiy uyushmasi

¹⁷ I.R.Astanov. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlari. Monografiya. T:2018-yil.

¹⁸ Sh.P.Muxammadov. Tanib olish uchun ko'rsatish va guvohlantirish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

¹⁹ A.B.Hikmatov, I.R.Astanov, A.B.Abdulaxatov. Dastlabki tergovning protsessual va taktik asoslari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

²⁰ A.O.Aripov. Iqtisodiyot sohasidagi va mansabdorlik jinoyatlarini tergov qilish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

²¹ A.X.Imomnazarov, I.R.Astanov, E.A.Xayrullayev, F.Z.Mirzaev. Ko'zdan kechirish tergov harakati imkoniyatlari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;

Sh.P.Muxammadov. So'roq qilish va yuzlashtirish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;

Sh.P.Muxammadov. Tintuv va olib qo'yish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

²² A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova, M.Abdukarimova. Kriminalistika. Darslik. T: 2015-yil.

bilan talon-taroj qilish jinoyatining jinoiy-huquqiy jihatlari Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov²³, M. Usmonaliyev²⁴, B.D. Matmurodov²⁵, O.Zokirova²⁶, M.H.Rustamboyev²⁷ larning ilmiy-huquqiy darsliklarida batafsil bayon etilgan.

Tadqiqot uslublari. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan tadqiqot ishini amalga oshirishda qiyosiy tahlil, tarixiy-qiyosiy huquqiy-qiyosiy, prognozlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mavzu yuzasidan keltirilgan, tizimlashtirilgan va ishlab chiqilgan nazariy fikrlar kriminalistika, huquqiy fanlar yuzasidan ma'ruza matnlarida, o'quvuslubiy ta'minotni ishlab chiqishda va ilmiy tadqiqotlarda foydalanishi mumkin. Tadqiqot natijasida ilgari surilgan takliflar va amaliy tavsiyalar jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish hamda talon-toroj jinoyatlarini tergov qilish amaliyotini yanada takomillashtirish uchun qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi. Kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa, foydanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalar qismidan iboratdir.

²³ Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). O'quv qo'llanma-T,:TDYU nashriyoti,2021.

Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). O'quv qo'llanma-T,:TDYU nashriyoti,2021.

²⁴ M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). Darslik. "Yangi asr avlodii"-T,:2005.

²⁵ B.D.Matmurodov. Jinoyat tarkibi bo'yicha kvalifikatsiya qilish masalalari. T,:"Lessons press"-2019.

²⁶ O.Zokirova. Jinoyat huquqining umumiy masalalar to'plami. O'quv uslubiy qo'llanma. TDYU nashriyoti, 2005.

²⁷ M.H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Umumiy qism). T,:"O'qituvchi"-2003.

M.H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Maxsus qism). T,:"O'qituvchi"-2003.

I BOB O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA YO'LI BILAN TALON-TAROJ QILISH JINOYATI VA UNI TERGOV QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1& O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatining jinoiy-huquqiy tasnifi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-54-moddalarida "bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyoti turli xildagi mulk shakllarini rivojlantirishga asoslanadi. Davlat barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi va bir xil shaklda muhofaza etilishini kafolatlaydi. Davlat mulki, xususiy mulk bab-barovar huquqiy maqomga ega. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlatning himoyasi ostidadir. Mulkdor o'z mulkidan foydalanish jarayonida fuqarolar, davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim..." deya belgilab qo'yilgan. Iqtisodiyotning asosi sanaluvchi mulk shakllari bir xil shaklda rivojlanishi uchun qonun ularni o'z ta'sir doirasiga olishi lozim. Mulk, bevosita, Fuqarolik kodeksining 167-moddasida belgilab qo'yilganidek xususiy mulk va ommaviy mulkka kabi shakllarga bo'linadi. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan turli xildagi normativ-huquqiy hujjatlar, normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan shakli- kodekslar har ikkala mulk shakliga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va shu jarayonda yuzaga keluvchi nizolar va qonunbazarlik holatini qat'iy tartibga solishga xizmat qiladi. Shu jumladan, Jinoyat kodeksining III bo'llim X bob (164-169-moddalar)ni yuqorida tilga olingan mulk shakllarini talon-taroj qilishga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarni o'z ichiga qamrab olgan. Ushbu talon-taroj jinoyatlari orasida biz to'xtalib o'tishimiz joiz bo'lgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlardan o'zining bir qator xususiyatlariga ko'ra farqlanadi: bu jinoyat natijasida asosan, davlatning manfaati, mulkiga ziyon yetkaziladi; mol-mulk ishonib topshirilgan shaxs o'z majburiyatlarini suiste'mol qiladi; talon-taroj qilingan mulk ikki xil ko'rinishda o'zlashtiriladi yoki rastrata qilinadi; ko'p hollarda ishtirokchilikda sodir etiladi; xizmat yoki lavozim yo'riqnomasi bo'yicha harakat qilayotgan shaxs mulknini

talon-taroj qilish jarayonida bir qator hujjatlarni soxtalashtiradi yoki soxtalashtirmsdan yashirin shaklda mulkiy zion yetkazadi. Bu talon-taroj shakli ko'p hollarda ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligi, tergov va sud jarayonida jinoyatning to'la oshkor etilishi qiyinligi bilan juda ahamiyatlidir. **Amaldagi jinoyat qonunlariga binoan, o'zganing mulkini talon-taroj qilish mulkka tajovuz qilishning eng xavfisi hisoblanadi.**²⁸

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasi o'zgalar mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish deb nomlanadi. Mazkur normaning 1-qism dispozitsiyasi *aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lган o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilishni* qamrab olgan. Bu jinoyat ikki qismdan iborat bo'lib, asosan jinoyatchi shaxs tomonidan ikki xil ko'rinishda sodir etiladi.

X.M.Rustamboyevning fikricha, o'zlashtirish deganda, **aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lган o'zganing mulkini huquqqa xilof,** bepul saqlab qolish va keyinchalik mulkdorga yoki mulkning boshqa egasiga mulkiy zarar keltirgan holda o'z foydasiga yoki boshqa shaxsning foydasiga olishga qaratilgan harakat bo'lib, aybdor mazkur mulkni hali tasarruf etmagan, begonalashtirmagan bo'ladi. O'zlashtirishda aybdor egallab olgan mulkni mulkdorga yoki mulkning boshqa qonuniy egasiga qaytarib berishning imkoniyati bo'ladi. Aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan mulkdan foydalanish yoki uni tasarruf etish amalga oshirilmagan bo'ladi.²⁹ Aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan mulk deganda, mansab vazifalari yoki shartnomaviy munosabatlarga ko'ra yoxud maxsus topshiriq munosabati bilan o'zganing mulkini tasarruf qilish, boshqarish, yetkazib berish, saqlash bo'yicha qonuniy vakolatlarni amalga oshiruvchi shaxsning egaligida turgan mulk tushuniladi.³⁰

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi 11-sonli qarorining 3-bandı

²⁹ M.H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Maxsus qism). T,:"O'qituvchi"-2003.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi 11-sonli qarori.

M.Usmonaliyevning “Jinoyat huquqi” darsligida, rastrata qilish tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan o’zganing mulkini mulkdor yoki mulkning boshqa egasiga zarar (mulkiy, ma’naviy) yetkazgan holda, mazkur mol-mulkni o’zining yoki boshqa bir shaxsnинг foydasiga g’ayriqonuniy ravishda, tekinga tasarruf etishini va begonalashtirishini anglatadi. Rastrata qilishda mulkni mulkdorga yoki mulkning boshqa egasiga asl holida qaytarishning imkoniyati bo’lmaydi. Mulkiy qiymatli qimmatliklarning o’rniga ega o’sha qiymatdagi qimmatliklarnigina qaytarishning iloji bo’ladi.³¹ Rastrata qilish jinoyatida aybdor shaxs to’g’ridan to’g’ri ishonib topshirilgan yoki o’zining ixtiyorida turgan mulkni o’z foydasiga yoki boshqa shaxslarning foydasiga “yeb yuboradi”. Talon-tarojning rastrata shakli o’zlashtirishdan shu bilan farq qiladiki, o’zlashtirishda taloj-taroy qilingan mulk qonuniy egasiga qaytarilishi mumkin, rastratada talon-taroy qilingan mulk aybdorda bo’lmaydi, u sotilgan, hadya qilingan, iste’mol qilingan bo’lishi mumkin, ya’ni mulk egasiga talon-taroy qilingan mulkning faqat qiymatini qaytarish imkoniyatiga ega bo’ladi.

O’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tushunish yanada osonroq bo’lishi uchun **Rus olimi K.B. Ivanovning** badiiy tarzda qayd etgan quyidagi fikri nihoyatda o’rinli: “*O’zlashtirish deganda, qo’shnim menga qo’riqlashni ishonib topshirgan olma daraxtidan bir yoki bir nechta olmani unga bildirmasdan uzib olishim va olma daraxtidan uzoqlashib hali uni yeyishga ulgurmasdan qo’lga tushishimni anglatadi. Rastrata deganda, qo’shnimga aytmay uzib olgan olmalarни o’zim yoki do’stlarim bilan yeb bo’lganimni bildiradi*” deya o’xshatish qilgan.³²

Fransiyalik huquqshunos S.H.Nicolening o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati to’g’risida quyidagi fikrlari ham o’rinli: “*le crime de detournement de fonds- le fait qu’une personne charge ou possedee du bien dans le service et le poste peut prendre le bien inchange en faveur de lui-même ou de ses proches et le*

³¹ M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. (Maxsus qism). Darslik. “Yangi asr avlodи”-T.;2005.

³² К.Б.Иванов. Комментарий к Особенной части Уголовного права. Учебник. Москва-2018. Страница-267.

presenter jusqu'à ce que crime soit releve et le crime de rastrate en faveur de lui-même ou ses proches ne pouvant presenter le bien qu'il occupe signifie qu'il ne peut que donner sa valeur". (Ma'nosi: O'zlashtirish jinoyati- xizmat yoki lavozim talabi bo'yicha mol-mulk ishonilgan, berilgan shaxsning o'zi yoki boshqa shaxs uchun qonunga zid olgan mulkini jinoyat fosh etilguncha qadar asl holida qaytara olishi, taqdim qilish imkoniyatiga egalagini anglatsa, rastrata qilish jinoyati esa mol-mulk ishonilgan, berilgan shaxsning o'zi yoki boshqa shaxs uchun qonunga zid olgan mulkini jinoyat fosh etilguncha qadar asl holida qaytara olmasligi, taqdim qilish imkoniyatidan mosuvoligini bildiradi.)³³

*"Mansab vazifalari yoxud shartnomaviy munosabatlarga ko'ra, o'zganing mulkini tasarruf qilish, boshqarish, yetkazib berish yoki saqlash bo'yicha qonuniy vakolatlarni amalga oshiruvchi shaxsning mazkur mulkni qonunga xilof ravishda tekinga o'zining mulkiga yoki boshqa shaxsning mulkiga aylantirishi aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish deb tavsiflanishi lozim".*³⁴ Mazkur jinoyatning muhim belgisi mulk aybdorga ishonib topshirilganligi yoki uning ixtiyorida bo'lganligi hamda mulk o'zganiki ekanligi fakti tegishlicha rasmiylashtirilgan bo'lshi lozim.³⁵

O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining bevosita obyekti- aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini muhofaza etishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.³⁶

O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining predmeti sifatida har qanday moddiy ko'rinishdagi ashyolar, pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan, mulkiy huquqlar, yer uchastkalari, binolar, inshootlar, yer bilan uzviy bog'langan mol-mulk, har qanday ko'rinishdagi mulklarni sanab o'tishimiz

³³ S.H.Nicole. Classification des crimes. Paris-2020, page:54.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi 11-sonli qarorining 3-band ikkinchi xatboshi

³⁵ Iqtisodiyot sohasidagi va mansabdorlik jinoyatlarini tergov qilish. Uslubiy qo'llanma. A.O.Aripov. –Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2021.- 6-7 betlar

³⁶ M.H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Maxsus qism). T.: "O'qituvchi"-2003.

mumkin.³⁷ O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati tegishli majburiyatga ega turli davlat xizmatchi va mansabdar shaxs tomonidan, majburiyat doirasidan kelib chiqqan holda jinoyat predmeti o'zgaradi.

O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati obyektiv tomondan aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan mulkni o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilishda ifodalaniladi.

O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatining subyekti- o'zganing mulki ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lган, jinoyat sodir etilguniga qadar 16 yoshga to'lган aqli raso shaxslar. Mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyorida mulk turgan shaxsgina, ya'ni xizmat burchi, shartnoma munosabatlari yoki maxsus topshiriq munosabati bilan shu mulkni tasarruf etish, boshqarish, yetkazib berish, saqlash bo'yicha vakolatlarni amalga oshirgan shaxs (omborchi, ta'minotchi, buxgalter, sotuvchi, kassir) o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining subyekti bo'lishi mumkin.

O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati subyektiv tomondan – to'g'ri qasd yo'li bilan, ya'ni Jinoyat kodeksining 21-moddasi 3-qismida keltirib o'tilgan: agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatlarini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan jinoyat deb topiladi.³⁸ Bunda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatini sodir etgan mulk ishonib yoki ixtiyorida bo'lган shaxs uni o'z xizmat va lavozimiga zid ravishda mulkiy manfaat ko'rish maqsadida qo'lga kiritadi yoki tasarruf etadi.

Mazkur jinoyatning motivi **ko'pincha g'arazgo'ylik** niyatida sodir etiladi.

³⁷ Fuqarolik kodeksi. -T:"ADOLAT" nashriyoti. -2018-yil. 81-83-moddalarning umumiy mazmuni.

³⁸ www.lex.uz

Talon-torojning o'zlashtirish shakli mulk ushlab qolingan paytdan e'tiboran, ya'ni o'zganing mulkiga g'ayriqonuniy ravishda o'zinikidek egalik qilingan paytdan e'tiboran **tugallangan jinoyat** deb hisoblanadi.

Rastrata aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan mol-mulk begonalashtirilgan (masalan, sarflab yuborilgan, sotilgan, hadya qilingan, iste'mol qilingan va h.k.) paytdan e'tiboran **tugallangan jinoyat** deb topiladi.³⁹

Amaliyotdan misol: Sudlanuvchi A.Sharipov Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani Bobur ko'chasida 40 –uyda joylashgan “Meros Farm Buxara” MCHJda 2020-yil 04-yanvar kunidan jamiyatning omborxona nashoratchisi vazifasida ishlab kelib, omborxonada mavjud qutilarga solingan dori vositalarini qadoqlash va ularni yuk xati solishtirish orqali omborxona nazoratini amalga oshirib kelib, o'zining mazkur ish faoliyati davomida o'ziga berilgan vakolatlardan g'arazgo'ylik bilan foydalaniib, o'ziga topshirilgan va ixtiyorida bo'lган MCHJ ning ko'p miqdordagi mol-mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish maqsadida, mazkur MCHJ da savdo bo'limi xodimi lavozimida ishlovchi sudlanuvchi B.Sharipov hamda tanishi L. Sharipovlar bilan o'zaro til biriktirib, bir guruh holda, oldindan reja tuzishgan. Tuzilgan rejaga ko'ra, 2021-yil 05-oktabr kunidan 2021-yil 07-oktabr kuniga qadar bo'lган vaqt oralig'ida, “Meros Farm Buxara” MCHJ tomonidan mijozlari “Rasuljon-Muxtorjon” va “Shox-Bobur” MCHJlarga yetkazib berilishi lozim bo'lган, yuk xati bilan rasmiylashtirilgan dori vositalarini ichiga 240 dona “Дюфастон таб.10 мг №20” nomli dori vositasi, 180 dona “Актовегин амп. 5мг. №5” nomli dori vositasi, 320 dona “Bobotik” nomli dori vositasi, 216 dona “Есенсиале-форте” nomli dori vositasi, 400 dona “Аквадентирим” nomli dori vositasi, 400 dona “АЦЦ лонг таб.600 мг №10 ” nomli dori vositasi, 240 dona “Кенатал форте” nomli dori vositasi, umumiy narxi 104.569.910 so'mlik dori vositalarini qo'shib yuborish yo'li bilan talon-taroj qilingan dori vositalarini jinoiy sherigi B.Sharipov bilan

³⁹ Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). O'quv qo'llanma-T,:TDYU nashriyoti,2021.

birgalikda MCHJ omborxonasidan olib chiqib ketishga erishishgan. So'ng uni o'zlarining yashash xonadoni bo'lган Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani Ko'shk qishlog'i 5 uyga olib kelib xaridor topilguncha yashirishgan. Shundan keyin, talon-taroj qilingan dori vositalarining bir qismini V.Sharipovga jami 50.000.000 so'mga sotib yuborib, mazkur pullarni o'z ehtiyojlari yo'lida sarflab yuborishgan.

40

Shaxsni O'zbekiston Respublikasi **Jinoyat kodeksining 167-moddasi 2-qism a-bandisi** bilan o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining summasi **ko'p miqdorda** sodir etganda ayblash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, agar shaxs o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini oz miqdorda sodir etadigan bo'lsa uning harakatlarini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasi bilan emas, aksincha **O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobarlik to'g'risidagi kodeksning 61- moddasi** bilan ya'ni *mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-taroj qilish* normasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.⁴¹ Talon-taroj qilingan mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmasa, bundan talon-taroj oz miqdorda talon-taroj qilish deb ataladi. Shaxs o'zganining mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish bo'yicha ancha miqdorda sodir etadigan bo'lsa uning harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi 1-qismi bilan qamrab olinadi. Ancha miqdordan oshgan, ya'ni bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lган miqdor ko'p miqdor deb baholanadi hamda ushbu miqdor shaxsning harakatlarini O'zbekiston

⁴⁰ www.public.sud.uz. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy sayti bo'lган www.olysud.uz ning ichki qism sayti.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining 2004-yil 21-mayda qabul qilingan "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 4-sonli qarorining 2-bandisi.

Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- modda 2- qism “a” bandi bilan kvalifikatsiya qilishga olib keladi:

Formula: 300 dan 500 baravari X 270.000 (bazaviy hisoblash miqdori=ko'p miqdor.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **167-moddasi 2-qismi b-bandi takroran yoki xavfli retsidiivist** tomonidan o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini sodir etishga bag’ishlangan. Sud-tergov amaliyotida o‘zganing mulkini o’zlashtirish yoki rastrata qilish orqali talon-toroj qilishninig takroran sodir etilishini kvalifikatsiya qilishda ba’zi bir qiyinchiliklar vujudga keladi. Takroriylikni yagona jinoyat hisoblanuvchi davomli talon-toroj qilishdan farqlash lozim. **B.D.Matmurodovning fikricha**, umumiy maqsadga ega bo’lgan va talon-toroj qilayotgan shaxsning yagona qasdi bilan qamrab olingan, bir-biriga o‘xshash jinoiy qilmishlardan iborat bo’lgan o‘zganing mulkini bir necha harakat bilan olinishi davomli talon-toroj qilish deb topiladi. Shunday qilib, aybdor shaxs qasdining yagonaligi, talon-toroj qilinayotgan manbaning yagonaligi, talon-toroj usulining bir xil ekanligi davomli talon-toroj qilishning alomatlari hisoblanadi.⁴² **Takroran o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini sodir etish** deganda, *shaxsning ikki yoki undan ko’p marta ushbu jinoyatni sodir etganligi, ammo ularning birortasi uchun ham sudlanmaganligi* tushuniladi. Takroriylikda har bir jinoyat predmeti, joyi, vaqt, sodir etish usuli, jabrlangan subyektlar doirasi bir biridan farq qiladi. Takroriylikda jinoyat maqsadi, qasdi, talon-taroj qilinayotgan manba, talon-taroj usuli turli tuman bo’ladi. Birinchi marta o’zlashtirish yoki rastrata qilish tamom bo’lgan yoxud jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd qilish bosqichida to‘xtatilgan yoki ishtirokchilikda sodir etilgan bo‘lsa ham o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati takroran sodir etilgan deb hisoblanadi. Agar ilgari sodir etilgan o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati uchun shaxs qonunda belgilangan tartibda jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilingan bo‘lsa, o’zlashtirish yoki rastrata

⁴² B.D.Matmurodov. Jinoyat tarkibi bo'yicha kvalifikatsiya qilish masalalari. T,:“Lessons press”-2019.

qilish jinoyati takroran sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Agar yangi bosqinchilik sodir etilgan paytgacha aybdordan sudlanganligi qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan yoki bekor bo‘lgan aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddati o‘tgan yoki ilgari sodir etilgan o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati uchun javobgarlik amnistiya akti yoki afv etish asosida olib tashlangan bo‘lsa, takroriylik bo‘lmaydi.⁴³ *Agar o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini sodir etgan shaxs ilgari o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati sodir etganligi uchun sudlangan bo‘lsa, qilmish xavfli retsidiivist tomonidan sodir etilgan deb hisoblanadi.* Misol uchun, buxgalter birinchi oylik hisob-kitob hujjatlarini qalbakilashtirish asosida ishchilarining oylik maoshidan asossiz tarzda ta’mirlash ishlari uchun muayyan summani saqlab qolib ularni o’zlashtirdi. Keyingi ikkinchi oylikda kadrlar bo’limi bilan kelishib soxta mehnat shartnomalarini rasmiylashtirib ularga to’lanishi lozim bo‘lgan ish haqlarini talon-taroj qildi. Ushbu holatda buxgaltering harakatlarini O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi 2- qism “b” bandining takroran sodir etganligi qismi bo‘yicha javobgarlikka tortishimiz mumkin. Xavfli retsidiivist deb topishimiz uchun shaxsga nisbatan sud tomonidan ayni shu jinoyat uchun sud tomonidan hukm asosida jazo tayinlanib shaxsda sudlanganlik holati yuzaga kelishi kerak.

O’zbekiston Respublikasi **Jinoyat kodeksining 167-moddasi 2- qismi v-bandi o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini bir guruhi shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib** sodir etishga mo’ljallangan. Aybdor shaxslarni Jinoyat kodeksi 167-moddasi 2-qismi «v» bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun *jinoyatning barcha ishtirokchilarini mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyoriga berilgan shaxslar bo‘lishi lozim.*⁴⁴ Agar talon-toroj qilishning ishtirokchilaridan loaqlal bittasi mulk ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘lgan shaxs bo‘lib, qolganlar ishtirokchilar bunday vakolatlarga ega bo‘lmasan shaxslar bo‘lsa, jinoyatchilarining harakatlarini Jinoyat kodeksi 167- moddasi 2-qismining «v» bandi

⁴³ Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). O’quv qo’llanma-T.;TDYU nashriyoti,2021.

⁴⁴ H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Maxsus qism). T.;“O’qituvchi”-2003.

bo‘yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Bunday holatlarda mulk ishonib topshirilgan yoki uni boshqaruvchi shaxs qilmishi Jinoyat kodeksi 167-moddasi 1-qismi bo‘yicha, qolgan ishtirokchilarning jinoiy harakatlari esa Jinoyat kodeksining 28-moddasi tegishli qismiga havola qilgan holda Jinoyat kodeksining 167-moddasi 1-qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.⁴⁵ Misol uchun, davlat ro’yxatidan o’tgan akkumulyator sotishga ixtisoslashgan MCHJ ning ikki nafar sotuvchisi hisob-kitob fakturalarga jiddiy o’zgartirish kiritib, oldindan til biriktirib sotilgan akkumulyatorlarning bir qism pulini o’zlashtirsa yoki rastrata qilsa bu O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi 2-qism v- bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi 2-qism “g” bandi bevosita o’zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini **mansab mavqeyini suiiste’mol qilish yo’li bilan sodir etish** deb nomlanadi. Mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo’li bilan o’zlashtirish yoki rastrata qilish- *mansabdor shaxs yoki mas’ul mansabdor shaxs tomonidan o’zganing mulkini egallashda o’z mansab vakolatlaridan foydalanishi* tushuniladi. **Mansabdor shaxs** — tashkiliy-boshqaruv yoki ma’muriy-xo’jalik vakolatlari berilgan va mas’ul mansabdor shaxs alomathlariga ega bo‘lmagan shaxsdir. **Tashkiliy-boshqaruv vakolatlari** muayyan faoliyat uchastkasiga, ayrim xodimlarning ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik qilish vazifalari hisoblanadi. Masalan, vazirliklar, idoralar, boshqarmalarning rahbarlari (direktorlar, ularning o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlari). Ushbu mansabdor shaxslarning faoliyati kadrlarni tanlash va ularga rahbarlik qilish, ularni joy-joyiga qo‘yish, ularning faoliyatini tashkil etish va nazorat qilishdan iborat bo‘lishi ham mumkin. **Ma’muriy-xo’jalik vakolatlari** esa mol-mulkni boshqarish va tasarruf etish, uni saqlash shartlari va tartibini belgilash, mol-mulkning asralishini, sotilishini ta’minlash singari vazifalardir. Masalan, ma’muriy-xo’jalik qismi, ta’midot, sotuv rahbari, ombor, buxgalteriya mudirlari singarilar

⁴⁵ B.D.Matmurodov. Jinoyat tarkibi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish masalalari. T,:“Lessons press”-2019.

shunday vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.⁴⁶ O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasi 2- qismi “g” bandida nazarda tutilgan mansabdor shaxslarning mansab mavqeyini suiiste’mol qilishi mansabdor shaxsning mansab mavqeyidan kelib chiqqan, shaxs egallagan lavozimi vakolatiga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq, biroq o‘z mazmuni bo‘yicha tegishli organning faoliyat olib borishidan ko‘zlangan maqsad va vazifalarga zid keluvchi harakatlarini tushunish lozim. Misol uchun, “Nurobod agro tomorqa xizmati” MCHJ rahbari vazifasida ishlab kelib O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29- martdagi “Obod qishloq dasturini amalga oshirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori ijrosini ta’minalash maqsadida, Adliya vazirligida 2018-yil 22 fevralda 2975-son bilan ro’yxatga olingan “Aholi bandligini ta’minalash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi to’g’risida”gi Nizom asosida ATB “Qishloq qurilish bank” Samarqand mintaqaviy filiali tomonidan ajratilgan jami 153.990.200 so’m pullarni “Nurobod agro tomorqa xizmati” MCHJ hisob raqamiga tushirishga erishib, o‘z mansab mavqeyidan foydalangan holda ushbu pullarni o‘z ehtiyojlari uchun ishlatib yuboradi.⁴⁷ Uning bu harakatlari O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasi 2- qism “g” bandi bilan kvalifikatsiya qilingan.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasi 3- qism “a” bandi juda ko’p miqdorda o’zganing mulkini o’zlashtirish yoki rastrata qilish deb belgilab qo’yilgan. Juda ko’p miqdor deganda, bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari va undan ortiq bo’lgan miqdor nazarda tutiladi.

Formula: 500 va undan yuqori miqdor X 270.000 (bazaviy hisoblash miqdori) = juda ko’p miqdor

O’zbekiston Respublikasi **Jinoyat kodeksining 167-moddasi 3- qism “b” qismida** nazarda tutilgan o’zlashtirish yoki rastrata qilishning og’irlashtiruvchi

⁴⁶ H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Maxsus qism). T.:“O’qituvchi”-2003.

⁴⁷ www.oliyusud.uz. 1-1410-2101/58 sonli shrix kodli sud hukmidan olindi.

holati o'ta xavfli retsdivist tomonidan sodir etiladi. Qilmishni Jinoyat kodeksi 167-moddasi 3-qismining «b» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun quyidagi belgilar bo'lishi zarur: a) o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini sodir etishdan oldin shaxsni o'ta xavfli retsdivist deb topish to'g'risidagi sud hukmi; b) ushbu hukmning qonuniy kuchga kirganligi. Yuqoridagi belgilardan birining mavjud emasligi shaxsning qilmishini o'ta xavfli retsdivist tomonidan sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish imkonini bermaydi. Shaxsni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 34-moddasi 3-qismida besh yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni shaxs ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta o'gir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etishi yoki ilgari o'ta og'ir jinoyati ikki marta hukm qilingan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli retsdivist deb topishga sabab bo'ladi.⁴⁸

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasi 3-qism "v"

bandida belgilab qo'yilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etiladi. Uyushgan guruh— bu jinoyatdagи ishtirokchilikning eng xavfli shakllaridan biri salanadi. Mazkur tushunchaning umumiy mazmuni JK 29-moddasida o'z ifodasini topgan. JK 30-moddasida esa uyushgan guruh tashkil etgan yoki unga rahbarlik qilgan, shuningdek, bunday guruh a'zolarining mazkur ishtirokchilik shaklida sodir etgan jinoyati uchun javobgarlik asoslari, shartlari va hajmi aniq ifodalangan. Shu bilan birga qonunda belgilanishicha, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan asoslarda va chegarada uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyat og'irroq jazoga sazovordir. Uyushgan guruhning barqarorlik belgisi ko'pincha guruh jinoiy faoliyatining davomiyligida, uni jinoiy ixtisoslashtirilganligida, faoliyat sohasining

⁴⁸ M.Uzmanaliyev. Jinoyat huquqi. (Maxsus qism). Darslik. "Yangi asr avlodи"-T,:2005.

boshqa shu kabi guruhlar bilan taqsimlanishida, har bir a'zosining vazifalari aniq bo'linganligida (tashkilotchi, boshliq), qattiq ichki intizom, jinoiy faoliyatni ma'lum bir vaqt doirasida rejalashtirishda ifodalanadi. Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan jinoyatga ko'ra, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatda ichki tashkillashtirilganlik darajasi yuqoriroq bo'ladi. Xususan, uyushgan guruh tashkilotchisi yoki boshlig'i, agar guruh tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlar uning qasdi bilan qamrab olingen bo'lsa, bajaruvchi sifatida javobgarlikka tortiladi. Bunda uning bevosita jinoyatlarni sodir etishda qatnashganligi masalasi ahamiyat kasb etmaydi. Uyushgan guruhning boshqa a'zolari ham o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilishda ishtirok etgan yoki tayyorlagan bo'lsalar, xuddi shunday darajada javobgarlikka tortiladilar. Uyushgan guruhning oddiy a'zosi bevosita mulkni talon-toroj qilishda ishtirok etmagan bo'lsa, uning uyushgan guruhning ushbu harakatlaridan xabardor bo'lishi uni ayplash uchun yetarli bo'lmaydi. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatini sodir etishda uyushgan guruhning barcha a'zolari qatnashgan yoki ishtirok etishgan bo'lsagina, u uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati deb hisoblanishi mumkin. Aks holda, qilmishni uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish kerak. Uyushgan guruhni u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish yoxud ularning amalga oshishi uchun qulay sharoit yaratuvchi holatlarni uyushgan guruh manfaatlari belgisi sifatida tushunish lozim. Qilmishni uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan deb topish uchun sud tergov organlari quyidagi ikkita belgining mavjudligiga ahamiyat berishi zarur: a) aybdor o'zi tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar guruh manfaatlarini, so'ng aybdorning subyektiv manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish uchun sodir etilayotganligini tushunishi lozim; b) uyushgan guruh a'zolari yoki uning tashkilotchisi harakatlari guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilayotganligini

tushunishi lozim.⁴⁹ Ushbu holatlarning mavjudligi uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlash deb baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi 3-qism "g"
bandi kompyuter texnika vositalaridan foydalanib mazkur jinoyatni sodir etish hisoblanadi. Kompyuter texnikasi vositalari deganda, bu ma'lumotlarni qayta ishslash uchun foydalilaniladigan texnik vositalar. Ularga: shaxsiy kompyuter (sanoq va axborot masalalarini yechish jarayonida ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishslash uchun mo'ljallangan texnik vositalarning yig'indisi), periferiya uskunalari (markaziy protsessorning bevosita boshqaruviga kirmaydigan EHMning tashqi vositalari yig'indisidir) va mashina axborotlarining moddiy tashuvchilari (disketlar, kassetalar, lazer disklar va boshqalar) kiradi. Ushbu texnika vositalaridan foydalib sodir etilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-toroj qilish mazkur band bilan kvalifikatsiya qilinadi.⁵⁰

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasida nazarda tutilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-toroj qilish va uning og'irlashtiruvchi holatlarining jinoiy-huquqiy belgilari yuqoridagi tahlilimizda ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida amaliyat va sud-tergov hujjatlarini o'rGANISH asosida yig'ilgan qo'shimcha manbalar:

O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati **hujjatlarda qayd etilgan** yoinki **hujjatlarda qayd etilmagan va shu sababli korxona, muassasa, tashkilot balansida kamomad shaklida aks ettirilmagan mol-mulkni talon-taroj qilish** shakllarida amalga oshiriladi. Hujjatlarda qayd etilgan mol-mulkni o'zlashtirish yoki rastrata qilish naqd pul yoki tovar-moddiy boyliklarni olib qo'yish va ularning kamomadini yashirmsandan talon-taroj qilish; pul mablag'lari yoki tovar-moddiy

⁴⁹ M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. (Maxsus qism). Darslik. "Yangi asr avlodii"-T,:2005.

⁵⁰ Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). O'quv qo'llanma-T,:TDYU nashriyoti,2021.

boyliklarni, keyinchalik kamomadini yashirgan holda talon-taroj qilish ko'rinishlarida aks etadi.

Korxona, muassasa, tashkilotlarda o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining mehnat huquqiy munosabatdan kelib chiqayotgan eng ko'p uchrayotgan usuli soxta hisob-kitob fakturalar yoki mehnat shartnomalari tuzish va ular bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan hamda tegishli hujjatlarda qayd etilgan, hisoblangan summalarini talon-taroj qilish usulida; ish haqi fondidagi jami summa ataylab oshirilib yuborilgani holda ortiqcha ko'rsatilgan summa bilan haqiqatda to'langan mablag' o'rtasida farqlarni talon-taroj qilish usulida; hujjatlarda bajarilgan ishlar hajmi va tannarxi oshirib ko'rsatilgani tarzda asossiz hisoblangan pullar o'zga shaxslar orqali o'zlashtirish usulida; soxta xizmat safari guvohnomalari berilib, ular asosida soxta buxgalteriya hujjatlari tuziladi va ushbu hujjatlar asosida hisoblangan mablag'larni talon-taroj qilish usulida sodir etiladi.

Davlat nomidagi yoki alohida jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar faoliyatida ham o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Yuridik shaxslar faoliyati bevosita shartnomaviy munosabatlarga borib taqaladi. Yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan hamda muayyan bir huquq va majburiyatlarni o'z ichiga qamrab oladigan shartnomalar bo'yicha ham turli usullarda mazkur jinoyat sodir etilmoqda. Odatta, bu turkumdag'i va shartnomaviy munosabatlarda sodir etiladigan jinoyatlar yuridik shaxslarning tovar-moddiy boyliklari hamda buxgalteriya hisob-kitobi bilan shug'ullanuvchi shaxslarning o'zaro oldindan til biriktirishi asosida amalga oshiriladi. Muayyan bir yuridik shaxslardan kelib tushgan tovarlar yoki pul mablag'lari to'liq yoki qisman kirim qilinmaydi va ortiqcha mol-mulk olib qo'yiladi. Yoki tovar- moddiy boyliklarining miqdori va sifatida oid ko'rsatgichlar yetkazib beruvchidan qabul qilishda tovar-moddiy boyliklarning yuk xatlariga ko'ra kamroq miqdorda va pastroq sifatda kirim qilingani haqida soxta qabul qilish dalolatnomalari tuziladi. Temir yo'l, suv transporti va boshqa transport vositalari orqali kelib tushadigan yuklarda kamomad va sifati buzilgani to'g'risida soxta tijorat dalolatnomalari

tuziladi. Yetkazib beruvchidan qabul qilingan mol-mulkning bir qismi me'yorida ortiq zarar sifatida qayd etiladi, hatto ular aslida mavjud bo'lmasa ham bu harakat sodir etiladi. Tovar-moddiy boyliklarning korxonaga kelib tushganligini tasdiqlovchi hujjatlar berilmaydi yoki ular ataylab yo'q qilinadi. Korxona omborida va xomashyo saqlanadigan, xomashyoni tayyor mahsulot hamda yarim tayyor mahsulotga qayta ishlash jarayonida hisobga olinmagan ortiqcha mol-mulkni oldindan yashirish asosida ham o'zlashtirish yoki rastrata jinoyati qilinmoqda. Yuridik shaxslarning omborida hisobga olinmagan ortiqcha mol-mulk quyidagi yo'llar bilan yaratiladi: ularni oluvchilarga to'liq yetkazib bermaslik asosida; mol-mulkni nobud bo'lган yoki me'yorida ortiqcha yo'qotish deb hisobdan chiqarib tashlash yo'li bilan; tabiiy yo'qotish deb mol-mulkni ruxsat etilgan eng yuqori darajada hisobdan chiqarish yoinki xomashyoni qayta ishlashdan chiqadigan chiqindilar sifatida amalda bo'lган miqdordan ortiqcha hisobdan chiqarish asosida amalga oshiriladi.

Hozirda, shuningdek, **davlat tashkilotlari yoki davlat ishtirokidagi tashkilotlar tomonidan byudjet mablag'lari hisobidan davlat xaridlarini amalga oshirishda talon-tarojliklar** ko'paymoqda. Shu holatda, byudjet mablag'lari ishonib topshirilgan mansabdor shaxs tomonidan xarid qilinishi lozim bo'lган tovarlarning turlari va miqdorini aniq bilgani holda davlat xaridlarini amalga oshirish uchun amalda bo'lган normativ hujjatlarni buzgani holda, xarid qilinayotgan mahsulotlarni yetkazib beruvchi tashkilotlarni aniqlab olishda o'zaro jinoiy til biriktiriladi. Mansabdor shaxs mansab mavqeidan foydalangani holda xarid qilinayotgan tovari yetkazib beruvchi korxona, tashkilot, muassasadon ma'lum bir miqdorda mulkiy manfaatdorlik ko'rgani holda uning hujjatlarini soxtalashtirish orqali tanlov yoki tenderlarda g'olib chiqishini ta'minlaydi. Mansabdor shaxs o'zi, yaqin qarindoshlari, tanishlari nomida bo'lган korxona yoki tashkilotlarni tanlovlarda g'olib chiqishiga erishadi. Xarid qilinayotgan mahsulotlarning amalda bozor yoki ishlab chiqaruvchi tashkilotlarda erkin muomalada bo'lган narxidan qimmat narxlarda yetkazib berilishi bo'yicha shartnoma tuzadi. Bundan tashqari,

yetkazib beruvchi tashkilot tomonidan sifat sertifikatlari bo'limgan, iste'molga yaroqsiz yoki belgilangan texnik tavsiflarga mos kelmaydigan mahsulot yetkazib berilishini oldindan bila turib, bunga munosabat bildirmasdan ularning qabul qilinishini ta'minlaydi.

Qurilish sohasida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish qurilish hajmini oshirib ko'rsatish, loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan talablar doirasidan chetga chiqish, qurilish uchun sarflanadigan qiymatni qasddan oshirib ko'rsatish, qurilish materiallari narxini oshirish va ularni o'g'irlash, tegishli tenderlarda g'olib chiqqan shaxslarning qurilish uchun ajratilgan umumiy summaning muayyan qismini o'zlashtirishi, loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan talablar doirasidan chetga chiqish holatlari eng keng tarqalgan jinoyat usullari hisoblanadi.

Bugungi kunda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati kundan kunga rivojlanib bormoqda. Xususan, sud amaliyoti tahliliga ko'ra, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan quyidagi jinoyat turlari oshgan: qasddan odam o'ldirish (16,7 foizga), qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazish (61 foizga), nomusga tegish (13,5 foizga), bosqinchilik (59,3 foizga), talonchilik (1,8 baravar), **o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (1,5 baravar)**, o'g'rilik (66,2 foizga), poraxo'rlik (56,9 foizga), harakat xavfsizligi qoidalarini buzish (28,7 foizga), transport vositalarini olib qochish (39,2 foizga), bezorilik (87,6 foizga). Bundan tashqari, ro'yxatga olingan jinoyatlarning turlari bo'yicha tahlil qilinganida, 2021-yilning yanvar-iyun oylarida respublikamizda 2500 ta o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (5,5 %) jinoyati ro'yxatga olingan. Davlat byudjetiga mansabdor shaxslar tomonidan 2021-yilning 9 oyi davomida 658 mlrd so'm moddiy zarar yetkazilgan. Mazkur summaning 24,8%i aynan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish

jinoyatining hissasiga to'g'ri keladi.⁵¹ Bu esa mazkur jinoyatni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligidagi ham o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan javobgarlik masalalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 167-moddasini ayrim xorij davlatlari jinoyat qonunlaridagi o'zlashtirish, rastrata qilish uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalari bilan taqqoslanganda, mazkur maxsus belgi bizning qonunchilikda ancha ijobiy hal qilingan, degan xulosaga kelish mumkin. MDHga a'zo davlatlardan Armaniston (JK 179- moddasi)⁵², Belorusъ Respublikasi (JK 211-moddasi)⁵³, Moldova (JK 191- moddasi)⁵⁴, Ozarbayjon (JK 179-moddasi)⁵⁵, Rossiya Federatsiyasi (JK 160- moddasi)⁵⁶, Qirg'iziston (JK 171-moddasi)⁵⁷, Qozog'iston (JK 176- moddasi)⁵⁸ davlatlarning Jinoyat kodekslarida **mulk aybdorga faqat ishonib topshirilishi mumkinligi ko'rsatilgan**. Aybdorning mulkka nisbatan maxsus vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida kengroq yoritilgan, ya'ni mulk aybdorga nafaqat ishonib topshirilishi, balki uning ixtiyorida bo'lishi mumkinligi ham ko'rsatilgan. Bunday qoida Gruziya (JK 132-moddasi)⁵⁹, Tojikiston (JK 245-moddasi)⁶⁰, Ukraina (JK 191-moddasi)⁶¹ davlatlari jinoyat qonunlarida ham mavjud.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sodir etilayotgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati turli usullarda sodir etilmoqda. Bu unga qarshi keskin kurash olib borish kerakligini

⁵¹ www.stat.uz

⁵² Уголовный кодекс Республики Армения//<http://www.parliament.am/legislation.php&sell=show&ID=1349&-lang-rus#a>;

⁵³ Уголовный кодекс Республики Белорусь-СПб-Юридический центрПресс.2001-С267-268;

⁵⁴ Уголовный кодекс Республики Молдова-СПб-Юридический центрПресс.2003-С262-263;

⁵⁵ Уголовный кодекс Азербайджанской Республики -СПб-Юридический центрПресс.2001-С197-198;

⁵⁶ Уголовный кодекс Российской Федерации-М.Дашков и К. 2004-С 102;

⁵⁷ Уголовный кодекс Кыргызской Республики-СПб-Юридический центр Пресс.2002-С 181-182;

⁵⁸ Уголовный кодекс Республики Казахстан-СПб-Юридический центр Пресс.2001-С 198-199;

⁵⁹ Уголовный кодекс Грузии-СПб-Юридический центрПресс.2001-С 218-219;

⁶⁰ Уголовный кодекс Республики Таджикистан-СПб-Юридический центр Пресс.2001-С254-255

⁶¹ Уголовный кодекс Украины-СПб-Юридический центрПресс.2001-С 167-168

anglatadi. Ushbu jinoyatning jinoiy-huquqiy jihatlarini yoritishda amaliyot va nazariyada hozirgacha muammolar uchrab turmoqda.

1.2& O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilishning ilmiy-nazariy asoslari

JK Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilish har bir ishning xususiyati, aybdorlar darajasi, yetkazilgan zararning miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Jinoyatlarni tergov qilish murakkab jarayon bo'lib, tergov ishini amalga oshiruvchi shaxsdan ulkan mas'uliyat va e'tiborlilikni talab qiladi.

O'zganining mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish deganda esa, jinoyatchi tomonidan birovning mol-mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasiga qaratish, shu tariqa mazkur mol-mulkning mulkdori yoki boshqa egasiga zarar yetkazishdan iborat bo'lgan, g'arazgo'ylik niyatlarida sodir etilgan qonunga xilof qilmishni aniqlash maqsadida qonunda nazarda tutilgan tergov harakatlarini o'tkazish orqali haqiqatni aniqlash tushuniladi. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati, odatda, aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan **davlat mulki, xususiy yoki boshqa mulkni** talon-toroj qilishga qaratiladi. Korxonalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari yoki boshqa xodimlari bo'lgan jinoyatchilar o'z g'ayriqonuniy harakatlari natijasida talon-toroj qilinayotgan (qilingan) mol-mulkdan foydalanadilar, jinoyatni sodir etish uchun puxta tayyorgarlik ko'rib o'z kasbiy bilimlari va tajribasini ishga solib, u bilan zarur ishlab chiqarish operatsiyalarini amalga oshiradilar. Shu tariqa xususiy mulkdorning u boshqa odamga ishonib topshirgan mol-mulki ham talon-toroj qilinishi mumkin. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismida keltirilgan jinoyatlarni tergov qilishdan tubdan farq qiladi. O'zlashtirish yoki rastata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish jarayonida **jinoyatchi shaxslar doirasini, o'zlashtirilgan yoki rastrata qilingan mulk va uning miqdorini, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar miqdorini hisoblash**, mazkur jinoyat natijasida soxtalashtirilgan hujjatlarni to'plash va fosh etish

 tergov jarayonining eng qiyin vazifalari hisoblanadi.⁶²

A.K.Zakurlayevning "Kriminalistika" darsligida, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish haqidagi jinoyatlarni tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lган holatlarning nazariy tasnifi quyidagilar:

- *O'zganing mulki chindan ham o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilinganmi?;*
- *O'zganing mulki o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilingan bo'lsa, u qanday usullar orqali talon-taroj qilingan?;*
- *O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilgan epizodning roli, sodir etish vaqtি va joyi hamda boshqa holatlari;*
- *Ayblanuvchining (ayblanuvchilarning) ayblilik darajasi;*
- *Yetkazilgan moddiy zararning miqdori va xarakteristikasi;*
- *O'zganing mulkini talon-taroj qilishda ishtirok etgan shaxslarning shaxsi, ularning harakatlaridagi aybni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlari;*
- *O'zganing mulkini talon-taroj qilishga imkon yaratib bergan shartsharoitlar;*
- *O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilishda so'roq qilinishi lozim bo'lган shaxslar doirasini aniqlash;*
- *O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati sodir etilgan jinoyat joyini ko'zdan kechirishda e'tibor berilishi lozim bo'lган holatlar nimalardan iborat ekanligini aniqlash;*

⁶² A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova, M.Abdukarimova. Kriminalistika. Darslik. T: 2015-yil.

- *Mazkur jinoyatni tergov qilishda eng kerakli, samarali, unumli tergov harakatlarini tanlash va amalga oshirish va hokazo holatlar...⁶³*

Jinoyat protsessida tergovchining protsessual faoliyati uning dastlabki tergov jarayonida ish bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlashga va jinoyatchilarni fosh etishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. Dastlabki tergovning vazifasi har bir jinoyatni tez va to'liq fosh etish, jinoyat ishlarini sudda har tomonlama to'liq ko'rib chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zarar qoplanishini ta'minlash, har bir jinoyat sodir etilish sabablari va sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etishdan iboratdir. Dastlabki tergov vazifalarining maqsadi bitta bo'lib, bu ham bo'lsa jinoyatchilikka qarshi maqsadli, aniq va muvaffaqiyatli kurashishdir.

I.H.Astanovning fikricha, O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko'rيلayotgan, jinoyat haqida ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni olgan tergovchi, avvalo, unda jinoyat alomatlarini ko'rsatuvchi zarur va yetarli ma'lumotlar borligiga ishonch hosil qilish uchun muayyan bir protsessual harakatlarni amalga oshirishi lozim. Agar tergovchi bunga ishonch hosil qilgachgina jinoyat ishini qo'zg'atadi. O'zlashtirish yoki rastrataga doir jinoyat ishlarini qo'zg'atish uchun asos bo'lib odatda bunday talon-toroj belgilari mavjud bo'lgan arizalar va tekshiruv (audit, taftish) materiallari xizmat qiladi: *ko'p miqdorda kamomad yoki ortiqcha moddiy boyliklar aniqlangani; qimmatbaho mol-mulk hujjatlarni rasmiylashtirmasdan berilgani, jinoyatchilar talon-toroj qilingan mol-mulk bilan ushlangani; ombor, ishlab chiqarish va yordamchi binolarda hisob yuritish hujjatlarida aks ettirilmagan moddiy boyliklar topilgani; boyliklar bilan ayrim operatsiyalarni tovarsiz o'tkazish kabi holatlar.*⁶⁴

⁶³ A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova, M.Abdukarimova. Kriminalistika. Darslik. T: 2015-yil.

⁶⁴ A.B.Hikmatov, I.R.Astanov, A.B.Abdulaxatov. Dastlabki tergovning protsessual va taktik asoslari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatni tergov qilishning dastlabki bosqichidagi tipik vaziyatlar:

1. Ko'p miqdorda kamomad (ortiqcha mol) mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar ifodalangan **hujjatli taftish, inventarizatsiya, tekshiruv materiallari olinishi;**

2.Nooshkora xususiyatga ega bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar uyushgan jinoiy tuzilma faoliyatini aniqlagan tezkor-qidiruv organlaridan **olinishi;**

3. Tekshirishni talab qiluvchi birlamchi ma'lumotlar mansabdor shaxslar, OAV, fuqarolarning qimmatbaho mol-mulk bilan jinoiy manipulyatsiyalarga ishora qiluvchi arizalarida ifodalangan holatlarning **aniqlanishi.**

Talon-taroj to'g'risidagi ishlar ko'pincha **hujjatli taftishlar materiallari** bo'yicha qo'zg'atiladi. Agar jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilish uchun tekshiruv o'tkazish zarur bo'lsa, u tergovchi tomonidan **qo'shimcha materiallarni talab qilib olish, tushuntirishlar olish yoki surishtiruv organlariga topshiriqlar berish yo'li bilan** o'tkaziladi.

A.O.Aripovning fikricha, Tergovchi olingan materiallarni tahlil qilish orqali quyidagilarni aniqlashi lozim:

- *taftish yoki boshqa tekshiruv tegishli bilim va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar ishtirokida o'tkazilganmi?;*
- *tekshiruvni o'tkazishning qonunga belgilangan tegishli tartibiga rioya etilganmi hamda mazkur holat yuzasidan tegishli namunalar olinganmi?;*
- *Qonunbuzarlik faktlari taftish dalolatnomasida bayon etilganmi, bayon etilgan bo'lsa ular tegishli ravishda tekshirilganmi?;*
- *tekshiruv materiallari muayyan tashkilot rahbariyati tomonidan belgilangan tartibda hamda belgilangan muddatda ko'rib chiqilganmi va ular qanday xulosa chiqargan?;*

- *ishga aloqador hujjatlarning asl nusxalari va aybdor shaxslarning tushuntirishlari ilova qilinganligi holatlari to'liq va aniq oydinlashtirilishi lozim.*⁶⁵

Bizning nazdimizza, to'plangan va olingan materiallarda talon-toroj belgilari mavjud bo'lgan har qanday holatda jinoyat ishini qo'zg'atish va tergov qilishga kirishish masalasi muhokama qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoayatini tergov qilishda, shuningdek, quyidagi holatlarga ham alohida e'tibor qaratish o'rinni sanaladi, jumladan:

Birinchi tergov vaziyatida dastlabki protsessual harakatlarning aksariyati aybdor shaxslar uchun kutilmaganlik holatiga asoslanmaydi. Misol tariqasida,

- kamomad, ortiqcha mahsulotga taalluqli bo'lgan yoki soxtalashtirish belgilariga ega bo'lgan buxgalteriya va boshqa hisob yuritish hujjatlarini olib qo'yish va ko'zdan kechirish;
- ularni taftish materiallari bilan birga o'rganish;
- hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, xomashyo va mahsulot namunalarini, laboratoriya tahlillari ma'lumotlarini, shuningdek ishlab chiqarish hujjatlarini (agar ish hisobga olinmagan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsa) olib qo'yish;
- taftish yoki tekshiruvni o'tkazgan shaxslar, boshqa guvohlarni so'roq qilish;
- moddiy javobgar shaxslarni so'roq qilish;
- gumon qilinuvchilarning ish va yashash joylarida tintuvtalar o'tkazish, ularning mol-mulki va bank hisobvaraqlarini xatlash;

⁶⁵ A.O.Aripov. Iqtisodiyot sohasidagi va mansabdorlik jinoyatlarini tergov qilish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" - 2021-yil.

- gumon qilinuvchilarni so'roq qilish, tovarshunoslik, kriminalistik, buxgalteriya va boshqa sud ekspertizalarini tayinlash kabi masalalar hal qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi tergov vaziyatida talon-taraj qiluvchilar guruhini dastlabki tergov harakatlari boshlanishidayoq zararsizlantirish uchun kutilmaganlik, tezkorlikka asoslangan harakatlardan foydalanish zarur. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taraj qilish jinoyatini yuzasidan tergovni ***talon-toraj qilingan mol-mulkni olib chiqib ketish, topshirish yoki realizatsiya qilish paytida jinoyatchilarni ushslash kriminalistik operatsiyasi*** bilan boshlash o'rinni bo'ladi. Ushbu vaziyatda dastlabki tergov harakatlarining quyidagi holatlari diqqatga sazovordir:

- *gumon qilinuvchilarni jinoyat ustida ushslash;*
- *ish, yashash joyida, ularga qarashli transport vositalarida, dala hovlilarida tintuv o'tkazish;*
- *ularning mol-mulki va bankdagi omonatlarini xatlash;*
- *talon-taraj predmeti hisoblangan obyektlar, chala mahsulot, tayyor mahsulot va tovarlarni ko'zdan kechirish;*
- *ombor, yordamchi va ofis binolarini ko'zdan kechirish;*
- *talon-toraj qiluvchilarning jinoiy harakatlarini niqoblovchi hujjatlarni olib qo'yish va tahlil qilish;*
- *guvohlarni so'roq qilish;*
- *inventarizatsiya, taftish, auditorlik tekshiruvlari, ekspertizalar tayinlash.*

Uchinchi vaziyatda to'plangan yoki olingan axborotning ahamiyati va ishonchlilik darjasini hamda uni tergovga qadar tekshirish natijalariga qarab surishtiruv organi va (aksincha) tergovchi tomonidan tergov ikkinchi vaziyat yoki birinchi vaziyat sxemasi bo'yicha boshlanadi.

Tergovning dastlabki bosqichida tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari rejasi jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lib xizmat qilgan faktik

ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini tekshirish va ularga aniqlik kiritishga, talon-taroj qiluvchilarning uyushgan jinoiy guruhi a'zolari to'g'risida yetishmayotgan ma'lumotlarni to'plashga, manfaatdor shaxslar va ularning korruption aloqalarining talon-toroj izlarini yashirish, tergovga qarshilik ko'rsatishga urinishlari oldini olishga qaratilishi lozim.

D.B.Bozorovaning ta'kidlashicha, jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng tergovchi tomonidan quyidagi asosiy holatlar tergov qilish jarayonida isbotlanishi darkor va bu jihatlar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatining kriminalistik tasnifi deb nomlanadi:

- ❖ **Jinoiy tajovuz predmeti**: o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilgan shaxsning aynan nimani talon-taroj qilganligi;
- ❖ **Jinoyatni sodir etish usuli**: o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish asosan muayyan bir hujjalarga soxta ma'lumotlar, o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritish yo'li bilan hamda hech qanday hujjatga o'zgartirish kiritmasdan sodir etiladi. Bu ikki tur o'z navbatida bir nechta qismlarga bo'linib ketadi;
- ❖ **Ishning holati va aniq vaziyati**: mazkur jinoyat kim tomonidan, qachon, qayerda, kimlarning yordami yoki ishtirokida sodir etilganligini aniq-ravshan fosh etish;
- ❖ **Jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari**: jinoyatchi to'g'risida to'liq ma'lumotlar, uning tug'ilgan sanasi, yashash joyi, oilaviy ahvoli, sudlanganlik holati bo'lgan yoki bo'lмагanligi haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi;
- ❖ **Jinoyatning motiv va maqsadi**: jinoyatning motivi bu bevosita jinoyat sodir etishga undagan ichki niyat, jinoyatning maqsadi esa jinoyat sodir etishga undagan shaxsning tashqi jihatdan ifodalanuvchi sa'y-harakatlari majmui;
- ❖ **Jinoyatning oqibati**: jinoyat natijasida yetkazilgan zarar.⁶⁶

⁶⁶ A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova, M.Abdukarimova. Kriminalistika. Darslik. T: 2015-yil.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini tergov qilishda **jinoyatchilar doirasini aniqlash** eng asosiy isbotlanishi kerak bo'lган jihatlardan biri sanaladi. Ushbu talon-taroj qilish jinoyatlarini o'rganishda jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini ham e'tiborga olish lozim. Agar talon-taroj bir guruh mansabdar shaxslar tomonidan tashkiliy ravishda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishtirokchilarining har birining roli, tashkilotchilari aniqlashi darkor. Dastlabki tergov harakatlarini tanlash, ularni o'tkazish tartibi, avvalambor, gumon qilinayotgan yoki ishning natijasidan manfaatdor bo'lган boshqa shaxslar uchun to'satdan o'tkazish maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligiga bog'liq, bu bevosita jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlarning mohiyati bilan belgilanadi. Agar gumon qilinayotgan shaxslar xabardor bo'lган taftish, sanoqdan o'tkazish hujjatlaridagi kamchiliklar natijasida jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, imkon darajasida dalillarning soxtalashtirilishi hamda yo'q qilinishining oldini olish maqsadida gumon qilinuvchi shaxslar so'roq qilinishi, ularning doirasiga oydinlik kiritish maqsadga muvofiq. Ikkinchı holatda mazkur jinoyat yuzasidan dastlabki tergov harakatlari va kechiktirib bo'lmaydigan tusdagi tadbirlarni to'satdan va bir vaqtda o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

A.O.Aripovning aytishicha, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qiluvchilarning shaxsiga doir ma'lumotlar yuqorida aytilganidek, isbotlanishi lozim bo'lган eng muhim holatlardan biridir. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qiluvchishaxslarning orasida o'zganing hisobiga yashashga moyil bo'lган mansabdar shaxslar va xufyona iqtisodiyot korchalonlari ko'p. Aksariyat hollarda bu odamlar yuksak intellektual va professional saviyasi bilan ajralib turadi, ular ishlab chiqarishning «mo'may daromad qilish» imkonini beradigan kamchiliklarini yaxshi biladigan mutaxassislar hisoblanadi. Ushbu toifaga mansub shaxslar yengil hayot kechirishga moyil shaxslar bo'ladi. Jinoyatchilarning shaxsiy xususiyatlarini bilish talon-toroj usuli va mexanizmini, har bir ishtirokchining qilmishdagi roli (tashkilotchi, bajaruvchi, yordamchi)ni aniqlash imkonini beradi. Shu xususiyatlarni hisobga olgan holda ularning ishtirokidagi tergov harakatlarini o'tkazish taktik

usullari, tergov metodlari tanlanadi. Agar talon-toroj uyushgan jinoiy tuzilma tomonidan sodir etilgan bo'lsa, **u qachon va qayerda tuzilgani, uning uyushqoqlik darjasи, tarkibiy tuzilishi, boshqa uyushgan jinoiy tuzilmalar va hokimiyat organlari bilan aloqalari, ishtirokchilarining vazifalari, talon-toroj qilingan mulkni taqsimlash, realizatsiya qilish usullari** aniqlanadi. Uyushgan jinoiy tuzilmaning rahbar bo'g'ini odatda xavfli mansabdorlik jinoyatlari (poraxo'rlik, xizmat mavqeini suiiste'mol qilish) sodir etadigan, talon-toroj qiluvchilarga «homiylik» qiladigan shaxslar bilan bog'liq bo'lishi bois, tergov jarayonida uyushgan jinoiy tuzilma a'zolarining barcha aloqalarini, ular kriminal faoliyatining barcha epizodlarini aniqlash zarur. Aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar: 1) har bir epizod bo'yicha jinoyat voqeasi (predmeti, usuli, mexanizmi, sodir etish joyi va sharoitlari); 2) uyushgan jinoiy tuzilma har bir a'zosining aybdorlik darjasи, talon-toroj qilish motivlari, har birining aybdorlik darjasи va xususiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar; 3) talon-torojlar sodir etishga imkon bergen shart-sharoitlardan iborat.⁶⁷

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini tergov qilishda **talon-taroj manbaini aniqlash** ham eng asosiy isbotlanishi kerak bo'lgan jihatlardan biri sanaladi. Talon-taroj manbai- jinoyat hodisasi sodir etilganligini isbotlash bilan bog'liq bo'lgan eng muhim holat bo'lib, unga aniqlik kiritmasdan, yetkazilgan zararning xarakteri va miqdorini, talon-taroj sodir etishga ko'maklashgan sharoitlarni aniqlash qiyin. Tergovchi tomonidan talon-taroj manbai haqida to'plangan ma'lumotlar odatda jinoyatning ishtirokchilariga ham ta'sir qiladi.

Yuqorida keltirilgan asosiy jihatlar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan isbotlanishi lozim bo'lgan jihatlardir. Jinoyat protsessual qonunchilikda belgilangan tergov

⁶⁷ A.O.Aripov. Iqtisodiyot sohasidagi va mansabdorlik jinoyatlarini tergov qilish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" - 2021-yil.

harakatlarining barchasi aynan mazkur holatlar bo'yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgandir.

II BOB O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA QILISH JINOYATINI TERGOV QILISHNING AMALIY ASOSLARI

2.1& O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan tergov qilishni rejalashtirish va o'tkaziladigan tergov harakatlari tasnifi

Tergovni rejalashtirish- tergovchining tergov vazifalarini hal qilishga qaratilgan eng samarali yo'llari va vositalarini belgilashga qaratilgan murakkab fikrlash faoliyatidir. Tergovni rejalashtirish tergovni oqilona tashkil etishning murakkab sharti va asosiy usuli hisoblanadi. Tergovni rejalashtirish tergovchining aniq maqsadga qaratilgan faoliyat yo'nalishini ta'minlab beruvchi vosita bo'lib, u nima qilish kerakligini, qachon, qayerda hamda qanday harakat qilish lozimligini ko'rsatib beradi. Tergovni rejalashtirish uchun tergovchi ish bo'yicha minimal boshlang'ich axborotga ega bo'lishi, tergov qilinishi lozim bo'lgan ishning muayyan bir xususiyatlaridan boxabar bo'lishi, yuzaga kelgan vaziyatga o'zining tajribasi va nazariy bilimlaridan kelib chiqib to'g'ri baho bera olishi, vaqt chegarasini qat'iy hisobga olgan holda ish yuritishni talab etadi. Rejalashtirish turg'un xarakterga ega bo'lmay, ishning xususiyatlaridan kelib chiqib vaqt-vaqt bilan tuzatib borishni, o'zgartirish, qo'shimchalar kiritib borishni taqozo etadi. Rejalashtirish orqali tergovchi yuzaga kelayotgan (kelgan) vazifalarni o'z vaqtida hal qilish, shu tariqa yuzaga kelgan tusmollarni tekshirish, vaqtdan unumli foydalanish, o'z ish yurituvida bo'lgan har bir jinoyat ish bo'yicha bir yo'nalishda ish olib borish, tuzilgan rejalarga o'z vaqtida tuzatish kiritish, olingan natijalarga aniq va xolisona baho berish imkoniyatiga ega bo'ladi.⁶⁸

⁶⁸ A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi.TDYU. T,: 2015-yil.

A.B.Hikmatovning ta'kidlashicha, tergov boshlanishidan oldin barcha tergov harakatlari rejasidagi lozim. Bunda, dastlabki bosqichdagi tergov harakatlari rejasi keyingi tergov harakatlari rejasidan farqli asosda tuziladi. Dastlabki bosqichda tergovni rejasidagi elementlarni o'z ichiga ko'plab tashkiliy tusdagi elementlarni o'z ichiga qamrab oladi: dastlabki tergov harakatlari rejasi, tashkiliytayyorgarlik tadbirlari, tergov qilinayotgan ish holatlari bilan bog'liq imkon qadar ko'proq faktik ma'lumotlar to'plash yo'llari, manfaatdor shaxslarning jinoyat izlarini yashirishga qaratilgan ehtimoliy urinishlari, ashyoviy dalillarni yo'q qilish yoki ularni soxtalashtirishning oldini olishga yo'naltirishgan harakatlar yo'nalishini aytib o'tish joizdir.⁶⁹

Bizning fikrimizcha, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergovni rejasidagi lozim O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 324- moddasida keltirib o'tilgan jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lib xizmat qilgan hujjatlar xususiyatidan hamda ayblanuvchining mazkur jinoyatga tayyorgarlik ko'rayotganidan, sodir etish usullari xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyatini sodir etish usuli va uning aniqlanishi turli tuman bo'lganligi bois, mazkur jinoyat ishi yuzasidan tergovni rejasidagi lozim bir xil ko'rinishda bo'lmay, talon-tarojning qanday aniqlangani va qanday sodir etilganligidan kelib chiqqan holda tuziladi. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan ish qo'zg'atilmasdan oldin ham, ish qo'zg'atilgandan keyin ham tergovni rejasidagi lozim mumkin. Shaxs tomonidan korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulki, muayyan qiymatga ega bo'lgan ashyolari, qimmatli qog'ozlar, moddiy qimmatliklar o'zlashtirilayotgani yuzasidan muayyan bir axborotga ega bo'lgan tergovchi tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organlar bilan hamkorlik aloqalarini olib bormay yurib, mazkur jinoyatni fosh etish mumkin emasligi masalasiga to'xtalsa, tergovni rejasidagi lozim

⁶⁹ A.B.Hikmatov, I.R.Astanov, A.B.Abdulaxatov. Dastlabki tergovning protsessual va taktik asoslari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

ham aynan mana shu tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishdan boshlanadi. Bunda qaysi tezkor-qidiruv tadbirlarini tanlash va hal etish O'zbekiston Respublikasi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 14- moddasidan kelib chiqqan holda tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organ boshlig'i hamda tezkor-qidiruv tadbirini amalga oshirayotgan shaxs tomonidan hal etiladi. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish muddati va mas'ul shaxslar tergovni rejallashtirish jarayonida alohida qayd etiladi. Aynan tezkor-qidiruv tadbirlaridan boshlangan tergov rejasini keyingi tergov rejasini uchun kata ahamiyat kasb etadi. Boisi, ishning natijasi jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati qonunga zid ravishda egallab olish va niqoblab (muayyan bir hujjatlarni soxtalashtirgan holda, hujjatlarni muayyan ma'lumotlarni qayd etmagan holda) sodir etiladi. Aynan mana shu ikki xil usulda sodir etiladigan jinoyatning sodir etish usulidan kleib chiqqan holda tergov rejasini ishlab chiqiladi.

O'zgalar mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati faktini ko'rsatadigan eng ko'p uchrayotgan tipik belgililar quyidagilar bo'lib, tergov rejasini tuzishda ham mana shu tipik belgilardan kelib chiqqan holda harakat qilinadi:

Jinoyat ustida ushslash talon-taroj qilingan mulk bilan: bu holatda tergov rejasini tuzishda qiyinchiliklar vujudga kelmaydi. Tergov rejasini hodisa joyini ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish, so'roq, ekspertizalar tayinlash, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan yerda tekshirish kabi tergov harakatlari bilan boshlanib, jinoyat ishini ayblov xulosasi bilan sudga yuborish

jarayonigacha bo'lgan protsedurani o'z ichiga qamrab oladi. Tergov rejasiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish ham ko'p hollarda talab etilmaydi.⁷⁰

Moddiy javobgar shaxslar kelib chiqishini tushuntirib bera olmaydigan, ma'muriyat esa o'z ixtiyoridagi vositalarni ishlatib bo'lib, ularning qoldiqda mavjud emasligi sabablarini aniqlay olmagan holdagi moddiy boyliklar, pul mablag'larining to'g'ri aniqlangan kamomadi yoki ortiqchasi bilan:bu holatda tergov rejası ancha keng qamrovli va ko'p vazifalarning ilgari surilishi bilan ajralib turadi. Tergov rejası bu holatda ko'proq dalillarning yo'q qilinishini oldini olishga qaratilgan bo'lib, tezkor harakat qilishni talab etadi. Agar tergovchi ishni shaxslarni so'roq qilishdan boshlashni tergov rejasiga kiritsa kriminalistik jihatdan tergov qilishda kata xatolikka yo'l qo'yan bo'ladi. Tergovchi ishni rejalashtirishda birinchi darajali vazifa sifatida hodisa joyini ko'zdan kechirib, ish uchun ahamiyatli bo'lgan hujjatlarni olib qo'yib, muxrashi va ishga aloqador shaxslar doirasiga oydinlik kiritishga yordam beradigan harakatlar yo'nalishini belgilab olishi lozim. Ayblanuvchi shaxslar kamomad chiqqan sharoitda kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan soxta ma'lumotlarni taqdim etishga harakat qilishadi. Aybdor shaxslar doirasida muayyan bir to'liqsizlik vujudga kelib, kimlarningdir jinoyatga daxldorlikdan chiqishga urinish hamda boshqa bir qilmishlarni yashirishga harakat boshlanadi. Shu bois tergovchi tergov rejasida ehtiyyot choralarining eng muhim turlarini tanlash kerakligi masalasini ham belgilab olishi haqiqatni aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tergov ishini rejalashtirishda tergovchi kamomadga sabab bo'lgan holatlar, oldingi va keyingi hujjatlardagi farq, bu hujjatlarni yuritishga mas'ul bo'lgan hamda buni nazorat qiladigan subyektlar doirasini aniqlashi, o'zlashtirilgan yoki rastrata qilingan predmetning harakatlanishida ishtirok etadigan shaxslarni to'liq so'roq qilish lozimligini ham belgilashi shart. Mazkur holat aniqlanganda aybdor shaxslarning ish faoliyati yuritishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

⁷⁰ A.B.Hikmatov, I.R.Astanov, A.B.Abdulaxatov. Dastlabki tergovning protsessual va taktik asoslari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

Holat aniqlangan paytdan boshlab aybdor shaxsning boshqalar bilan muloqot olib borishiga yo'l qo'yish ham haqiqatni aniqlashga putur yetkazadi.⁷¹

Quyidagi holatlarda ham tergov ishini puxta rejalashtirish tavsiya etiladi:

- *Ombor, ishlab chiqarish yoki boshqa xonalarda hujjatlarda aks etmagan moddiy boyliklarning aniqlanishi bilan;*
- *Mulkni, tayyor mahsulotni, qurilish materiallarini va boshqalarni noqonuniy sotish yoki sotib olish faktlari bilan;*
- *Ushbu tashkilotda ishlamagan, ushbu ishni bajarmagan shaxslarga asossiz ravishda ish haqi hisoblash, to'lash fakti bilan;*
- *Hisobga olinmagan zaxirani aniqlash yaratish maqsadida, qabul qilingan yoki chiqarilgan mulkning miqdor va sifat xususiyatlarini noto'g'ri aniqlash, miqdor va sifat ko'rsatgichlarini buzib ko'rsatadigan moslamalardan foydalanish bilan;*
- *Mansabdor shaxslar tomonidan mol-mulkni tegishli hujjatlarsiz qabul qilish yoki chiqarish faktining aniqlanishi bilan;*
- *Qalbaki mahsulotlarning aniqlanish fakti bilan;*
- *Mol-mulkni yuk xati hujjatlarida ko'rsatilgan miqdordan oshgan holda yoki umuman mavjud bo'lмаган hujjatlarsiz tashish;*
- *Qat'iy hisobot blankalari o'rнига mol-mulk harakatini aks ettirishda muntazam ravishda hujjatlarning hisobga olinmagan blankalaridan foydalanganlik holati bilan;*
- *Moddiy boyliklar va mablag'larni hisobdan chiqarish uchun soxta hujjatlarni taqdim etish yo'li orqali sodir etilganligi bilan;*
- *Hujjatlarda bajarilgan ishning hajmi va narxi to'g'risida orttirilgan ma'lumotlarni ko'rsatish bilan;*
- *Hisob-kitob hujjatlarining soxtalashtirilishi bilan;*
- *Mol-mulkni hisobdan asossiz chiqarish yo'li bilan;*

⁷¹ A.O.Aripov. Iqtisodiyot sohasidagi va mansabdorlik jinoyatlarini tergov qilish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" - 2021-yil.

- *Turli xarajatlar niqobi ostida mol-mulkni ortiqcha hisobdan chiqarish yo’li bilan;*
- *Saqlash muddati tugamagan mol-mulkning hujjatlarini muddatidan oldin yo’q qilish yo’li bilan;*
- *Go’yoki sotib olingan va korxonaga kelib tushmagan, soxta hujjatlar bo’yicha kirim qilingan mablag’alarni hisobdan chiqarish bilan.*⁷²

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda tergovchi o’zganing mulkini o’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan talon-taroj qilish jinoyati bo’yicha kelib tushgan materiallarni o’z ish yurituviga qabul qilib, bevosita ishda mavjud bo’lgan ma’lumotlardan foydalanib tergov harakatlarining boshlang’ich harakatini tayyorlash hamda tashkiliy choralarini o’tkazish rejasini tuzadi. Tayyorlov bosqichida tergovchi reja tuzishda:

1. **Talon taroj sodir bo’lgan joyni**, ya’ni korxona, muassasa, tashkilotning ishslash sharoiti bilan tanishishi lozim. Ushbu korxona, muassasa, tashkilot mahsulot bilan ta’minlab turadigan yoki shu korxonalarini tayyor mahsulotlari qaysi tashkilot orqali realizatsiya qilinishini hisobga olgan holda shu korxonaning ham ishslash sharoiti bilan tanishishi;
2. **Korxona, tashkilot, muassasaning hisob-kitob hamda hujjatlar tizimi** bat afsil o’rganishi;
3. **Gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslar to’g’risidagi ma’lumotlar** to’planishi va yig’ilishi hamda bu ma’lumotlar o’z ichiga gumon qilinayotgan shaxslarning yaqin aloqalari, tanish-bilishlari, yashash joylari, mulkiy ahvoli (avtomashinasи, qimmatbaho ashyolari, ko’chmas mulki bor yoki yo’qligi, yaqinda sotib olingan ashyolari to’g’risida) faktorlarni bilishga yordam berishi;
4. **Jinoiy yo’l bilan talon-taroj qilingan mulk yashirilishi mumkin bo’lgan joy** aniqlanishi va alohida qo’riqlovga olinishi;

⁷² A.B.Hikmatov, I.R.Astanov, A.B.Abdulaxatov. Dastlabki tergovning protsessual va taktik asoslari. Uslubiy qo’llanma. T: “Sahhof” -2021-yil.

5. Jinoyat sodir etilgan davrning aniq (yoki taxminiy) davriga tegishli oydinlik kiritilishi shartdir.⁷³

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilishning boshlang'ich bosqichida bir qator tashkiliy chora tadbirlar o'tkazish zarurati tug'iladi. Misol tariqasida tergov rejasida inventarizatsiya, taftish (qayta taftish) va shunga o'xhash tekshirishlarni o'tkazish aks ettiriladi.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish yuzasidan inventarizatsiya yoki taftish tayinlashda tergov rejasida quyidagi masalalarga oydinlik kiritish maqsad qilib olinishi lozim:

- *Tekshirish davomida kamomad yoki ortiqcha mahsulot chiqqanligi sabablarini aniqlash*
- *Tekshirish davomida kamomad yoki ortiqcha mahsulot chiqqanligi yuzasidan tegishli shaxslarni so'roq qilish;*
- *Jinoyat ishi yuzasidan kerakli hujjatlarni to'plash va olish;*
- *Inventarizatsiyada ishtirok etgan taftishchilar va hisob-kitob ishlari bilan shug'ullanadigan shaxslarni so'roq qilish;*
- *Hisobot hujjatlari soxtalashtirilgan bo'lsa ularni olish va tekshirish, soxtalashtirilgan o'rinalarini alohida qayd etish choralarini ko'rish lozim.*⁷⁴

O'zlashtirish yoki ratsrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini fosh qilishga qaratilgan rejada asosan **protsessual hamda tezkor-qidiruv yo'li** bilan amalga oshiriladigan harakatlar qayd etiladi.

Tergovning dastlabki vaqtida jinoyat izini o'zida saqlagan ma'lumotlar soni kam bo'ladi. Bu esa ishni rejalashtirishni ma'lum ma'noda qiyinlashishiga sababchi bo'ladi. Boisi, tergovchi har bir yangi ochilgan holatdan keyin rejani ko'rib chiqishi

⁷³ A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi.TDYU. T,: 2015-yil.

⁷⁴ A.B.Hikmatov, I.R.Astanov, A.B.Abdulaxatov. Dastlabki tergovning protsessual va taktik asoslari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil.

va uni to’ldirib borishi lozim. Rejalahtirish shuning uchun uzlusiz davom etadigan jarayondir. Rejalahtirish tergov tugashi bilan o’z nihoyasiga yetadigan jarayondir. O’zlashtirish yoki rastrata qilish yo’li bilan talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan quyidagi tergov harakatlari amalga oshiriladi:

Hujjalarni ko’zdan kechirish tergov harakati.

O’zgalar mulkini o’zlashtirish yoki rastrata qilish yo’li bilan talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergov harakatlarining eng samarali, foydali, oqilona, haqiqatni fosh qilishga yordam beradigan turlarini tergovni rejalahtirish ro’yxatiga kiritishda aynan muayyan bir tergov harakatlarini dastavval, muayyan turlarini esa keyinchalik o’tkazish lozim degan yagona ko’rsatma mavjud emas. Tergov rejasi ishning muayyan holatlari, jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib tashkil etilar ekan, tergov harakatlari ham aynan mana shu talabdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Tergovni rejalahtirish jinoyat ish qo’zgatilmasdan turib ham tezkor-qidiruv tadbirlarini o’tkazish asosida, jinoyati ishini qo’zg’atib turib tegishli tergov harakatlarini belgilash asosida tashkil etiladi.

O’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan o’zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan o’tkaziladigan eng asosiy tergov harakatlaridan biri **bu hujjalarni ko’zdan kechirish tergov harakati** sanaladi. O’zlashtirish yoki rastrata qilish yo’li bilan o’zgalar mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergovchi jinoyat ishi bo‘yicha zarur barcha hujjalarni bilan ta’minlangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday hujjalarni turkumi tergovchiga dastlabki materiallar va taftish materiallari bilan kelib tushishi mumkin. Bunday materiallarni tegishli korxona, muassasa, tashkilotlardan, arizachilardan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilardan, guvohlardan talab qilib olish ham mumkin. **Hujjalarni ko’proq vig’ish uchun o’tkazilayotgan dastlabki tergov harakatlari tezkorlik bilan o’tkazilishi lozim. Tez ko’zdan kechirishga ulgurolmasa hujjalarni saqlanayotgan joy muhrlab qo’viladi. Keyinchalik bu hujjalarni to’liq o’rganilib, keraklilari**

jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi, qolganlari esa qaytarib beriladi.⁷⁵

O'zgalar mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan turli usullarda talon-toroj qilish jinoyatlari ko'p hollarda soxta hujjatlarni qo'llagan holda sodir etiladi. Ko'rinishidan to'g'ri va qonuniy rasmiylashtirilgan hujjatlardagi ma'lumotlar haqiqatdan yiroq bo'lib, jinoyatni sodir etgan shaxslar o'zlarining foydasiga moslab, soxta hujjatlarni rasmiy hujjat blankalarida aks ettiradilar. Qoidaga moslab imzolar va muhrlar bilan tasdiqlab, unga haqiqiy, qonuniy tus beradilar. Ushbu jinoyatlarni tergov qilish jarayonida hujjatlar soxtaligini aniqlash uchun shubhali bo'lgan hujjatlardagi ma'lumotlarni tekshirib, uning mazmuni boshqa nusxadagi ma'lumotga to'g'ri kelishi, navbatdagi operatsiyalarni aks ettiruvchi hujjatlarga mos kelish-kelmasligini aniqlash bilan holatga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi. Ba'zida bunday ma'lumotlar moddiy javobgar shaxslarning javobini aks ettiruvchi yozuvlarni ko'zdan kechirish natijasida ham olinishi mumkin.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 135- moddasida belgilanganidek**, jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, **narsalar va hujjatlarni ko'zdan kechiradi**. Odatda, tergov ishiga mas'ul shaxslar haqiqatni aniqlash maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 139- moddasiga** muvofiq holda korxona, muassasa, tashkilotlarning hududini ham ko'zdan kechirishi mumkin. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati asosan hujjatlar bilan bog'liq ravishda sodir etilishini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur jinoyatni **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protssesual kodeksning 140- moddasida** nazarda tutilgan hujjatlarni ko'zdan kechirish tergov

⁷⁵ A.X.Imomnazarov, I.R.Astanov, E.A.Xayrullayev, F.Z.Mirzaev. Ko'zdan kechirish tergov harakati imkoniyatlari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;

harakatini o'tkazmasdan turib fosh etish o'ta murakkab masala sanaladi. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud narsa va hujjatlarni **ular topilgan joyda, basharti ko'zdan kechirish ko'p vaqt yoki qo'shimcha texnik vositalar talab qilsa**, keyinchalik surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o'tkazilayotgan joyda ko'zdan kechiradilar. Ko'zdan kechirish texnik vositalardan foydalanilgan holda, basharti narsa yoki hujjatlarning yo'qolishiga yoxud shikastlanishiga olib kelmasa, o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy manbalarni o'rghanish va umumlashtirgan holda, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan hujjatlarni ko'zdan kechirishda ahamiyat beriladigan eng asosiy jihatlar quyidagicha:

1. Agar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati bir necha shaxs tomonidan yoki uyushgan guruh tartibida sodir etiladigan bo'lsa talon-taroj qilingan moddiy boyliklar hisobini yuritishdan xabardor va jinoiy harakatlarni "qonunlashtirish"ga urinadigan shaxslar borligini hisobga olib, bu turdag'i jinoyatlarni tergov qilishda muayyan qiyinchiliklar vujudga keladi deya aytishimiz mumkin. Bunday hollarda jinoyatni fosh qiluvchi yagona omil-hujjatlar jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi manba sanaladi. Shu bois hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida **jinoyat ishiga aloqador har bir shaxs yuritadigan hujjatlar to'liq, batafsil, har tomonlama, izchil ko'zdan kechirilishi va to'planishi** lozim. Mazkur jinoyatga aloqador har qanday hujjatlar ishga tegishli dalillar sifatida tergov ishini yuritishga mas'ul shaxslar tomonidan o'r ganilishi darkor.

2. Tergov ishini yuritishga mas'ul shaxslar hujjatlar yo'q qilinishi, yashirilishi mumkinligini hisobga olib, **imkon qadar hujjatlar saqlanadigan hududni, hujjatlarni yaratuvchi texnika vositalarini alohida muhofazaga olib, nazoratni ta'minlashlari** lozim.

3. Tergov ishini yuritishga mas’ul shaxslar hujjatlarni ko’zdan kechirish jarayonida har bir ko’zdan kechirilgan **hujjatlarning qat’iy belgilangan ro’yxatini yuritishlari** lozim. Bunda ko’zdan kechirilgan va tekshirilgan hujjatlarning raqami, qabul qilingan sanasi, nomi, kim tomonidan qabul qilinganligi haqidagi ma’lumotlar to’liq yoritilishi va qayd etilishi lozim.

4. Hujjatlarni ko’zdan kechirishda va tekshirishda imkon darajasida **ushbu hujjatga aloqador boshqa hujjatlarni ham to’liq tekshirish lozim.** Misol uchun, buxgalteriya hujjatlariga kiritilmagan mol-mulk talon-taroj qilingan taqdirda mazkur jinoyatni fosh etish uchun boshqa hujjatlar ham imkon darajasida izlab topilishi kerak. Bunda buxgalteriya hujjatlariga kiritilmagan mol-mulkning talon-taroj qilinganligi talon-talon taroj qilingan mahsulotlarni olib chiqishdagi transport yuk xatlari yoki kirimga olinmagan mahsulotni ishlab chiqargan ishchilar uchun hisoblangan ish haqi qaydnomalari orqali, buxgalteriya hujjatlariga kiritilmagan talon-taroj qilingan mulkni boshqa shartnomaviy munosabatlar natijasida tasarruf etishga imkon bergen hujjatlar orqali ham aniqlash mumkin.

5. Tergovchi hujjatlarni kechirish jarayonida e’tibor qaratishi lozim bo’lgan eng muhim jihat bu **tekshirilishi va olib qo’yilishi lozim bo’lgan hujjatlarning ayni talon-taroj qilingan mulk bilan bog’liq ekanligi, belgilangan shaklga muvofiqligini,** ya’ni korxona va xo’jalik yurituvchi tashkilotlarida tovar-yuk hujjatlari, buxgalteriya hisobi hujjatlari, ish haqlari haqida ma’lumotlarni o’z ichiga qamrab oluvchi hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishning umumiyligini qoidalarida nazarda tutilgan belgilarga mosligini shu turdagи hujjatlar belgilari bilan taqqoslash orqali tekshirishi lozim. Chunki, korxona, muassasa, tashkilotlarning moliya-xo’jalik, buxgalteriya hisobi uchun mas’ul bo’lgan shaxslar tergovchini **chalg’itish maqsadida asosiy hujjatlar o’rniga ishga aloqador bo’lmagan ayni shu turga o’xshash hujjatlarni taqdim etishi mumkin.** Tergovchi ishni tergov qilish jarayonida amalga oshiradigan tergov harakatlaridan biri bo’lgan hujjatlarni ko’zdan kechirish jarayonida o’ta hushyor, diqqatli, e’tiborli, tajribali bo’lishi lozim. Boisi

bu turdag'i jinoyatlarni sodir etuvchi subyektlar doirasi aqliy salohiyat jihatdan ancha kuchli bo'ladi.

6. Hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida ishning sifatli, tez, samarali, natijador bo'lishini ta'minlash maqsadida kriminalistik olimlar hujjatlarni uch doirada o'rganishni maslahat beradilar. **Bunda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan hujjatlar alohida hujjatlarni o'rganish asosida(1), bir xil yoki bir turdag'i o'zaro bog'liq operatsiyalarni aks ettiruvchi bir nechta hujjatlarni o'rganish asosida(2), turdosh boyliklar harakatini aks ettiruvchi ma'lumotlarni o'rganish asosida (3) asosida** ko'zdan kechiriladi va to'planadi.

7. Bir xil yoki o'zaro bog'liq operatsiyalarni qayd etadigan ko'p sonli hujjatlarni ko'zdan kechirishda **ikki asosiy usuldan foydalaniladi: qarama qarshilik va solishtirma usul orqali.** Bu shuni anglatadiki, mazkur ish yuzasidan hujjatlarni ko'zdan kechirishda asosan hujjatlardagi qarama- qarshiliklar aniqlanadi, bir hujjatning turli nusxalari taqqoslanadi. Bunday tekshirish ayniqsa, jismoniy shaxslardan pul mablag'lari qabul qilayotgan g'aznachi yoki boshqa shaxs topshiruvchiga berilgan kvitansiya nusxasida to'g'ri miqdorni ko'rsatib, o'zida qolgan qismida esa boshqa kamroq miqdorni ko'rsatgan hollarda qo'l keladi. Ikkinchisida usul- solishtirma usulda turli xil hujjatlarda aks ettirilgan o'zaro bog'liq operatsiyalar bir-biri bilan taqqoslanadi. Masalan, tovarlarni tayyorlovchiga yetkazib berishda qabul qilish hisob-fakturalari ro'yxatga olish jurnali bilan solishtiriladi.

8. Tekshirish davrida **hujjatlar amaldagi me'yoriy hujjatlar va qoidalarga mos ekanligi ham tekshirishi** zarur. Tegishli vakolat va majburiyatlarni belgilovchi yoki yuridik ahamiyat kasb etadigan hujjatlarga tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi.

9. **Turdosh boyliklar hisobini aks ettiruvchi hujjatlarni o'rganish ham o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zgalar mulkini talon-taroj qilish**

jinoyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi bunday hujjatlar aybdor shaxslar tomonidan tovar moddiy boyliklar hisobini yuritishdan aniq qochish, bir-biriga qarama qarshi bo'lgan, asoslanmagan buxgalteriya hisobi yuritilganligini aniqlash imkonini beradi. Shunday kamchiliklar birlamchi buxgalteriya hisobi bilan yakuniy holat o'rtasida kelib chiqadigan tafovutlarni yaqqol ko'rsatib beradi.

10. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatlari yuzasidan hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida tergov ishini yuritishga mas'ul shaxslar hujjatlarni imkon darajasida boshqa hujjatlar bilan taqqoslashlari, o'zaro farqlarni aniqlashlari lozim. Har bir shubhali hisoblangan hujjatlarni korxona tomonidan olingan moddiy boyliklarning mayjudligi bilan tekshirishlari lozim. Hujjatda ko'rsatilgan xo'jalik hisobidagi tovar-moddiy boyliklarni tekshirishlari kerak. Maxsus tashkillashtirilgan nazorat xaridi yuzasidan rasmiylashtirilgan hujjatlar bilan taqqoslashlari darkor. Hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida tekshirilgan va olingan hujjatlarni imzolagan shaxslardan yoki xo'jalik operatsiyasini amalga oshirishda bevosita ishtirok etgan shaxslardan tushuntirishlar olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

A.K.Zakurlaevning ta'kdilashicha, ayrim hisob-kitob buxgalteriya hujjatlari o'rnatilgan tartib bo'yicha tekshiriladi, ya'ni hujjatlarda barcha zaruriy rekvizitlarning borligi va ularda shubhali rekvizitlarning bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Hujjatlar forma bo'yicha tekshirib ko'rildandan keyin arifmetik va normativ tekshiruvdan o'tkaziladi. Arifmetik tekshiruvda hujjatlardagi gorizontal va vertikal grafalarda chizilgan yozuvlar (raqamlar) solishtirib tekshiriladi. ⁷⁶

Normativ tekshiruvda esa hujjat mazmunining harakatdagi normativ aktlarga - instruksiyalar, nizomlar, qoidalar, xarajat, chiqim normalariga mos kelishi tekshiriladi. Bir-biri bilan bog'liq o'zaro operatsiyalarni ifoda etuvchi bir necha hujjatlarni tekshirishda **muqobil tekshiruv va o'zaro nazorat** usullardan foydalilaniladi. **Muqobil tekshiruv** usulida bir turdag'i hujjatlarning turli nusxalarini

⁷⁶ A.X.Imomnazarov, I.R.Astanov, E.A.Xayrullayev, F.Z.Mirzaev. Ko'zdan kechirish tergov harakati imkoniyatlari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;

bir-biri bilan o‘zaro solishtirib tekshirishdir. Bu nusxalar bir tashkilotning turli bo‘limlaridan yoki bir necha tashkilotlardan olinishi mumkin. **O‘zaro nazorat usulida** bir turdagи operatsiyaning turli hujjatlarda ifoda etilishi solishtirib tekshiriladi. O‘zaro nazorat usuli har bir xo‘jalik operatsiyasining turli buxgalteriya hujjatlarida ifoda etilishiga asoslangan. Buxgalteriya hujjatlari boshqa turli-tuman boshqa hujjatlar bilan solishtirib ko‘riliши mumkin.⁷⁷

Buxgalteriya hujjatlarini tekshirishning **xususiy usullari** ham mavjud.

- tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatini bevosita ifoda etuvchi kirim-chiqim hujjatlaridagi ma’lumotlarni ushbu operatsiyani boshqa tarzda ifoda etuvchi hujjatlar-ma’lumotlar bilan solishtirib ko‘rish;
- moddiy-tovar boyliklarni olish va berish operatsiyasini ifoda etuvchi hujjatlardagi ma’lumotlarni birinchi operatsiya bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan boshqa operatsiyalarni ifoda etuvchi hujjat ma’lumotlari bilan solishtirib ko‘rish;
- moddiy-tovar boyliklarning bir joydan boshqa joyga ko‘chirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ular tashib o‘tkazilgan taralar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan solishtirib ko‘rish;
- buxgalteriya hisoboti to‘g‘risidagi ma’lumotlarini tezkor uchyon ma’lumotlari bilan solishtirib ko‘rish;
- nazorat kassa tasmasidagi ma’lumotlarni kassa cheklar ma’lumotlari bilan solishtirib ko‘rish;
- pul mablag‘lari va moddiy tovar boyliklarni berish to‘g‘risidagi pul vositalari va moddiy tovar boyliklarni yozish va berish uchun asos bo‘lgan hujjatlardagi ma’lumotlar bilan solishtirib ko‘rish.⁷⁸

Bir turdagи qiymatlarning harakatini ifoda etuvchi hujjatlarni tekshirish usuli moddiy qiymatlar harakatining odatdagi tartibdan noto‘g‘ri chetga chiqib

⁷⁷ A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi.TDYU. T,: 2015-yil.

⁷⁸ A.O.Aripov. Iqtisodiyot sohasidagi va mansabdorlik jinoyatlarini tergov qilish. Uslubiy qo’llanma. T: “Sahhof” - 2021-yil.

ketganligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bu usul yordamida hujjatlardagi dastlabki yozuvlar tiklanib, talon-toroj jinoyati sodir etilganlik fakti aniqlanadi. Ushbu usul quyidagi holatlarni aniqlashda qo'llaniladi:

- a) buxgalteriya hisobi o'z holiga tashlab qo'yilgan, chalkashtirilgan bo'lsa;
- b) buxgalteriya hisobi reestrlari tasodifan yoki qasddan yo'q qilingan bo'lsa;
- c) dastlabki hujjatlar to'liq hajmda mavjud bo'lsa-da, tahliliy hisobdagi ishlarni qisqartirishni taqozo etmagan bo'lsa;
- d) tahliliy hisob yetarli darajada detallashtirilmagan bo'lsa, mavjud suiiste'mollikni aniqlash uchun tahliliy hisob o'rniga miqdoriga oid va sortli hisobni tiklash zarur bo'lgan hollarda.

Demak, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlaridan biri bo'lgan hujjatlarni ko'zdan kechirish tugallanganidan so'ng tergov ishini yuritishga mas'ul bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining ...- moddasida nazarda tutilgan tartibda olib qo'yish tergov harakatini amalga oshiradi.

So'roq qilish tergov harakati.

O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari yuzasidan dastlabki tergovdagi so'roqqa muvofiq ravishda, kriminalistik taktika tavsiya etgan usullar asosida so'roq qilishga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan so'roq tergov harakatiga tayyorlanish jarayonida tergovni rejorashtirish maqsadga muvofiq. Oldindan o'ylab tuzilgan reja asosida so'roqni olib borish uni to'g'ri tashkil etishga va tergovchi tomonidan boshqa holatlarni aniqlashga imkon beradi. Tergovni olib borish jarayonida tegishli ravishda so'roq qilinishi lozim bo'lgan shaxslarni guruhlarga ajratib olish zarur.

1. Talon-toroj jinoyati sodir bo'lgan **tashkilot rahbarlari, buxgalterlari** ham davlat mulki o'zlashtirilganiga ma'lum darajada aybdordirlar, ba'zan esa mansabdor shaxs bilan aloqador bo'lib chiqishi ham mumkin. Shuning uchun ham tergovchi

bunday guvochlarni so‘roq qilishda nihoyatda ehtiyot bo‘lishi kerak, chunki ular tergovni chalkashtirishi yoki yo‘nalishni boshqa tarafga o‘zgartirib yuborishlari mumkin. Talon-taroj obyekti bo‘lgan ashylar korxona rahbari, buxgalterlarining bevosita topshirig’iga asosan harakatda bo‘ladigan bo’lsa va boshqa subyektlarga yetkazib beriladigan bo’lsa ular asosan aybdor shaxslardan oldin so‘roq qilinib, vaziyatga oydinlik kiritilishi lozim. Chunki, aynan moliyaviy hisobot hujjatlari, shartnomaviy munosabatlar jarayonida yuritiladigan hujjatlarda, hisob-kitob hujjatlarida ularning mazkur hujjatlarga qonuniy tus beradigan imzolari mavjud bo’ladi. Ko‘p hollarda, korxona rahbari qo‘l ostidagi xodimlar tomonidan muayyan bir mulkning talon-taroj qilinganligidan bexabar bo’ladi yoki aksincha. Agar aybdor shaxslar birinchi navbatda so‘roq qilinib, ishga aloqador korxona rahbarlari muayyan muddat o’tib so‘roq qilinadigan bo’lsa ular turli uydirmalarni o’ylab topishlari yoki butun aybni xodimiga yuklashga urinishlari mumkin. Shu bois, korxona rahbarlari, buxgalterlari birinchi navbatda so‘roq qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar doirasiga mansub sanaladi.

2. Talon-toroj qilingan mulk bilan bevosita **aloqador bo‘lgan ishchilar**. Bu **ombor xodimlari, mulkni yuklash-tushirishda ishtirok etgan hamda ortiqcha mulk hosil qilinishini bilgan ishchilar** bo‘lishi mumkin. Bunday guvochlarning ko‘rsatuvlari o‘zlashtirish faktlarini, o‘zlashtirilgan mulkning miqdori, jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir qilingan bo‘lsa, ishtirokchilarning kimligini, ishtirokchilardan har birining jinoyatdagi rolini aniqlashga ma’lum darajada yordam beradi. Bunday guvochlarni so‘roq qilish ko‘pincha ijobiy natija beradi. Korxona, muassasa, tashkilotlarda shunday vaziyat paydo bo‘lishi mumkinki, ishchilar talon-taroj faktidan bevosita boxabar bo‘ladilar, biroq o‘z ishidan mahrum bo‘lish xavfi ularni mazkur holat haqida xabar berish imkoniyatidan mahrum qiladi. Agar o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan o‘zganing mulki talon-taroj qilinganligi holati yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg’atilsa, ishdan xabardor bo‘lgan ishchilar haqiqatni ro‘yrost aytib beradilar. O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan o‘zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan o‘tkaziladigan tergov harakatining aynan ushbu

guruhdagilarini so'roq qilish ko'proq dalil to'plash va ishning ko'plab tomonlarini fosh etishga yordam beradi.

3. Talon-toroj qilingan mulkni tashishda yordam bergan shaxslar. Bular avtomashina shofyorlari, yukni olib borishda ishtirok etgan shaxslar, ya'ni ishchilar bo'lishi mumkin. Ko'pincha ma'lum joyga yuk olib borgan, lekin marshrut yo'l varaqasida aks ettirilmagan bo'lsa shofyorlar guvoh tariqasida qatnashadilar. Bunda, talon-taroj qilingan mulkni tashishda yoki boshqacha tarzda ishni osonlashtirishda yordam bergan shaxslar odatda mazkur jinoyatga qasddan yoki ehtiyyotsizlik orqali aloqador bo'lishlari mumkin. Shu bois, ushbu shaxslarni so'roq qilish ham haqiqatni aniqlashga imkon beradi.

4. Yuqori turuvchi tashkilot xodimlari, taftishchi va nazoratchilar. Guvohlarni ko'rsatuv berish mazmuniga qarab yana uch guruhgaga bo'lish mumkin. **Birinchi guruhdagi guvohlar** o'z xizmat mansabidan foydalanib talon-toroj ishlari yuzasidan bo'lgan faktlarni bo'rttirib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bular korxona, muassasalarning buxgalterlari, taftishchilari va rahbarlari bo'lishi mumkin. Ularni so'roq qilishda ko'rsatuvarlari aniqlashtirib, hujjatlarga asoslangan holda isbotlashlari va atroficha tushuntirib berishlari talab qilinadi. **Ikkinci guruh guvohlar** aniqlangan kamomad, ortiqcha mahsulotlarni yashirib qolishga urinadilar. Shuning uchun ham ularning ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, hodisani to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. **Uchunchi guruh guvohlarga** jinoyatni fosh etish zarur faktlar ma'lum bo'lsa ham bu haqida hech narsa bilmasliklarini pesh qiladilar. Aslida ular talon-toroj qilgan shaxslar bilan aloqada bo'ladilar. Bular shofyorlar, yuk tashuvchilar, qorovullar, oddiy sotuvchilar va boshqalardan iborat muhim guvohlar hisoblanadi. Agar ish bo'yicha bir necha gumon ostidagi shaxslarni so'roq qilishga to'g'ri kelsa, tergovchi, avvalo, so'roqni kimdan boshlash masalasini to'g'ri hal qilish, ish uchun katta ahamiyat kasb etadi. So'roqni, avvalo, jinoyatning ikkinchi darajali ishtirokchilaridan boshlash zarur, bunday ishtirokchilar ko'pincha jinoyatga

tasodifan qo'shilib qolgan shaxslar bo'ladi va obyektiv ko'rsatuv berishga harakat qiladilar.⁷⁹

Bundan tashqari so'roq qilish jarayonida o'zgalar mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jarayonida aybdor shaxslarni so'roq qilishda quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratishlari lozim sanaladi.

Ekspertiza tergov harakati. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan quyidagi ekspertiza turlari tayinlanadi:

1. Sud-xatshunoslik ekspertizasi. Iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish jarayonida daliliy ashyo bo'lgan hujjatlarni tuzgan va imzolagan shaxslarni aniqlash masalasi o'zgalar mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatlarini tergov qilish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o'zgalar mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatlarida moliyaviy hisob-kitob hujjatlari bilan birga boshqa turli yozma hujjatlar ham **sud-xatshunoslik ekspertizasining obyekti** bo'lishi mumkin. Sud-xatshunoslik ekspertizasining obyektlari qatoriga hujjatdagi qo'lyozma matnlari: harfli, raqamli, shartli belgilar yordamida (shifr orqali) bitilgan yozuvlar va insonning shaxsini tasdiqlovchi belgisi bo'lgan maxsus yozuv-imzolar mansub sanaladi. Bunday qo'lyozma va imzolar rasmiy hujjatlar, moliyaviy-hisobot hujjatlari hamda norasmiy hujjatlarda aks etadi. **Sud-xatshunoslik ekspertizasi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini tergov qilish jarayonida hujjatlardagi ba'zi bir yozuvlarning oddiy sharoitda bitilganligi hamda imzo, dastxat ataylab o'zgartirilganligi yoki boshqa bir shaxsning imzosiga o'xshatib qo'yilganligi, keyinchalik undan voz kechish maqsadida o'zgartirib qo'yilgan imzolar** uchraydi. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari uchun mazkur ekspertiza turi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki,

⁷⁹ Sh.P.Muxammadov. So'roq qilish va yuzlashtirish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;

mazkur jinoyatlarning sodir etilishi bevosita hujjatlarni tuzish, tayyorlash uni rasmiylashtirish bilan bevosita bog'liqdir.⁸⁰

Kriminalistikada **qo'lyozma matnlari qanday shaklda yozilishidan qat'iy nazar dastxat deb ataladi.** Imzo ham qo'lyozmaning alohida turi bo'lib, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyatini fosh etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi hamda muayyan holatlarda birlamchi manba sifatida e'tirof etiladi. Bilamizki, mazkur jinoyatni sodir etish usuli turli tuman bo'lib, hujjatni rasmiylashtirgan holda yoki hujjatsiz asosda amalga oshiriladi. Talon-taroj qilingan jinoyat predmeti hujjatlarda aks ettirilib sodir etilsa, demak, mazkur hujjatning qonuniy tusga kirishi, muayyan bir oqibatlarga sabab bo'lishi shaxs tomonidan unga imzo qo'yilishini taqozo etadi. Shu bois, birgina imzoning kim tomonidan qo'yilganligi jinoyat ishi uchun alohida muhim rol o'ynaydi. **Imzo soxtalashtirilgan yoki asl bo'lisdidan qat'iy nazar jinoyatchi shaxslarni fosh etish imkonini beradi.** Xatshunoslik ekspertizasi tayinlanganda ekspertizaga **asosan hujjatning asl nusxasi** taqdim etiladi. Qo'lyozma va imzolarni tekshirish uchun hujjatning fotonusxa, faks yoki kseronusxalarini yuborish maqsadga muvofiq emas. Chunki, nusxa olish moslamasining turi, eskirishi tekshirilishi lozim bo'lган obyektga tas'ir o'tkazishi mumkin. Bundan tashqari, sud-xatshunoslik ekpertizasida qo'lyozma xatni tekshirish va uni kim yozganligini aniqlash insonning faqat o'ziga xos bo'lган yozish usuli, malaka xususiyatiga asoslanadi. Xatshunoslik tekshiruvini o'tkazishda muayyan davrda shakllanib, turli omillar ta'sirida o'zgarib boradigan insonning psixologik holatini ham o'zida namoyon etadigan dastxatning ham o'rni nihoyatda katta. Dastxat o'zini o'zi boshqaruvchi murakkab funksional jarayon bo'lib, turli o'zgaruvchan sharoitlarda o'z xususiyatini o'zgartirib boradi. Dastxat yordamida yozgan shaxsni belgilash bilan bir qatorda qo'lyozmani (imzoni) bajarish sharoiti, yozgan shaxsning psixologik va salomatlik holatlari ham aniqlanishi mumkin. Tergov ishini yuritishga

⁸⁰ S.A.Otaxo'jayev, O.Ch.Xoliqov. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005-yil

mas’ul shaxslar tomonidan o’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan o’zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati sodir etilganlik holati yuzasidan sud-xatshunoslik ekspertizasi tayinlanganda jinoyat ishini o’z ish yurituviga olgan shaxs va ekspertlar e’tibor berishi lozim bo’lgan bir qator holatlar mavjud bo’lib ular quyidagilardir:

- a) **Sud-xatshunoslik ekspertizasi tayinlanganda tekshiruv obyekti bo’lgan dastxat (imzo)dan namuna olish yoki namuna yuborish jarayonida aybdor shaxsning oxirgi paytda yozgan dastxati (imzosi)ni tekshirish lozim sanaladi.** Tekshirish shaxs tomonidan oxirgi paytlarda muayyan hujjatlarda aks etgan dastxati (imzosi) asosida aniqlanadi. Boisi, dastxat qotib qolgan, o’zgarmaydigan narsa emas. Vaqt o’tishi bilan tabiiy (qarish, ko’z va harakatni boshqarish organlarining kasalligi) yoki sun’iy (dastxat (imzo)ni ataylab o’zgartirish, yozuvni kompyuter shriftlariga monan tarzda qasddan moslashtirib yozish, chiroqli dastxatni ataylab xunuk qilib yozish, tekshirishi lozim bo’lgan dastxat (imzo)ni olinadigan namunasidan aniq-ravshan farqli qilib yozish) kabilar kiradi. Shuning uchun, aybdor shaxslar dastxatining aynanligini tekshirish uchun har tomonlama tekshirilishi lozim;
- b) Hal qilinadigan masaladan qat’iy nazar **ekspert oldiga qo’yiladigan savollar aniq, lo’nda bo’lishi va faqat bir ma’noda talqin qilishini lozim.** Noto’g’ri savol qo’yilishi unga aniqlik kiritish maqsadida ekspertizani harakatdan to’xtatishga yoki ekspertiza bajarilmasdan materiallar qaytarilishiga olib keladi;
- c) Jinoyat ishi yuzasidan sud-xatshunoslik ekspertizasi tayinlanganda **jinoyat ishini o’z ish yurituviga olgan shaxslar yoki ekspert tomonidan imkon darajasida aybdor shaxslardan tekshirish uchun namunalarni ko’proq olinishi** maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, o’zining dastxati (imzosi) ni qasddan o’zgartirayotgan aybdor shaxsdan namunalar ko’proq olingan holatda u qaysidir olingan namunada o’ziga tegishli bo’lgan haqiqiy dastxatni yozib qo’yadi. Shu bois, tekshirish uchun namunalar ko’proq olinishi joizdir;

- d) **Savolni tuzishda tergovchi bir qator talablarga rioya etishi kerak.**
Savolda tekshirilayotgan hujjatning belgilari: nomi, ro'yxat raqami, sanasi aniq ko'rsatiladi. Agar hujjat bunday belgilarga ega bo'lmasa, uni boshqa hujjatlardan ajratib turadigan belgilarga e'tibor berilishi darkor. Masalan, hujjatning o'lchami, qog'ozning, siyohning rangi, matnning mazmuni va boshqa bir qator holatlar e'tibordan chetga qolishi hamda tekshiriladigan hujjatlarni chizish, belgilab qo'yish, qandaydir izohli yozuvlar kiritish, bevoista tekshiriladigan obyektlarni qirqib olish mumkin emas;
- e) Surishtiruvchi, tergovchi, sud ekspertiza tayinlash to'g'risida qaror yoki ajrim chiqaradi hamda **ishning qisqacha mazmuni bayon etiladi.** Qarorda xatshunoslik ekspertizasi o'tkazishga sabab bo'layotgan sabablar bayon etiladi. Ekspertga yuboriladigan qarorda ishning qisqacha tafsiloti ham bayon etilishi shart. Qarorda ekspertizaga yuboriladigan hujjatlar, ularni taqqoslab tekshirish uchun vosita bo'lgan dastxat (imzo) namunalari va boshqa obyektlar ham batafsil qayd etiladi;
- f) Sud-xatshunoslik ekspertizasi **klassifikatsion, diagnostik va identifikatsion masalalarini hal etishi** lozim. Bunda klassifikatsion masalalar jumlasiga qo'lyozmani bajargan shaxsning jinsi, yoshi, dastxatining umumiy belgilari bo'yicha uning bajaruvchisi ma'lum bir guruhga taalluqli ekanligini belgilash kiradi. Diagnostik masalalar yozish sharoiti va uni bajarish bilan bog'liq ijrochining holati va maqsadini aniqlashga qaratilgan. Identifikatsion masalalar xatshunoslik ekspertizasi amaliyotida eng ko'p tarqalgan. Ular qo'lyozma va imzo aynan kim tomonidan qo'yilganligi, ikki va undan ortiq qo'lyozmalar, hujjatdagi yozuv va imzolar hamma qismlari bir kishi tomonidan bajarilganligini aniqlashga qaratiladi;
- g) Ekspert tadqiqoti muvaffaqiyatli, ya'ni to'liq, ilmiy asoslangan va obyektiv bo'lishi solishtirib tekshirish uchun **olinadigan namunalarning soni va sifatiga bog'liqdir.** Shu bois namunalar ko'proq va sifatliroq qilib olinishi maqsadga muvofiqdir;

- h) Sud-xatshunoslik ekspertizasida namuna olish **erkin, shartli, eksperimental qoidalarga** amal qilishi maqsadga muvofiq sanaladi. **Erkin namunalar** sifatida jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin shaxsning o'qish, xizmat, turar joyidan olinadigan hujjatlardagi yozuv va namunalar xizmat qiladi. 8-10 varoqda erkin dastxat namunalari va 10-15 hujjatdagi erkin imzo namunalari taqdim etilishi kerak. **Shartli erkin namunalar** deganda, jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin, lekin bevosita ekspertiza o'tkazish zaruriyati bilan bog'liq bo'limgan holda bajariladigan qo'lyozma va imzolar kiradi. Ularga ariza, tushuntirish xati, boshqa protsessual hujjatlarda yoziladigan namunalar kiradi. Ularning soni ham 10-15 varoqdan iborat bo'ladi. Eksperimental namuna maxsus ekspertiza uchun olinadi. Tergovchi yoki ekspertning taklifi bo'yicha gumon qilinuvchi tomonidan 6-8 yoki 8-12 varoqda yoziladi;
- i) Tergovchi va ekspert ham protsessual qonun hujjatlariga qat'iy amal qilishlari lozim.⁸¹

Sud-xatshoslik ekspertizasi tayinlangan holatda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati sodir etilganda quyidagi mazmunda savollar qo'yiladi:

2. **Hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizasi** ham o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tayinlanadigan ekspertiza turidir. Tergov va sud amaliyotida hujjatlarni kriminalistik texnika usulida tekshirish masalasi ko'p tarqalgan bo'lib, hujjatlar ijtimoiy sohalarning barcha doiralarida alohida o'rinni tutishi, xilma-xil va keng tarqalgan materiallardan tayyorlanganligi bilan bog'liq. **Kriminalistik texnika tekshiruvining obyektlariga turli hujjatlardagi tadqiqot qilinuvchi rekvizitlar** (*matn, imzo, pul-to'lov hujjatlari, qimmatbaho ashyoviy boyliklarni olish-sotish kabi harakatlarni ifodalovchi hujjatlar, shaxsiy hujjatlar, ma'lumotnomalar, pul-to'lov hujjatlari, naqd pul kirimi va to'lovi bo'yicha turli operatsiyalarni aks*

⁸¹ S.A.Otaxo'jayev, O.Ch.Xoliqov. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005-yil

ettiruvchi chek daftarchasi, kirim -chiqim orderlari, kassa daftarchasi, to'lov hujjatlari, turli kvitansiyalar, deponent kartochkalari kabilar kiradi.

Moddiy boyliklarning harakatini aks ettiruvchi hujjatlarga: *yuk xatlari, kirim-chiqimxarakteridagi barcha hujjatlar to'plami; **shaxsiy hujjatlarga** shaxsni tasdiqlovchi va uning mehnat faoliyatiga xos bo'lgan hujjatlar, pasport, shaxsiy guvohnoma, ruxsatnama, harbiy bilet, kasaba uyushmasi biletlari, haydovchilik guvohnomalari, diplomlar va hokazolar kiradi. **Mehnat faoliyatiga xos bo'lgan hujjatlarga** mehnat daftarchalari, mehnat faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, kasallik varaqalari, qabul qilish va ozod etish haqidagi buyruqlar, shartnomalar, taklifnomalar, shaxsiy varaqalar, kasallik tarixi va boshqalar tashkil etadi.⁸²*

Hujjatlarni texnik-kriminalistik usulda tekshirish vazifalarini ikki katta guruhga bo'lishimiz mumkin: diagnostik va identifikatsion vazifalar:

- Hujjatlarni tayyorlash, ularning turi, xili, dastlabki mazmunini va ularga o'zgartirish kiritish usullarini aniqlash;
- Ko'rinxmaydigan, yomon ko'rinxadigan matnlar, rangi o'chgan, bo'yalgan matnlar, chizilgan yozuvlarni tiklash usullarini aniqlash;
- Solishtirib tekshirilayotgan xat hujjatlarning bir xil, bir turga mansubligini aniqlash;
- Hujjatlarni tayyorlash uchun qo'llaniladigan texnik vosita va xat vositalarini aniqlash;
- Matn, imzo, muhr, shtamp izlari, belgilar tekshiriladigan yozma hujjatlarni qanday hosil bo'lish mexanizmini o'rganish kabi masalalardir.⁸³

Hujjatlardan tashqari, turli xildagi yovuz materiallari, hujjatlarga belgi qo'yishda ishlataladigan bo'yoq, qog'oz, yozuv quroli, yelim, yozuvlarni o'chiruvchi moddalar bu turdag'i ekspertizaning tekshiruv obyektiga kiradi.

⁸² I.R.Astanov. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlari. Monografiya. T:2018-yil.

⁸³ 1.S.A.Otaxo'jayev, O.Ch.Xoliqov. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005-yil

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan texnik kriminalistik ekspertiza quyidagi asosiy masalalarni tekshirish bilan shug'ullanadi:

- a) Dastlabki mazmuni o'zgartirilgan hujjatlarni tekshirish;
- b) Mazkur jinoyatni sodir etish vositasi bo'lgan hujjatdagi qasddan yoki ehtiyyotsizlik oqibatida o'chib ketgan va chizib tashlangan jinoyat ishiga taalluqli matnlarni tiklash;
- c) Yoqib tashlangan hujjatlar namunasini tiklash;
- d) Talon-taroj jinoyatini yashirish uchun hujjatdagi shaxs fotosurati o'rniغا fotosurat, boshqa qismlar qayta yelimlanganligini aniqlash;
- e) Bosiq izlar asosida hujjatdagi yozuvlarni tiklash;
- f) Yaxlitni qismlari bo'yicha tiklash maqsadida yirtib tashlangan hujjatlarni qayta tiklash;
- g) Hujjatlarning asosiy blankalarini tekshirish;
- h) Tovar-pul hujjatlarini tekshirish;
- i) Kassa cheklari orqali o'zlashtirish yoki rastrata jinoyati sodir etilgan bo'lsa kassa cheklarini tekshirish;
- j) Qalbakilashtirishdan maxsus himoya vositalari bilan ta'minlangan hujjatlarni tekshirish;
- k) Hujjat tayyorlashda montaj qilinganligini tekshirish;
- l) Imzolarni texnik vositalar yordamida tekshirish zaruriyti vujudga kelgan sharoitda.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati asosan hujjatlarni qalbakillashtirgan holda sodir etiladi. Hujjatni qisman qalbakilashtirish odatda ishlatalayotgan hujjatlarning haqiqiy mazmunini o'zgartirish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Hujjatlarning dastlabki mazmuniga o'zgartirish kiritish yo'li bilan ularni mazmuniga ta'sir ko'rsatish, imzolarni texnik va boshqa usulda qalbakilashtirish, muhr va shtamp yozuvlarini qalbakilashtirish, turli hujjatlardan qismlaridan montaj yordamida yangi hujjatlar tayyorlash harakatlari o'zlashtirish yoki rastrata yo'li

bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish bo'yicha eng keng tarqalgan usul sanaladi. Mana shunday harakatlarni quyidagi hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi turlari o'rganadi:

Dastlabki mazmuni o'zgartirilgan hujjatlarning ekspertizasi- bu shunday ekspertiza turidirki, bunda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyatini sodir etish vositasi bo'lgan hujjatning matni, ro'yxat raqami, sanasi, egasining familyasi, otasining ismi, muhr, shtamp yozuvlari o'zgartirilgan holatda hamda hujjatlardagi yozuvlarni ba'zi yovuzlarni, belgilarni o'chirish, qo'shib yozib qo'yish, qo'shib chizish, kimyoviy moddalar yordamida o'chirish, yuvib hujjatning dastlabki mazmunini o'zgartirish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Imzolarning texnik-kriminalistik ekspertizasi- bu shunday ekspertiza turidirki, bunda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyatini sodir etish vositasi bo'lgan hujjatdagি imzoni asli bilan o'xshashligini ta'minlovchi turli moslama, usul yordamida boshqa shaxs nomidan qalbakilashtirilgan holda mazkur ekspertiza tayinlanadi. Hujjatning texnik-kriminalistik ekspertizasi yordamida jinoyatchi imzoni qalbakilashtirish uchun qo'llagan usullar namoyon bo'ladi. Imzolarni texnik qalbakilashtirishning quyidagi turlari keng tarqalgan: imzoning ko'rinishini ko'chirib olib ustidan chizib chiqish; nusxa ko'chirish qog'izi yordamida nusxa olish; yorug'ga solib nusxa ko'chirish; maxsus yasalgan asbob yordamida imzoni ko'chirish kabi holatlar amaliyotda tez-tez ko'zga tashlanmoqda.

Muhr va shtamplar izlarining ekspertizasi- muhr va shtamplarning izlari aksariyat hujjatlarning asosiy rekvizitlari bo'lib, hujjatda bayon etilgan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Ular hujjatlarni qalbakilashtirishdan himoya qilish vositasidir. Muhr va shtampni qalbakilashtirish mazkur ekspertiza shug'ullanadigan asosiy masalalar jumlasiga kiradi. Muhr (shtamp) ko'rinishini bevosita hujjatda rasmda aks ettirish, muhr (shtamp)ni yassi klishe yordamida

bosish; muhr shtampni qo'lda yasalgan relefli klishe yordamida bosish qalbakilashtirishning eng keng tarqalgan usullaridandir.

Montajni aniqlash maqsadida hujjatning texnik kriminalistik ekspertizasi- nusxa ko'chirish texnikasi keng tarqalishi va ularning hujjatlar tayyorlashda ishlatalishi turli hujjat qismlaridan montaj qilish imkonini beradi. Bu ekspertiza turi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan hujjatning asli va elektrofotografiya nusxalari (kserokopiyalari)ni tekshirib solishtirish bilan shug'ullanadi. Masalan, yanada tushunarliroq bo'lishi uchun ayta olamizki, hujjatdagi ba'zi rekvizitlar bo'l mish imzo, muhr izi, matn asil hujjatdan skaner orqali olinganidan so'ng qalbaki hujjatda printer yordamida tiklanadi. Tekshirilayotgan va asil hujjatlar, shuningdek, tekshirilayotgan hujjatlardan bir nechtasida rekvizitlarning xususiy belgilari mos kelish-kelmasligi o'r ganiladi.⁸⁴

3. Sud-iqtisodiy ekspertizalar. Sud-iqtisodiy ekspertiza talon-taroj jinoyatlari yuzasidan tayinlanadigan, o'z ichiga bir qator mayda-mayda ekspertiza turlarini qamrab oladigan katta turdir. Sud-iqtisodiy ekspertizasi orqali jinoyat ishi hujjatlarini tekshirishdan maqsad iqtisodiy jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun asosiy elementni tashkil qiladigan, yetkazilgan moddiy zararni aniqlashdir. Hujjatlarni sud-iqtisodiy tekshiruvi jinoyat mexanizmini xolisona ochib berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Sud-iqtisodiy ekspertizaning yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu ekspertiza turi asosan iqtisodiy axborotni o'z ichiga qamrab olgan hujjatdagi ma'lumotlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Sud-iqtisodiy ekspertizasining vazifalari jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar o'tkazilgan taftishda aniqlanmagan iqtisodiy operatsiyalar haqida yangi dalil va boshqa ma'lumotlarni, taftishda aniqlangan holatlarning to'g'rilagini, shuningdek, shubha uyg'otgan boshqa faktlarni yig'ilgan hujjatlar asosida aniqlashdan iboratdir. Sud-iqtisodiy ekspertiza hal qilishi kerak bo'lган masalalar ro'yxati keng bo'lib, uning

⁸⁴ S.A.Otaxo'jayev, O.Ch.Xoliquov. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005-yil

maqsadi iqtisodiy axborotning ataylab o'zgartirilishi va buning shart-sharoitlarini aniqlashdir. Sud-iqtisodiy ekspertizasining masalalari aniqlik kiritishi kerak bo'lган iqtisodiy operatsiyalar, boshqa iqtisodiy ko'rsatgich va moddiy boyliklarning muayyan nomlarini qamrab oladi. Bozor munosabatlari shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda huquq-targ'ibot idoralari tomonidan o'tkazilgan ekspertizalarning turlari kundan kunga ko'payib bormoqda. Jumladan, **soliq, bank, moliya, xususiy tadbirkorlik, audit va iqtisodiyotning boshqa sohalarida sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha** ekspert tekshiruvini o'tkazish talabi kuchayib bormoqda. Iqtisodiyot sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, bozor iqtisodiyotiga jadal kirib borish sharoitida tergov va sud amaliyotida iqtisodiy ekspertizaning barcha turlarida, ya'ni **sud-buxgalteriya, sud-moliya, mehnat iqtisodining sud-ekspertizasi, sud-reja iqtisodiy ekspertizasi** va boshqa ekspertizalarga bo'lган ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda.

Sud-buxgalteriya ekspertizasi- ushbu turdag'i ekspertiza davlat, korxona, muassasa, tashkilot, jamoa mulki talon-taroj qilingan holatda, zarar keltirilgan, yo'qotishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'yilgan, tovar-moddiy boyliklar o'zlashtirib olingen, mulkiy munosabatlar sohasida xo'jasizlikka yo'l qo'yilgan sharoitda tegishli tekshirish subyektlarining ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyati tahlil qilinib, yetkazilgan moddiy zarar aniqlanishi uchun tayinlanadi. Pul mablag'larini, tovar-moddiy boyliklarning mavjudligi yoki yo'qligi haqidagi daliliy ma'lumotlarni, buxgalteriya hisobotini olib borish, nazoratini tashkil etish qoidalarini buzish holatlarini aniqlash sud-buxgalteriya ekspertizasi hal qiladigan asosiy masalalardan iborat. Moddiy boyliklarning kirimi va sarfi haqidagi dastlabki jamlovchi buxgalteriya hujjatlari, inventarizatsiya aktlari, amaldagi tekshiruv materiallari, jamlanma hisobot hujjatlari, talabnomalar, moddiy boyliklarni berish haqidagi naryadlar, bank topshiriqnomalari, kirim hujjatlari, kassa operatsiyalari, mahsulotni olib chiqib ketish uchun berilgan ruxsatnomalar, transport hujjatlari, to'lov qaydnomalari, kvitansiyalar, hisob reestrlari, aylanma qaydnomalar, mol-mulkni ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotnomalari mazkur ekspertiza tekshiradigan asosiy

obyektlardir. Sud-buxgalteriya ekspertizasida asosan o'zlashtirilgan yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilingan moddiy qiymatliklar buxgalteriya hujjatlari bilan aloqador bo'ladi. Bunda buxgalteriya hisobi bo'yicha "Bosh kitob", "Soliq hisob-kitobi", "Foydaning moliyaviy hisoboti", Korxona balansi" hujjati, "Order jurnali", "Ish yozuvlari" batafsil tekshirilishi lozim. Sud-buxgalteriya ekspertizaning yanada tushunarli bo'lishi uchun tergovchi tomonidan ekspert oldida qo'yiladigan savollarni misol sifatida keltiramiz:

- Muayyan korxonaning buxgalteriya hisobi va hisobot hujjatlarida ma'lum davr mobaynida qo'shib yozish mavjudmi?;
- Qanday omil oqibatida muayyan shaxsda ma'lum davr mobaynida hujjatlarga muvofiq kamomad hosil bo'lgan?;
- Buxgalteriya hisobi va hisobotida tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'lari kamomadi qanday qilib berkitilgan?;
- Muayyan tashkilotning buxgalteriya hisobotida buxgalteriya operatsiyasi qanday amalga oshirilgan?;
- Buxgalteriya hisobi qoidalariga binoan kamomad (ortiqcha)ning miqdorini belgilashda taqdim etilgan hujjatlar hisobga olinganmi yoki hisobga olinmaganmi yoinki hisobga olinishi mumkinmi? Ushbu hujjatlar hisobga olingan holatda kamomadning miqdori qancha bo'ladi?;
- Dastlabki va jamlanma buxgalteriya hujjatlarida mahsulot ishlab chiqarish haqidagi hisobot ko'rsatgichlari qancha summaga o'zgartirilgan?;
- Tovar-moddiy boyliklarni qayta baholash asosli ravishda amalga oshirilganmi?;
- Muayyan bir operatsiyalar tufayli korxonaga qancha zarar yetkazilgan?;
- Hisobot ma'lumotlarida aniqlangan farqlar qaysi davrga taalluqli?;
- Kamomad tufayli yetkazilgan moddiy zararning miqdori qancha?
- Tabiiy kamayish me'yorlarining qo'llanilishi asoslimi kabi savollar muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliya-kredit ekspertizasi- o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan mazkur ekspertiza turi moliya-kredit operatsiyalarini aks ettiruvchi hujjatlardagi kamomad, pul fondlarining noto'g'ri shakllanishi va sarflanishi, moliyaviy pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash, ishlatish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarning tartibi buzilishi kabi holatlar aniqlanganda tayinlanadi. Moliya-kredit ekspertizasining vazifalariga moliyalashtirish tartibida olingen mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishini nazorat qilish, soliq, yig'im, daromaddan to'lovlar, fondlarga to'lovlar, renta va boshqa to'lovlarning hisoboti, davlat va mahalliy byudjetlarga belgilangan muddatlarda to'lash tartibiga rioya qilinganlik holatlarini aniqlash, moliya hamda kreditlash sohasida yetkazilgan zararni aniqlash mazkur ekspertiza hal qiladigan eng asosiy vazifalar doirasiga kiradi. Daromaddan byudjetga o'tkaziladigan soliq to'lovleri, ishchi va xizmatchilar ish haqidan ushlab qolning soliqlarni byudjetga o'tkazish, mehnat va tabiat resurslari uchun to'lovlar o'tkazilmasdan muayyan bir usullar vositasida o'zlashtirilsa yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilinsa moliya-kredit ekspertizasi tayinlanadi. Bundan tashqari, korxona kredit olish maqsadida noto'g'ri ma'lumotlarni bankka ataylab taqdim etgani holatini aniqlash ham mazkur ekspertiza shug'ullanadigan masaladir.⁸⁵

Mehnat iqtisodiyoti ekspertizasi- asosan korxona, muassasa, tashkilotlarda tegishli ish haqi jamg'armalariga mas'ul shaxslar tomonidan ish haqi jamg'armalari ortiqcha sarflangan, o'zlashtirilgan, rastrata qilingan holatda, mehnat resurslaridan oqilona foydalanilmagan vaziyatda, ular hisobotlarda to'g'ri aks etmaganda, mehnat va ish haqi bo'yicha tegishli topshiriqlar rejalashtirilmagan holatda tayinlanadi. Mazkur ekspertiza asosan ish haqi va xodimlarga to'lanadigan boshqa to'lovlar o'zlashtirilgan yoki rastrata qilingan holatda tayinlanadi.

4. Sud-tovarshunoslik ekspertizasi. Mazkur ekspertiza turi ham bevosita o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati

⁸⁵ I.R.Astanov. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlari. Monografiya. T:2018-yil.

bo'yicha qo'zg'atilgan yoki qo'zg'atilishi mumkin bo'lган holatda o'tkaziladi. Odatda, sud-tovarshunoslik ekspertizasi tovarlarni o'g'irlash, qalbakillashtirish, o'zlashtirish, musodara qilish, shuningdek, nostonart, sifatsiz, komplektlanmagan mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda tayinlanadi. Tovarshunoslik ekspertizasi amaliyotida tovarning asil holati va qiymatini xolisona aniqlashni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan usullar ishlab chiqilgan. Sud tovarshunoslik ekspertizasining asosiy vazifasi tovarshunoslik sohasidagi maxsus bilimlar asosida tovarga ta'rif beriladigan ma'lumotlarni tadqiq etish va o'rganishdan iboratdir. Tovarshunoslik ekspertlar nafaqat tovar, uning iste'mol qiymatini, balki shikastlanishi yoki ishlatilishi natijasida uning iste'mol qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ham o'rganadilar. Korxonalarda ishlab chiqarish sohasida muayyan tovarlarga qo'yiladigan talab qaysidir xodim tomonidan tovarning sifatida, miqdoriga ta'sir ko'rsatadigan darajada buziladi. Bundan maqsad tovari ishlab chiqarish jarayonida unga qo'shilishi lozim bo'lган tarkibni tejab qolish va ortiqcha tarkibni o'zlashtirish yoki rastrata qilish. O'zlashtirilgan yoki rastrata qilingan ashyo tovarning miqdori va sifatida jiddiy ta'sir o'tkazadi. Oqibatda, tovarning bozordagi raqobatdoshlik quvvatiga jiddiy xavf vujudga keladi. Mazkur holatning ro'y bergan yoki bermaganligini aniqlash uchun sud-tovarshunoslik ekspertizasi tayinlanadi. Tadqiq etilayotgan tovar ta'riflarining me'yoriy belgilarga mos kelishini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi daliliy ma'lumotlarni aniqlash, tovar sifatining pasayishiga sabab bo'lган shart-sharoitlarni , ya'ni o'rash, markirovkalash, saqlash va tashish qoidalariга rioya qilmaslik bilan bog'liq bo'lган talon-taroj belgisi mavjud bo'lган daliliy ahamiyatga ega bo'lган ma'lumotlarni aniqlash sud-tovarshunoslik ekspertizasining predmetidir. Mazkur ekspertiza turining yanada tushunarliroq bo'lishi uchun sud-tovarshunoslik ekspertizasini o'tkazuvchi ekspert oldiga qo'yiladigan quyidagi savollarni misol sifatida keltira olamiz:

- ✓ *Tovarning nomlanishi qanday va u qaysi guruhg'a taalluqli?;*
- ✓ *Taqdim etilgan tovarning hozirgi vaqtidagi o'rtacha bozor narxi qanday?;*

- ✓ *Taqdim etilgan sanoat mollari (alohida olingan guruhlar bo'yicha) xomashyoning qanaqa turidan ishlab chiqilgan?;*
- ✓ *Mahsulotning sifat ta'riflari namuna sifatida taqdim etilgan boshqa mahsulotning shunga o'xshash ko'rsatgichlariga mos keladimi? Agar mos kelmasa sababi nimada?;*
- ✓ *Tovar buzilishi natijasida yetkazilgan zarar qiymati qancha?;*
- ✓ *Miqdor, o'lcham, rang, tus va boshqa ko'rsatgichlar jihatidan mahsulotlar qoidaga muvofiq komplekt yoki to'plamga yig'ilganmi?;*
- ✓ *Tekshirish uchun taqdim etilgan mahsulotlarda mavjud bo'lgan nuqsonlar ushbu turdag'i tovar uchun me'yorlashtirilgan sifat va navga ta'sir etadimi, ta'sir etsa bu ta'sirning mohiyati qanday?;*
- ✓ *Tovarlarni saqlashning muayyan sharoitlari uning sifati pasayishiga ta'sir qilishi mumkinmi?.*

5. Sud-qurilish-texnik ekspertizasi. Qurilish iqtisodiy sohaning muhim tarmog'i bo'lib, bu borada tegishli davlat organlari, tashkilotlari, mansabdar shaxslari tomonidan iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar kutilgan natijani berayotganidan tashqari, o'z navbatida turli xildagi iqtisodiy suiiste'molliklarga muayyan sharoit yaratib berishga olib keldi. Qurilish hajmini oshirib ko'rsatish, loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan talablar doirasidan chetga chiqish, qurilish uchun sarflanadigan qiymatni qasddan oshirib ko'rsatish, qurilish materiallari narxini oshirish va ularni o'g'irlash, tegishli tenderlarda g'olib chiqqan shaxslarning qurilish uchun ajratilgan umumiy summaning muayyan qismini o'zlashtirish yoki rastrata qilish mazkur ekspertizani tayinlash uchun sabab bo'ladi.

Bugungi kunda qurilish xarajatlarini baholashning yagona metodologiyasi mavjud emasligi bois, mutaxassis-quruvchi uchun qurilish yoki ta'mirlash qiymatini xolisona baholash borasida qiyinchilik vujudga kelmoqda. Shu bois, qurilish sohasida yuz bergen iqtisodiy jinoyatlarni tekshirish murakkab toifaga kiritilganligi va ko'p vaqt talab qilishi ham bejiz emas. Qurilish ekspertizasi qurilish sohasidagi

muayyan holatlarni maxsus bilimlarsiz aniqlashning imkonini bo’lmaganda tayinlanadigan ekspertiza turi sanaladi. Qurilish sohasida bugungi kunda sodir etilayotgan iqtisodiy talon-taroj jinoyatlari, shu jumladan, qurilish sohasida amalga oshirilayotgan o’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan o’zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan ham sud-qurilish-texnik ekspertiza turi tayinlanishi mumkin.

Qurilish sohasidagi maxsus bilimlar va amaliy faoliyat tajribasi asosida loyihalashtirish, qurilish-montaj va ta’mirlash ishlarini olib borishning butun xarajatlari va jarayonlarini qayta tekshirish va aniqlash, qurilish materiallari sarflanishini hisobga olgan holda bin ova inshootlarni ishlatish, narxlar shakllanishini nazorat qilish holatiga oydinlik kiritish, qurilishda ishlayotgan xodimlarning ish haqlari o’z vaqtida berilganligini tekshirish; qurilish me’yorlari hamda qoidalaridan chetga chiqib ketish haqida daliliy ahamiyatga ega bo’lgan ma’lumotlarni aniqlash; jinoyatni sodir etishga imkon bergen shart-sharoitlarni tekshirish mazkur ekspertiza turi shug’ullanadigan masalalar jumlasiga kiradi.

Jinoyat ishini o’z ish yurituviga olgan mas’ul shaxs tomonidan qurilish sohasida sodir etilgan o’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan o’zganing mulki talon-taroj qilinganligi jinoyati yuzasidan sud-qurilish-texnik ekspertizasi tayinlanganda ishning holatiga qarab quyidagi muhim savollar qo’yilishi mumkin:

1. *Qabul qilinganligi haqidagi dalolatnomada ko’rsatilgan qurilish-montaj va ta’mirlash-qurilish ishlari hamda nazorat o’lchash natijada aniqlangan hajmlar bir-biriga mosmi?;*
2. *Joriy narxlarda obyektlarning qurish qiymati to’g’ri belgilanganmi?;*
3. *Ish hajmini oshirib ko’rsatish yoki xarajat turlari bo’yicha ularning qiymatini asossiz ravishda oshirish natijasida qurilishning oshirilgan qiymat summasini aniqlang;*
4. *Bajarilgan ishni qabul qilib olish dalolatnomasida bajarilgan ish hajmi uchun mehnat hajmining miqdori joriy narxda asosli belgilanganmi?;*

5. *Bajarilgan ishni qabul qilish dalolatnomasida bajarilgan ish hajmiga nisbatan qurish mashinalarini ishlatish uchun to'lanadigan haq joriy narxda to'g'ri belgilanganmi?;*
6. *Bajarilgan ishni qabul qilib olish dalolatnomasida bajarilgan ish hajmiga nisbatan materiallar, buyumlar va konstruksiyalar qiymati joriy narxda to'g'ri belgilanganmi?;*
7. *Bajarilgan ishni qabul qilib olish dalolatnomalarida qurilishni tashkil qilishga ketgan xarajatlar to'g'ri belgilanganmi?;*
8. *Bajarilgan ishni qabul qilib olish dalolatnomalarida materiallar sarflanishi me'yoriy hujjatlar va haqiqiy xarajatlarga mos keladimi?;*
9. *Bajarilgan ishni qabul qilib olish dalolatnomalarida boshqa xarajatlar to'g'ri aks ettirilganmi kabi savollar muhim ahamiyat kasb etadi.*

Quyidagi savollarni hal qilish uchun ekspertga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- A)** Amalda bajarilgan ishlarning nazorat o'lchov dalolatnomalari;
- B)** Amalda bajarilgan ishlarning va solishtirish qaydnomalari;
- C)** Obyektning loyiha hujjatlari bilan loyihaning davlat ekspertizasi xulosalari;
- D)** Pudrat shartnomalari;
- E)** Qurilish materiallari va buyumlarning tovar-to'lov hujjatlari (yuk xatlari, hisob-fakturalar, yetkazib berish haqidagi shartnomalar);
- F)** Buyurtmachi va pudratchi tasdiqlagan va bank tomonidan to'langan bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalari;
- G)** Ijro texnik hujjatlar (ish olib borish loyihasi, ish jurnallari, muallif nazorati hujjatlari, bajarilgan ishlarning hisobot reestri hujjatlari).⁸⁶

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan yuqorida sanab o'tilgan ekspertiza turlaridan tashqari ishning holatiga va xususiyatiga qarab ekspertizaning boshqa turlari ham tayinlanishi mumkin.

⁸⁶ S.A.Otaxo'jayev, O.Ch.Xoliqov. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005-yil

2.2& O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilishga qo'llaniladigan zamonaviy usullar

Har bir jinoyatni tergov qilish ishning xususiyati, xavflilik darajasi, ishtirokchilar soni, berilgan ko'rsatmalar o'rtaсидagi muvofiqlikni ta'minlashning zaruriy holati, tegishli shart-sharoitdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bior bir jinoyat ishi yo'qki, aynan cheklangan yoki cheklanmagan tergov harakatlarini o'tkazishning yagona umumiy va maxsus metodlarini o'z ichiga qamrab olsa. Tergov ishini rejalashtirish, tergovni amalga oshirish ish holatidan kelib chiqadigan jarayondir. Jinoyat ishi bo'yicha yagona qolibga tushadigan tergov harakatlarining ketma-ketlikdan ifodalangan qat'iy rejimi mavjud emas. Bir jinoyat ishi yuzasidan amalga oshiriladigan tergov harakatining turi boshqa jinoyat ishi yuzasidan tayinlanmasligi mumkin. Misol uchun, qasddan odam o'ldirish jinoyati yuzasidan tergov eksperimenti o'tkaziladigan bo'lsa, firibgarlik jinoyati yuzasidan mazkur tergov harakati o'tkazilmasligi mumkin. Yoki talonchilik jinoyati yuzasidan tayinlanadigan ko'rsatuvlarni hodisa ro'y bergen joyda tekshirish tergov harakati o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish uchun muhim ahamiyat kasb etmasligi ehtimoldan yiroq emas. Bugungi kunda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning sustligi, ijtimoiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanayotgani, kapitalizmning jamiyat iqtisodiy sohasida chuqur ildiz otayotgani, jamiyat sivilzatsiyasining kuchli ta'sir kuchi jinoyatlar sonining ma'lum darajada oshishiga xizmat qilmoqda. Davr rivojlangani sari muayyan omillar ta'sirida shaxslar tomonidan sodir etilayotgan yoki sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar o'z xususiyatini o'zgartirib isbot qilish jarayoniga sezilarli qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Jinoyatni sodir etish usuli zamonaviylashgani sari uni tergov qilish jarayoni ham shunga muvofiq ravishda rivojlanib boraveradi. Aynan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon taroj qilish jinoyatini tergov qilishning zamonaviy usullari yuzasidan ilmiy adabiyotlarda tegishli yagona manbalarning mavjud emasligi bois, bugungi kunda tergov qilish jarayoniga kirib borayotgan, muayyan jinoyat ishi yuzasidan

haqiqatni aniqlashda ijobiy-muhim ahamiyat kasb etayotgan, shuningdek, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon taroj qilish jinoyati yuzasidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy tergov usullari xususida fikr yuritamiz.

Zamonaviy tergov harakatlarini amalga oshirish ishiga muhim hissa qo'shayotgan holatlardan biri bu tergov qilish jarayonida keng qo'llanilayotgan **tergov harakatlarini videotasvirga** olishdir. **O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-maydagi O'RQ-617-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 91-moddasi 4-qismiga tegishli qo'shimcha kiritildi.** Unga ko'ra, quyidagi protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi shart:

1) o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish;

2) tintuv;

3) ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish;

4) tergov eksperimenti;

5) shaxsni ushslash;

6) himoyachidan voz kechish;

7) shaxsni ushslash jarayonida o'tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo'yishkabi tergov harakatlarini videoyozuvga qayd etish shart. Ushbu sanab o'tilgan tergov harakatlari o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taraj qilish jinoyatiga ham tatbiq etish mumkin. Bundan tashqari, **O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O'RQ-542-sonli Qonuniga** asosan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga **91¹-91⁴-moddalarning** qo'shilishi ham tergov qilish jarayonidagi zamonaviy usullardan biridir. Xususan, **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 91¹-moddasiga** ko'ra "*Guvochlari, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar ishtirokidagi tergov harakatlari (so'roq, shaxslarni va narsalarni tanib olish,*

yuzlashtirish)mazkur shaxslarni ular turgan joydagi yoki yashash joyidagi viloyatning yoki tumanning yoxud shaharning huquqni muhofaza qiluvchi organiga yoki sudiga chaqirgan, **texnik vositalardan foydalangan holda videokonferensaloqa rejimida** o'tkazilishi mumkin. Videokonferensaloqa jarayonida tergov harakati ishtirokchilari tergov harakati jarayoni va natijalarini to'g'ridan to'g'ri translatsiya orqali bevosita kuzatib boradi. Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish to'g'risidagi qaror **surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan o'z tashabbusi bilan yoxud jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomasiga** ko'ra qabul qilinadi". Tergov jarayoni uchun mazkur yangilik tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida protsessual muddatlarning uzayib ketishining oldini olish, ishga jalb etilishi lozim bo'lган protsess ishtirokchisini ishga qulay va oson usulda jalb etish, protsessual chiqimlarning ko'payib ketishini oldini olish hamda dalillarni va berilgan ko'rsatmalarni keyinchalik videotasvirga muhrlash orqali tekshirish imkoniyatini beradi. Ishni videokonferensaloqa rejimida ko'rish uchun **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 91²-moddasida** belgilab qo'yilganidek, tergov ishini murakkablashtiradigan quyidagi sabablar mavjud bo'lган holatda, ya'ni *shaxsning jinoyat ishini tergov qilayotgan organga yoki tergov harakati o'tkazilayotgan joyga sog'lig'inining holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra bevosita kelish imkoniyati bo'lmaganda; jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash zarurati tug'ilganda; kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari o'tkazilganda; tergov harakatini o'tkazish qiyinlashishi yoki ortiqcha xarajatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida asosli sabablar mavjud bo'lganda* tayinlanadi. Videokonferensaloqa rejimida **so'roq, shaxslarni yoki narsalarni tanib olish yoxud yuzlashtirish** Jinoyat protsessual kodeksining 96 — 108, 112 — 131-moddalari talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi. Tergov harakati ishtirokchilariga videokonferensaloqada ishtirok etayotgan shaxslarga savollar berish va ulardan javoblar olish, jinoyat protsessual kodeksida nazarda tutilgan protsessual huquqlar va majburiyatlarni amalga oshirish

imkoniyati ta'minlanishi kerak.⁸⁷ Statistik ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda sud va tergov faoliyatida jinoyat ishlarini videokonferensaloqa rejimida ko'rish 9% ni tashkil etmoqda.⁸⁸ Jinoyat ishlarini tergov va sud jarayonlarida videokonferensaloqa rejimida ko'rish va o'tkazish jinoyat ishini tergov qilishni ancha osonlashtirishga xizmat qilmoqda.

Jinoyat ishini, shu jumladan, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish uchun yana bir yangi usul bu tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan so'roq qilingan shaxslarning ko'rsatuvlari to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun ishni o'z ish yurituviga olgan boshqa tergovchi va surishtiruvchi tomonidan qayta so'roq qila olish imkoniyatining vujudga kelganligi hisoblanadi. Mazkur yangilik **O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 108-moddasiga 5-band** sifatida qo'shildi. Bu bevosita, jinoyat ishini ko'rish jarayonida turli suiiste'molliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, jinoyatlarni, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini ham tergov qilishning mutlaqo yangicha tergov harakati turlaridan biri- **ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish** tergov harakatidir. Mazkur tergov harakati **O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldaggi O'RQ-675-sonli Qonuniga asosan Jinoyat protsessual kodeksiga 121¹-121⁵-modda sifatida** qo'shilgan. Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish deganda, guvoh va jabrlanuvchini (fuqaroviylar da'vogarni) ishni sudga qadar yuritish bosqichida prokurorning iltimosiga binoan so'roq qilishdan iborat bo'lib, u sud muhokamasi qoidalariiga ko'ra sud tomonidan amalga oshiriladi hamdaguvohni, jabrlanuvchini (fuqaroviylar da'vogarni) obyektiv sabablarga ko'ra (O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketishi, ularda jinoyat ishini yuritishda ishtiroy etishni istisno qiladigan og'ir va davomli kasallik mavjudligi) ishni sudga qadar

⁸⁷ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 91³-moddasi 4-qismi \ www.lex.uz;

⁸⁸ www.stat.uz;

yuritish yoki sud muhokamasi chog‘ida keyinchalik so‘roq qilish mumkin bo‘lmay qoladi deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo‘lgan hollarda, ularning ko‘rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo‘yilishini anglatadi. Ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish zarur bo‘lganda surishtiruvchi, tergovchi ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqida qaror chiqaradi va uni zarur materiallar bilan birga prokurorga yuboradi. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar), guvoh va himoyachi ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risida prokurorga murojaat qiladi. Prokuror ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarorning yoxud murojaatning asoslilagini tekshirib, unga rozi bo‘lgan taqdirda, ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarorni yoki murojaatni surishtiruv, dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga yoki hududiy harbiy sudga yuboradi. Iltimosnomaga ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish zarurligini tasdiqlovchi jinoyat ishi materiallarining ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi.⁸⁹

Guvochning, jabrlanuvchining (fuqaroviy da‘vogarning) ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo‘yish sudda so‘roq qilish tartibiga rioya etilgan holda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, guman qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi va zarurat bo‘lganda protsessning boshqa ishtirokchilari ishtirokida sud majlisida amalga oshiriladi. Ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish prokurorning ma’ruzasi bilan boshlanadi, u ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish zarurligini asoslaydi. **Sud majlisi audio- va videoyozuvdan foydalangan holda, shuningdek videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin.** Ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlash jarayonida guman qilinuvchi, ayblanuvchining ishtiroki guvoh yoki jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar)ning xavfsizligiga tahdid soladigan yoki ruhiy holatiga ta’sir qiladigan bo‘lsa, guman qilinuvchi, ayblanuvchi sud majlisiga chaqirilmaydi. Sud majlisining

⁸⁹Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 121¹-121²-moddalar. www.lex.uz;

joyi, sanasi va vaqtin haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmaydi. Agar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki himoyachi uzrli sabablarga ko'ra kelmagan va bu haqda sudga oldindan xabar bergan bo'lsa, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishga doir harakatlarning amalga oshirilishi keyinga qoldirilishi mumkin. Guvochning yoki jabrlanuvchining (fuqaroviylar da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yishga doir harakatlar amalga oshirilganligi haqida sud majlisining bayonnomasi tuziladi.⁹⁰

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan narsa va hujjatlarni ko'zdan kechirishning mutlaqo yangicha usuli joriy etildi. Bu ham mazkur tergov harakatidagi yangicha zamonaviy usuldir. Unga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud narsa va hujjatlarni **ular topilgan joyda**, basharti ko'zdan kechirish ko'p vaqt yoki qo'shimcha texnik vositalar talab qilsa, keyinchalik **surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o'tkazilayotgan joyda** ko'zdan kechiradilar. Mazkur protsessual yangilik **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining yangi tahrirdagi 135- moddasiga O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-sonli Qonuni bilan** kiritilgan. Bu narsa va hujjatlarni haqiqatni aniqlash uchun istalgan joyda xoh narsa va hujjat joylashgan yerda, xoh jinoyat ishi yuritiladigan, ko'rildigani joyda tekshirish hamda ko'zdan kechirish imkoniyatini yaratib berdi.

III BOB. O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA QILISH JINOYATINI TERGOV QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

⁹⁰Qarang:O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 121⁴ -moddasi. www.lex.uz;

3.1& O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan xalqaro tajriba.

Rossiya. Rossiya Federatsiyasining Davlat Dumasi tomonidan 1996-yil 24-mayda qabul qilingan, 1996-yil 5-iyun sanasida kuchga kirgan Jinoyat kodeksining 160-moddasida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon taroj qilish jinoyatining dispozitsiyasi keltirib o'tilgan. Ushbu norma 4-qismdan iborat bo'lib, ushbu moddaning **birinchi qismi** quyidagicha ya'ni: “*aybdorga ishonib topshirilgan birovning mulkini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish asosida o'zlashtirish yoki rastrata qilish*” deb ifodalangan. Normaning **ikkinchi qismida** aybni og'irlashtiruvchi dastlabki belgi, ya'ni o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish “*bir guruh shaxslar tomonidan oldindan kelishib sodir etilgan bo'lsa, shuningdek, fuqaroga ancha miqdorda zadar yetkazilgan holda*”, **uchinchi qismida** navbatdagi og'irlashtiruvchi belgi, ya'ni o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish “*shaxs tomonidan o'z mansab mavqeidan foydalangan(suiiste'mol qilgan), shuningdek, ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa*”, **to'rtinchi qismida** o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish “*uyushgan guruh tomonidan yoki juda ko'p miqdorda sodir etilgan holda*” amalga oshirilsa tegishli jinoiy javobgarlikka sabab bo'lisi keltirib o'tilgan.⁹¹ **Rossiya Jinoyat protsessual kodeksining 150-moddasiga** muvofiq, o'zlashtirish yoki rastrata jinoyati yuzasidan prokurorning yozma roziligi asosida *dastlabki tergov harakatlari* amalga oshiriladi. Bundan tashqari, **Rossiya Jinoyat protsessual kodeksining 151-moddasi 2-qism 3- bandida** Rossiya Jinoyat kodeksining 160- moddasi 3-qismida ifodalangan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish shaxsning mansab mavqeidan foydalanilgan holatda, shuningdek, ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa **tergov guruhi tuzilishi lozimligi** ham belgilab qo'yilgan.

⁹¹ www.pravo.gov.ru;

O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taraj qilish jinoyati yuzasidan **Rossiya tergov amaliyotida** Rossiya Jinoyat protsessual kodeksining 176-moddasiga muvofiq ko'zdan kechirish, 181-moddasiga muvofiq tergov eksperimenti, 182-moddasiga muvofiq jinoyatishiga aloqador hujjatlar bo'yicha tintuv, 183-moddasiga ko'ra jinoyat ishiga aloqador hujjatlarni olib qo'yish, 184-moddasi bo'yicha shaxsiy tintuv, 187-191-moddalarga binoan so'roq qilish, 192-moddasiga asoslanib yuzlashtirish, 193-moddasiga ko'ra tergovchining e'tirozi, 195-207-moddalar bilan ekspertiza kabi tergov harakatlarini amalgamashiradi. Ularni tayinlash va o'tkazish tartibi, unda ishtirok etadigan shaxslar tarkibi milliy qonunchiligidan bilan deyarli bir xil sanaladi. Biroq, Rossiya Jinoyat protsessual kodeksida taftish tergov harakati mavjud emas.⁹²

Qozog'iston. Qozog'iston Respublikasining 2014-yil 3-iyulda yangi tahrirda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 189-moddasida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taraj qilish jinoyatining huquqiy normasi keltirib o'tilgan. Mazkur norma Rossiya Jinoyat kodeksining 160-moddasida nazarda tutilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatining huquqiy normasi singari to'rt qismdan tashkil topgan. Unda keltirib o'tilishicha, *aybdor shaxsga ishonib topshirilgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish birinchi qism dispozitsiyasi bilan; bir guruh shaxslar tomonidan oldindan kelishilgan holda hamda shaxs o'z xizmat mavqeidan foydalangan tarzda og'irlashtiruvchi holatda o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini sodir etilishi ikkinchi qism 1, 3-bandlari bilan; ko'p miqdorda hamda davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxs yoki unga tenglashtirilgan shaxs yoki mansabdar shaxs yoki mas'ul davlat lavozimini egallab turgan shaxs tomonidan, agar ular o'z xizmat mavqeidan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa tarzda, shuningdek, takroran mazkur jinoyatni og'irlashtiruvchi holatda sodir etishi 3-qism 1,2 bandlari bilan; jinoiy*

⁹²Shaxsiytarjimaqilindi. Manba: www.pravo.gov.ru

guruh hamda juda ko'p miqdorda mazkur jinoyatning sodir etilishi 4-qism 1,2 bandlari bilan kvalifikatsiya qilinishi belgilab qo'yilgan.

Gruziya. Gruziya Respublikasining 1999-yil 22-iyul sanasida qabul qilingan Jinoyat kodeksining 181-moddasi bevosita o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini ifodalab beradi. Mazkur norma boshqa davlatlarning Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatidan ba'zi belgilari bilan farq qiladi. Unda belgilab qo'yilishicha, *o'zgalarning narsalarini yoki mulkiy huquqlarini qonunga xilof ravishda o'zlashtirish yoki isrof qilish, agar bu narsalar yoki mulkiy huquqlar o'zlashtirgan yoki isrof qilgan shaxsning qonuniy egaligida yoki xatti-harakatlari bilan bog'liq ravishda sodir etilgan bo'lsa birinchi qismi bilan baholanadi.* Shaxs o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj jinoyatini *bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib(1-band), takroran(2-band), ko'p miqdorda zarar yetkazish asosida(3-band), xizmat mavqeidan foydalanish (4-band)* kabi og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etsa mazkur moddaning 2-qism 1,2,3,4- bandlari bilan kvalifikatsiya qilinadi. Mazkur moddaning 3-qismi *uyushgan guruh (1-band), juda ko'p miqdorda (2-band), birovning mol-mulkini qonunga xilof ravishda tortib olganlik yoki tovlamachilikda ikki marta yoki undan ortiq sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi (3-band)* kabi o'g'irlashtiruvchi holatlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Latviya. Latviya Respublikasining 1998-yil 17-iyunda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 179- moddasida *bir shaxs tomonidan unga ishonib topshirilgan yoki uning yurisdiksiyasida bo'lган o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda egallab olish yoki o'zlashtirish jinoyatining huquqiy maqomi keltirib o'tilgan.* Mazkur normaning ikkinchi qismida quyidagi aybni og'irlashtiruvchi holatlar: *bir guruh shaxslar tomonidan kelishib olib sodir etish; katta hajmdagi giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli, zaharli yoki radioaktiv moddalar, portlovchi moddalar, o'qotar qurollar yoki o'q-dorilarni o'zlashtirish bilan bog'liq ravishda amalga oshirish* kabi holatlar keltirib o'tilgan.

Germaniya. Germaniya Federativ Respublikasining 1998-yil 13- noyabrda qabul qilingan **Jinoyat kodeksining 242, 246, 248-a, 266, 266-a, 266-b-moddalari** bevosita o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taraj qilishga bag'ishlangan. Germaniya Jinoyat kodeksi ko'char va ko'chmas, kichik hamda katta qiymatli mulklarni o'zlashtirish uchun alohida jazo tizimini yaratgan. Bundan tashqari, Germaniya Jinoyat kodeksi 266- moddasi bilan mehnat huquqiy munosabatlar sohasida ish beruvchining ish haqini, badallarni o'zlashtirishini ham jinoyat sifatida baholagan. Germaniya Jinoyat kodeksida kredit mablag'larini o'zlashtirish uchun alohida norma ham mavjud. Milliy qonunchiligidan iqtisodiy sohaning turli jabhalarida sodir etiladigan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taraj qilish uchun u qaysi soha va qanday turda sodir etilishidan qat'iy nazar JK 167- moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Biroq, Germaniya Jinoyat kodeksining yuqorida sanab o'tilgan normalarida mulkning xususiyatidan, miqdoridan kelib chiqib alohida- alohida norma vujudga keltirilgan. Mehnat huquqiy munosabatlar sohasida kelib chiqadigan mol-mulkni turli usullarda o'zlashtirish uchun ham alohida huquqiy norma mavjud.

Fransiya. Fransiya Respublikasining 2000-yil 1-iyulda qabul qilingan Jinoyat kodeksining **314-1, 314-1-1, 314-2, 314-3-moddalarida** o'zlashtirish jinoyatining huquqiy dispozitsiyasi hamda ushbu jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etishning huquqiy maqomi belgilab qo'yilgan. Fransiya Respublikasi jinoyat qonunchiligi o'zlashtirish jinoyatini ishonchni suiiste'mol qilish deb nomlaydi. Fransiya Jinoyat 314-1-moddasida ishonchni suiiste'mol qilish deganda, bu shaxsning o'ziga berilgan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar yoki har qanday mol-mulkni o'zlashtirib olishi, uni qaytarib berish, vakillik qilish yoki ma'lum bir majburiyatni bajarish bilan bog'liq ravishda sodir etilishi tushuniladi. Fransiya Respublikasi Jinoyat kodeksining 314-2- moddasida insonparvarlik va ijtimoiy yordam masalasida aholiga murojaat qilgan jamoa birlashmasi tashkiloti rahbari tomonidan ushbu mablag'larni o'zlashtirish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Fransiya Respublikasi Jinoyat kodeksining 314-3- moddasida

ishonchga tajovuz (o'zlashtirish jinoyati nazarda tutilgan) qonuniy vakil yoki davlat yoki vazirlik xodimi tomonidan yoki o'z vazifalarini bajarish munosabati bilan sodir etilishi keltirib o'tilgan.

Buyuk Britaniya. Buyuk Britaniya jinoyat qonunchiligida aynan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan alohida normativ-huquqiy hujjat mavjud emas. Buyuk Britaniya anglo-sakson huquq oilasiga mansubligi bois, shaxs tomonidan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligini kodefikatsiyalagan normativ-huquqiy hujjat ham mavjud ermas. Buyuk Britaniyada o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari umumiyl nom ostida o'g'rilik deb ataladi. Talon-taroj jinoyatlarining tushunchasi, turlari, ularni kvalifikatsiya qilish masalalari, jazo turi hamda miqdori "Theft act 1968" nomli normativ-huquqiy hujjatda ifoda etilgan. Buyuk Britaniya jinoyat qonunchiligi bo'yicha bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik, firibgarlik, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish og'irlikning turlari sanaladi. Shaxs firibgarlik jinoyatini sodir etganda ham uni aldash yoki ishonchini suiite'mol qilish asosida o'sha shaxsning mulkini og'irlaydi. Bosqinchilik jinoyatini sodir etganda shaxsga jismoniy yoki ruhiy bosim, tan jarohati yetkazgan holda uning mulkini o'g'irlaydi. Buyuk Britaniya Jinoyat qonunchiligi bo'yicha o'zlashtirish ham boshqa shaxsning mulkini o'zining ixtiyorida ekanligidan foydalanib, g'ayriqonuniy ravishda o'zining yoki boshqa shaxsning ixtiyoriga o'tkazish asosida o'g'irlashdir.

Italiya. Italiya Respublikasining 1890-yil 1-yanvarda qabul qilingan **Jinoyat kodeksining 137- muddasida** *uchinchi shaxsning manfaatlari uchun uni qonunga zid ravishda boyitish uchun boshqa shaxsga tegishli bo'lган ko'char mol-mulkni o'zlashtirish, 138- muddasida* *uchinchi shaxsning manfaatlari uchun uni qonunga zid ravishda boyitish uchun boshqa shaxsga tegishli bo'lган ko'chmas mol-mulkni o'zlashtirish* jinoyatining huquqiy maqomi ifoda etilgan. Italiya jinoyat qonunchiligi bo'yicha o'zlashtirilgan mol-mulkning turi qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati mavjud bo'lib, ko'chmas mol-mulkni o'zlashtirish og'irroq jazoga

mahkum qilinadi. **Italiya Jinoyat kodeksining 138-** moddasi 2- qismida o'zlashtirish jinoyatini og'irlashtiruvchi holatda sodir etish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, ushbu qilmish agar vakolat berilgan organning a'zosi, davlat xizmatchisi, vasiysi, homiysi, mulkini boshqaruvchi sifatida yoki davlat organlari ruxsat bergen kasb, sanoat yoki hunarni amalga oshirayotgan shaxs tomonidan sodir etilsa tegishli og'irroq jazoga tortilishi belgilangan.

Janubiy Koreya. Janubiy Koreyaning 1904-yilda qabul qilingan **Jinoyat kodeksining 355, 356, 357, 360, 364-** moddalarida o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati bilan bog'liq bo'lган normalarning huquqiy maqomi belgilab qo'yilgan. **Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 355-** moddasida aytishicha, o'zganing mulkini o'zlashtirib olgan yoki qaytarib berishdan bosh tortgan shaxs besh yildan ortiq bo'lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'n besh million vondan ortiq bo'lмаган jarima bilan jazolanadi. Agar shaxs o'zining kasbiy majburiyatlarini buzgan holda o'zganing mulkini o'zlashtirib olgan yoki qaytarib berishdan bosh tortgan **bo'lsa** **Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 356-** moddasi bilan javobgarlikka tortiladi. Bundan tashqari, Janubiy Koreya **Jinoyat kodeksining 357-** moddasida boshqa shaxsning biznesini yuritadigan shaxsning biznes egasiga tegishli bo'lган mol-mulkni o'zlashtirganligi holati yuzasidan javobgarlikni nazarda tutadigan alohida norma ham mavjud. Shuningdek, **Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 360-** moddasida yo'qotgan yoki egaligi mavjud bo'lмаган ashyolarni o'zlashtirganlik uchun, **364-moddasida** kasbiy ehtiyyotsizlik nuqtai nazaridan birovning mulkini o'zlashtirish yoki olish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jazoir. Jazoir Respublikasining 1966-yil 8-iyunda qabul qilingan **Jinoyat kodeksining 119-125-moddalarida** o'zlashtirish jinoyati bilan bog'liq bo'lган ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun jazo belgilangan.

Mazkur mavzuda yuqorida jinoiy-huquqiy jihatlari yoritilgan davlatlarning o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini-talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan o'tkaziladigan tergov harakatlarining bat afsil tasnifi yoritiladi.

3.2& O'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan muammolar va ularni bartaraf etish masalalari

Tergov amaliyotida Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni, shu jumladan, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish ishini rejalashtirish, tergov qilishni tashkil etish, amalga oshirish, dalillarni to'plash usullarini to'g'ri tanlay olish, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishini to'g'ri kvalifikatsiya qilish borasida muayyan bir xato va kamchiliklar uchraydi. Jinoyat ishini tergov qilish jarayonida belgilangan protsessual qonunchilik talablaridan chetga chiqish, qilmishni noto'g'ri baholash, tergov harakatlarini amalga oshirishda isbotlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadigan harakatlarni amalga oshirish, jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan shaxslar, jinoyat ishini yuritishga ko'maklashuvchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari amaliyotda tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

Aynan, sud-tergov amaliyotida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi 16-boshqarmasida diplom ishi oldi amaliyoti davomida jinoyat ishlari hujjatlarini o'rganish tahliliga ko'ra, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati bo'yicha, asosan, mazkur jinoyatni iqtisodiyot sohasidagi hamda davlat boshqaruvgiga qarshi qaratilgan mansabdorlik jinoyatlari bilan farqlay olmaslik holatlari quyi tergov organlarida uchrayotgani, mazkur jinoyatning noto'g'ri baholangani yuzasidan tergov organining, sudning harakatlari ustidan protest kiritish bo'yicha Bosh prokuraturaga murojaat qilinayotgani, tergov harakatlarining ko'zdan kechirish, olib qo'yish, so'roq, taftish, ekspertiza, yuzlashtirish turlarida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning guvohi bo'ldik. Nazariya va amaliyotda diplom ishimizning mavzusi bo'lmish o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan yo'l qo'yilayotgan kamchilik va xatolar quyidagicha:

Qilmishni kvalifikatsiya qilishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167- moddasida nazarda tutilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyatini **O'zbekiston Respublikasi**

Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik), 169-moddasi (o'g'rilik), 205-209-moddalar (mansabdorlik jinoyatlari), 228- modda (hujjatlarni qalbakilashtirish) jinoyati bilan farqlay olmaslik holatlari uchramoqda:

1. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati bilan o'g'rilik jinoyati o'rtasida muayyan belgilarning o'xshashligi bois kvalifikatsiyada muammo mavjud. Sud-tergov amaliyotida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilishni o'zganing mol-mulkini o'g'irlashdan farqlashda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Bu jinoyatlarni farqlashda jinoyat subyektining talon-toroj qilgan mol-mulkka nisbatan huquqiy vakolatini to'g'ri aniqlash zarur. Shuni nazarda tutish kerakki, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilishda, mulk aybdorga ishonib topshirilgan bo'lib, **uning ixtiyorida turadi va aybdor shaxs mol-mulkni tarqatish, boshqarish, tashish yoki saqlash bo'yicha huquqiy vakolatlarga** ega bo'ladi. O'g'rilik yo'li bilan talon-tarojni sodir etishda esa, shaxsning talon-toroj qilingan mol-mulkka hech qanday aloqasi bo'lmaydi yoxud **ishlab chiqarish zarurati, topshirilgan ish munosabati bilan undan foydalanish huquqiga** ega bo'ladi, xolos (masalan, bug'doy o'rayotgan kombaynchi, korxonalardagi yukchilar, haydovchilar va h.k.). Shunga e'tibor berish lozimki, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish orqali talon-toroj qilishda, mulk shaxsga qonuniy asoslarda ishonib topshirilgan yoki aybdor shaxsga boshqarish, yetkazib berish yoxud saqlash vakolatlari bilan berilgan bo'ladi. «Yuqorida ko'rsatilgan qonuniy vakolatlarga ega bo'limgan, ammo topshirilgan ishni yoxud xizmat vazifalarini bajarishi tufayli mulk saqlanadigan binoga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan o'zgalar mulkining talon-toroj qilinishi **o'g'rilik deb kvalifikatsiya qilinishi** kerak».

2. Amaliyotda o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li orqali o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati bilan amaliyotda firibgarlik jinoyatini farqlash o'rtasida ham yetarlicha muammolar mavjud. Mazkur jinoyatlarni bir-biridan farqlovchi asosiy jihatga tergov organlari yetarlicha e'tibor berishayotgani yo'q. Bu holatda jinoyatning maqsadi ikki jinoyatni bir-biridan farqlovchi asosiy mezon

sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2017-yil 11-oktabrda qabul qilingan "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 35-sonli qarorning 8-bandi 2-qismida "agar shaxs o'zganing mulkini egallahsha nisbatan qasd aybdorda mulk qabul qilinganidan keyin yuzaga kelgan bo'lsa, shaxsning harakatlari firibgarlik tarkibini bermaydi va muayyan holatlarni hisobga olgan holda o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish (masalan, shaxsning o'ziga xo'jalik yuritish, operativ boshqarish, ishonchli boshqarish, yetkazib berish, saqlash, realizatsiya qilish va hokazo maqsadida qonuniy berilgan mulkni qonunga xilof tarzda va haqini to'lamay o'zining yoki boshqa birovning mulkdorligiga qaratishi) sifatida baholash kerak" deb belgilab qo'yilgani bejiz emas. Sharhnomalar bo'yicha o'z vaqtida qaytarish sharti bilan kimdandir muayyan miqdorda pul summasi olgan qarzdor o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining subyekti bo'lmaydi. Qarzdorda kimdandir qarzga olingan pullarni talon-toroj qilish va egasiga qaytarib bermaslik niyatining mavjud emasligi kreditor va qarzdor o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Bu munosabatlar kreditorlar tomonidan sudsida da'vo kiritish orqali hal etiladi. Shu bilan birga, qaysidir fuqaro pul «qarz» ola turib, uni boshidan egasiga qaytarmaslik va qoplamaslik niyatida o'zining foydasiga qasddan aylantirmoqchi bo'lganligi isbotlansa, uning harakatlarini firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

3. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatining o'g'irlashtiruvchi holati sanalgan mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etiladigan mazkur jinoyat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 205-moddasida nazarda tutilgan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati bilan muayyan bir belgilar asosida o'xshab ketgani bois amaliyotda qilmishni kvalifikatsiya qilish yuzasidan muammolar paydo bo'lmoqda. Mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata qilish deganda, mansabdor shaxs yoki mas'ul mansabdor shaxs tomonidan o'zganing mulkini egallahsha o'z mansab vakolatlaridan foydalinishini tushunish kerak. JK 167- moddasi 2-qismi «g» bandi nazarda tutilgan

og’irlashtiruvchi holatni sodir etadigan jinoyat subyekti mansabdor shaxs hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo’yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to’g’risida”gi 11-sonli qarorida «Mansabdor shaxsning o’zganing mulkini qonunga xilof ravishda qaytarib bermaslik sharti bilan g’araz niyatda tekinga o’zining mulkiga yoki boshqa shaxslarning mulkiga aylantirishida ifodalanuvchi mansab vakolatlarini suiiste’mol qilishi talon-toroj qilish deb qaralishi va O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 167- moddasi 2-qismining «g» bandi bilan baholanishi shart. Shunisi ahamiyatliki, agar o’zgalar mulkining g’ayriqonuniy ravishda tekinga aybdorning mulkiga aylantirish maqsadi bilan olib qo’yilganligi aniqlanmagan bo’lib, lekin boshqa g’ayriqonuniy harakatlar mavjud bo’lgan taqdirda bunday harakatlar (misol tariqasida, tovar moddiy boyliklarining kamomadi yoki uni yashirish holatining o’zagina; o’zganing mulkidan o’zinikiga aylantirib olish maqsadisiz vaqtincha foydalanish, o’zganing mulkini qarzga berib yuborish va h.k.) talon-toroj qilish deb tavsiflanishi mumkin emas. Yetarli asoslar mavjud bo’lganda, ko’rsatilgan harakatlar mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish deb tavsiflanishi kerak» deb belgilab qo’yilgan.

Sud-tergov amaliyotida mansabdor shaxslar tomonidan o’z vakolatini suiiste’mol qilish orqali sodir etiladigan talon-toroj qilishning bir necha turlari mavjud. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: 1) mansabdor shaxsga ishonib topshirilgan mulkni o’zlashtirish yoki rastrata qilish; 2) bo’ysunuvchi shaxslarga ishonib topshirilgan yoki ularning boshqaruvida bo’lgan mulkni egallah yoki uchinchi shaxslarga topshirib yuborish; 3) mansabdor shaxsga ishonib topshirilmagan va uning boshqaruvida bo’lmagan mulkni egallab olish holatlari eng ko’p uchraydigan jihatdir. Yuqorida qayd etilgan talon-toroj turlarining ikki holati o’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan sodir etiladi hamda shu bois O’zbekiston Respublikasi JK 167-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Uchinchi turi esa o’zganing mulkini olish usuliga bog’liq ravishda talon-toroj qilishning boshqa shakllari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bo’yicha kvalifikatsiya

qilinadi. Mansab mavqeini suiiste'mol qilgan holda o'zlashtirish yoki rastrata tariqasida talon-toroj qilish jinoyatining tamom bo'lish payti suiiste'mollikni amalga oshirish vaqtি emas, balki jinoiy yo'l bilan talon-toroj qilingan mulkni egallagan yoki uni boshqa shaxslarga qasd maqsadlarida o'tkazgan vaqtি hisoblanadi. Mansab mavqeini suiiste'mol qilgan holda o'zlashtirish yoki rastrata turlaridan yana biri qilingan ishlarning hajmini oshirib ko'rsatish orqali ular tomonidan qo'shimcha olingan pul mablag'larini ishchilardan olish hisoblanadi. Bunday harakatlar JK 167-moddasi 2-qismining «g» bandida nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibini to'liq qamrab oladi va JK 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi. O'zganing mulkini mansab vakolatini suiiste'mol qilgan holda o'zlashtirgan yoki rastrata qilgan shaxsning harakatlarini xomashyo xarajatlari normalarini buzib ko'rsatish orqali, ishlab chiqarish texnologiyalarini buzish va tabiiy xarajat normalarini oshirib ko'rsatish orqali to'plagan mulkni o'zining foydasiga o'zlashtirishga qaratilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish lozim. Agar mansab vakolatini suiiste'mol qilish o'ch olish motivlarida sodir etilsa ham, o'zganing mol-mulkini qoplamasdan olish bilan bog'liq bo'lmasa, mansabdor shaxsning harakatlarini ushbu modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Mansabdor shaxsning soliqni to'lashdan bo'yin tovslash, ishchi kuchidan yoki davlat yoxud jamoat transportidan foydalanish harakatlari orqali moddiy foyda toplashi, agar mansabdor shaxs harakatlari o'zganing mulkini o'zining foydasiga aylantirish bilan bog'liq bo'lmasa, o'zlashtirish yoki rastrata sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Davlat yoki jamoat mablag'lari o'zining jamoasi uchun turli xil «tadbirlar» o'tkazish yoki turli xil komissiya, «mehmon»larni kutib olish uchun g'ayriqonuniy ravishda sarflanganligi holatlari ham yuqoridagidek hal etiladi. Bunday harakatlarni jinoyatlarni sodir etish holatiga qarab JK 205- yoki 206-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

4. Sud-tergov amaliyotining tahlili **hujjatni qalbakilashtirish yo'li bilan sodir etiladigan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilishni** asossiz

ravishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 209, 228-moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida xato kvalifikatsiya qilinayotganligining guvohi bo'ldik. Biroq mazkur holatda, hujjatlarni qalbakilashtirish mustaqil jinoyat tarkibini tashkil etmasligi bois, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taraj qilish jinoyati bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilish bizning nazarimizda xato sanaladi. Chunki, bu holatda hujjatni qalbakillashtirish o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini sodir etish uchun vosita, usul sanaladi. Bu holatda jinoyatning maqsadi tegishli pulni talon-taraj qilish, hujjatni qalbakillashtirish esa maqsadga erishish usuli sanaladi. Muayyan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning maqsadi qilmishni baholashda yetakchi rol o'ynashi ham o'ynamasligi ham mumkin. Bu holatda o'zganing mulkini talon-taraj qilish uchun sodir etiladigan hujjatni qalbakillashtirish jinoyatning maqsadi, ya'ni mustaqil boshqa jinoyat tarkibi bo'lmay, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan sodir etiladigan etiladigan jinoyatni sodir etish usuli (yoki qo'shimcha moviti) bo'lishi mumkin. Fikrimizning yorqin isboti sifatida ayta olamizki, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2004-yil 21- mayda qabul qilingan "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida" gi 4-sonli qarorining 7-bandida "Mansab mavqeyini suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taraj qilish JK 167-modda ikkinchi qismi dispozitsiyasida alohida og'irlashtiruvchi kvalifikatsiya belgisi sifatida nazarda tutilganligi bois mansabdor shaxsnинг harakatlari, agar **aybdorning qasdi o'zganing mulkini egallahsha qaratilgan bo'lsa**, JK 205-modda bilan alohida kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi." deb belgilab qo'yilgan. Chunki, aynan mazkur norma mansab vakolatini suiste'mol qilishni alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilamasdan, jinoyatni og'irlashtiruvchi belgisi sifatida keltirib bermoqda. Chunki, bu holatda alohida yangi jinoyat tarkibi mavjud bo'lmay, jinoyatni sodir etish uchun mansab mavqeidan foydalanish holati, ya'ni usuli mavjud. Shundan kelib chiqib, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taraj qilish jinoyatini hujjatlarni qalbakillashtirish asosida sodir etishni jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilish mantiqan jazo tayinlash masalasiga ham ta'sir o'tkazishini

hisobga olib, JK 167- modda og'irlashtiruvchi holati sifatida qonunchilikka qo'shgan ma'qul bizning nazarimizda.

O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan **tergov ishini rejalashtirish, tergovni amalga oshirish, tergov harakatlarini o'tkazish hamda muayyan bir shaxslarni jalb qilish jarayonida** ham sud-tergov amaliyotida muayyan kamchilik va xatolar uchramoqda.

5. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan tergov ishini rejalashtirishda tergov amaliyotida kamchiliklar mavjud. Tergov ishini rejalashtirish bu bevosita ishning holatidan kelib chiqib tuziladigan ishning keyingi tusmollarini tekshirish hisoblanadi. Tergov ishini rejalashtirish ishning ketma-ketlikda, belgilangan muddatlarda, belgilangan shaxslar ishtirokida, batartib asosda ko'rib chiqilishini anglatadi. Tergov rejasida eng asosiy, zarur, kechiktirib bo'lmaydigan tergov tusmollarini tekshirish yo'l-yo'riqlari aks etadi. *Aksariyat hollarda tergov organi mas'ul xodimi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergov qilish rejasini tuzayotganda eng asosiy tergov harakatlarini birinchi darajali tekshirish rejasiga kiritmaydi, tekshirish muddati, mas'ul shaxslarni belgilash bo'yicha xatoliklarga yo'l qo'yadi. Tergov rejasiga tez-tez o'zgartirish kerak bo'lgani holda, unga tegishli tergov harakatlarini o'tkazish bo'yicha tuzatishlarni kiritmaydi. Tergov rejasni qisqa, tor doirada bo'lishi kerak emas, u ishning ko'plab tomonlarini o'z ichiga qamrab oladigan bir nechta tekshiruv harakatlarini o'z ichiga qamrab olishi zarur.* Tergov qilish bu shunchaki, bir nechta tergov harakatlarini o'tkazib ishni ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi asosida sudga bir iloj qilib o'tkazish degani emas. Jinoyat ishi hujjatida inkor qilib bo'lmaydigan, haqiqatni aniqlashga xizmat qiladigan eng asosiy jihatlarning, dalillarning aks etishi tergov qilish ishini qanchalik to'g'ri rejalashtirishga bog'liqdir. Bugungi kunda ko'pchilik ilmiy soha vakillari har bir jinoyatni tergov qilish individual xususiyat kasb etishi, ishning holatidan kelib chiqib belgilanishini hisobga olgan holda, tergov

qilish ishini rejalashtirish mavzusida kamdan-kam tadqiqot ishini amalgalashiradilar. Aynan, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergov jarayonlarini rejalashtirish borasida yagona, qaysidir jihatlarni o'z ichiga qamrab oladigan metodik qo'llanmalar deyarli mavjud emas. Agar amaliyot hamda nazariyaning tegishli vakillari o'zlarining shaxsiy tergov mahoratidan kelib chiqqan holda xilma-xil metodik qo'llanmalar yaratsalar, amaliyotda tergovni rejalashtirish bo'yicha bir qancha muammolar o'z yechimini topgan bo'lar edi. Biz diplom oldi amaliyoti davomida tegishli tergovchilar bilan o'rganish ishini amalga oshiranimizda tergovni rejalashtirish bo'yicha amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar borasida yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni ma'lum qilishdi.

6. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergovni amalga oshirishda ham yetarlichka kamchilik va muammolar uchramoqda. Aynan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini kompyuter texnikasidan foydalanib (kiberrastrata yoki kibero'zlashtirish) talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tergovni tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan amaliyotda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Mazkur usulda jinoyatni sodir etgan shaxslar ashyoviy dalillar bo'lgan kompyuter ma'lumotlarini qayta tiklab bo'lmas darajada yo'q qilishga muvaffaq bo'lishmoqda. *Tergovni amalga oshirish jarayonida muayyan bir tergov harakatiga puxta tayyorgarlik ko'rmaslik, tergovni amalga oshirish uchun yetarli moddiy- texnik baza bilan ta'minlanmasdan tergov harakatlarini amalga oshirish uchun borish, tegishli shaxslarni ishga jalb etmaslik, boshqa davlat organlari bilan keraklicha hamkorlik aloqalarini amalga oshirmaslik, tergov harakatlarini boshlashning noto'g'ri rejalashtirilishi, jinoyatga daxldor barcha shaxslarning tegishli dalillar vositasida aniqlanmayotgani, jinoyat ishiga aloqador kerakli hujjatlarning har tomonlama tekshirilmayotgani, tergovga qadar tekshiruv harakatlari muddati qisqa ekanligi bois, ekspertiza, taftish, hujjatlarni ko'zdan kechirishning juda qisqa muddatlarda o'tkazilayotgani, jinoyat ishi qo'zg'atish asoslarining bat afsil, har tomonlama*

o'rganilmayotgani, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-toroj qilish yuzasidan yetkazilgan zarar summasi to'liq darajada aniqlanmayotgani, jinoyat tarkibiy elementlarini, jinoyatning zaruriy va fakultativ belgilarini noto'g'ri baholash natijasida jinoyatning xato kvalifikatsiya qilinayotgani, jinoyat joyi bo'lgan korxona, muassasa, tashkilot (ba'zi yuridik shaxslar) faoliyat yo'nalishi, ishlash tizimi, yuritiladigan hujjatlar bazasi, talon-toroj qilingan summaga mas'ul va aloqador bo'lgan shaxslar tarkibi to'liq, atroficha, batafsil o'rganilmayotgani bois jinoyat ishtirokchilarining ba'zilari jinoiy jazodan qutulib qolayotgani, mol-mulk talon-toroj qilingan davrda aybdor shaxslar, ularning yaqin qarindoshlari, tanish-bilishlari, do'stlarining tasarruffida ortiqcha mol-mulkning paydo bo'lishi, vujduga kelgan ushbu boylikning tub ildizlari yetarlicha tekshirilmayotgani, talon-toroj sodir etilgan korxona, muassasa, tashkilotda oldin mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslar bo'lganligi yoki bo'lmanligi, agar ular bor bo'lsa aynan qaysi tarmoqqa mas'ul ekanligiga oydinlik kiritilmayotgani, tergovni tashkil etish va amalga oshirish sharoitida eng kerakli dalil manbalarining ro'yxati tuzilmasdan, ularni saralab olish jarayonida muayyan bir kasbiy bilim va amaliy tajribaning yetishmayotgani, tergovni amalga oshirish jarayonida dalillarni qo'riqlashning kuchli mexanizmlari yaratilmaganligi, tergovni amalga oshirish jarayoniga uchinchi shaxslarning ham aralashayotgani mazkur jinoyatni tergov qilish ishini amalga oshirishdagi eng ko'zga ko'rinaligan muammo va kamchiliklardir.

Tergov qilish ishini amalga oshirish Jinoyat protsessual qonunchilikda belgilangan muayyan bir tergov harakatlarini tayinlash va o'tkazish asosida sodir etiladi, O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan jinoyat protsessul qonunchilikda belgilangan tergov harakatlarining eng ko'pi, ya'ni 10 ga yaqin turi asosida haqiqatni aniqlash mumkin. Mazkur tergov harakatlarini tayinlash va o'tkazishda ham sud-tergov amaliyotida ko'zga ko'rinarli muammolar, kamchiliklar, xatoliklar yetarlicha.

7. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan tayinlanadigan eng asosiy tergov harakatlaridan biri **hujjatlarni ko'zdan kechirish tergov harakatidir**. Tergovchi jinoyat ishi bo'yicha zarur barcha hujjatlar bilan ta'minlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday hujjatlar tergovchiga dastlabki materiallar va taftish materiallari bilan kelib tushishi mumkin. Bunday materiallarni tegishli tashkilotlardan, shikoyatchilardan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilardan, guvohlardan talab qilib olish ham mumkin. Hujjatlarni ko'proq yig'ish uchun o'tkazilayotgan dastlabki tergov harakatlari tezkorlik bilan o'tkazilishi lozim. Tez ko'zdan kechirishga ulgurolmasa hujjatlar saqlanayotgan joy muhrlab qo'yiladi. Keyinchalik bu hujjatlar to'liq o'rganilib, keraklilari jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi, qolganlari esa qaytarib beriladi. Biroq, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan tayinlanadigan hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida ham tergovchi yoki tergov guruhi a'zolari bir qator protsessual xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymoqda. Misol uchun, *hujjatlarning ayni talon-toroj qilingan mulk bilan bog'liq qismi jinoyat haqida tegishli axborot olinganidan keyin harakatlanishi zudlik bilan cheklanmasligi, korxona, muassasa, tashkilot hududlarida hujjat saqlanadigan joyning to'liq nazoratga olinmasligi; qaysi hujjatlarni va qanday turdag'i hujjatlarni ko'zdan kechirish lozimligi masalasi oldindan tahminiy ro'yxati tuzilmasligi; hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida ushbu hujjatlarning turdosh hujjatlar bilan aloqadorligi masalasi deyarli hal qilinmasligi; hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida ko'zdan kechirilishi lozim bo'lgan hujjatning oldingi va keyingi yillar davomida yuritilgan yoki yuritiladigan hujjatlar bilan yetarli darajada solishtirilmasligi; hujjatlarni ko'zdan kechirish ayni o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati bo'yicha ko'proq raqamli va statistik ma'lumotlar bilan bog'ligi nuqtai nazaridan bu jarayonga tegishli soha mutaxassislarining jalg' etilmamasligi; hujjatlarni ko'zdan kechirishning 3-bosqichli tizimiga amal qilinmasligi; hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonida ushbu hujjatlarning huquqiy hujjatlarga va belgilangan talablarga muvofiq asosda tuzilganligining ish uchun ahamiyat kasb etmaydigan degan asos bilan yetarli*

darajada tekshirilmasligi; hujjatlarni ko'zdan kechirish jarayonini rasmiylashtirishda protsessual xatoliklarga yo'q qo'yilishi kabi holatlardir.

8. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan so'roq tergov harakati ishga aloqador shaxslar doirasini aniqlash, ishning ko'plab tomonlariga oydinlik kiritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. So'roq tergov harakati ishning holatiga qarab zudlik bilan o'tkazilishi lozim bo'lган tergov harakatlari qatoriga kiradi. Biror bir jinoyat ishini tergov qilish yo'qki, so'roq tergov harakatini o'tkazmasdan turib haqiqatni aniqlash mumkin bo'lsa. So'roq tergov harakati O.G.Kulmin aytganidek, "agar u to'g'ri tashkil qilinsa va amalga oshirilsa, dalillarni yig'ish va to'plashning eng qaynoq manbaidir". Biroq, amaliyotda so'roq tergov harakati tashkil qilish va amalga oshirish borasida, aynan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganining mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan amaliyotda yetarlicha kamchiliklar mavjud. *So'roq tergov harakatini o'tkazishdan oldin ko'p hollarda yetarlicha tayyorgarlik amalga oshirilmasligi; so'roq qilinadigan shaxsning ish faoliyati va shaxsiy ma'lumotlari bilan yetarli darajada, ayniqsa ishning muhim tomonlari bilan tanishmasdan turib so'roqni amalga oshirish; so'roq qilishdan oldin so'roq qilinadigan shaxs bilan psixologik aloqa o'rnatmaslik; so'roq tergov harakati o'tkazilishidan oldin qanday savollar berilishi lozimligi masalasi hal qilinmasligi, tegishli berilishi kerak bo'lган savollarning ro'yxati tuzilmasligi; so'roq qilinadigan shaxslarga "shablon" savollarning berilishi; beriladigan savollarning mazmuni ishning holatiga muvofiq kelmasligi; so'roq jarayonida beriladigan ko'rsatmalarni yozma shakllantirishda ko'rsatuv mazmunining tushunarsiz va xatoliklarga boy bo'lishiga qaramay, ularning elektron shaklda rasmiylashtirilmasligi; so'roq jarayonida ishning holatiga daxldor barcha shaxslarning jalb qilinmasligi; mazkur jinoyat yuzasidan ko'pincha aybni bir kishi bo'yniga olish va buning natijasida boshqa shaxslarning jinoyatga daxldorlik holatiga barham berish uchun aybga iqrarlik holati kuzatilishi hamda aybga iqrarlik holatining tegishli dalillar bilan chuqur o'rganilmasligi; so'roq tergov harakatiga tegishli soha vakillarini jalb qilmaslik; tegishli shaxslarni*

so'roq qilishning darajali bosqichlari tuzilmasligi yoki ketma-ketlikning yo'qligi; so'roq qilinadigan shaxslarning ijtimoiy holatidan kelib chiqib so'roq qilish va shunga o'xshash muammolar so'roq tergov harakatining ijobjiy natijasiga ta'sir o'tkazadi.

9. Tintuv tergov harakati o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan ham amalga oshiriladi.

Jinoyatga ishiga aloqador dalillarning tegishli shaxslarda borligi to'g'risida tegishli ma'lumotlarning mavjudligi hamda bu ma'lumotlarning tegishli shaxslar tomonidan taqdim etishdan bosh tortishi tintuv tergov harakatini o'tkazish uchun asos bo'ladi. O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan aybdor shaxslar tegishli dalillarni yo'q qilishga, soxtalashtirishga, yashirishga, taqdim etishdan bosh tortishga, undagi ma'lumotlarni o'zgartirishga harakat qilishadi. Shu bois, muayyan holatlarda tintuv tergov harakatini o'tkazish tergov qilish ishining zaruratiga aylanadi. Tintuv tergov harakati yuzasidan ham amaliyotda bizning tadqiqot mavzumizga aloqador muammolar mavjud. *Tintuv o'tkazishdan oldin tayyorgarlik ko'rilmasligi, qaysi hujjatlarni izlash va olib qo'yishning tugal ro'yxati shakllantirilmasligi; aksariyat hollarda aybdor shaxslar tomonidan tegishli hujjatlarni yashirish uchun maxfiy joylar tashkil etilishini hisobga olsak, maxfiy joylarni aniqlash uchun tegishli shaxslarni tintuv jarayoniga jalg qilinmasligi; tintuv o'tkaziluvchilarga tintuv o'tkazuvchining o'z hujjati (vakolatini tasdiqlovchi hujjat)ni, tintuv o'tkazilishini e'lon qilish, tekshiriladigan joy ma'muriyatini tegishli qaror bilan tanishtirish ishining doim ham protsessual qonunchilik asosida tashkil etilmasligi mazkur tergov harakatini tayinlash va o'tkazishdagi muammolardir.*

10. Tintuv natijasida yoki jinoyat protsessi ishtirokchilari ixtiyoriga ko'ra ish uchun muayyan daliliy ashyolar olib qo'yiladi. **O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan olib qo'yish tergov harakati murakkab bo'limgan tergov harakatidir.** Olib qo'yishning natjasini tintuvning qanchalik to'g'ri tashkil etilganiga bog'liq. Agar tintuv jarayonida

ko'zlangan maqsadga, ya'ni ishga aloqador dalillarning topilishi ijobiy yakun topsa ular protsessual tartibda olib qo'yiladi. *Olib qo'yish jarayonidagi eng katta muammo olib qo'yishning protsessual tartibida tashkil etilishi va amalga oshirishiga e'tibor berilmasligi, ish uchun kerak bo'lмаган dalillarning ham olib qo'yilishidir.*

11. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish ko'p hollarda tegishli hujjatlarni qalbakillashtirish, moliya-xo'jalik, buxgalteriya, loyiha-smeta hujjatlariga noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish, rasmiy hujjatlarga asossiz o'zgartirish va qo'shimcha kiritish, tegishli vakolatga ega bo'lmay turib mazkur vakolatga ega ekanlikni soxtalashtiruvchi imzo va muhrlar qo'yish, tegishli tovar-moddiy boyliklarni ishlab chiqarish jarayonida uning tarkibidan muayyan bir qismini ushlab qolib, uning sifatiga ta'sir ko'rsatish, soxta mehnat shartnomalari, soxta ish haqlari, soxta ta'til berish hujjatlarini rasmiylashtirish asosida sodir etiladi.

Mazkur jinoyat usullarini ekspertiza tergov harakatlarini amalga oshirmsadan turib aniqlash mushkul masala. Ekspertiza tergov harakati deyarli barcha jinoyat ishi yuzasidan tayinlanishi mumkin desak adashmagan bo'lamiz. Ekspertiza tergov harakati qanchalik to'g'ri tayinlansa va to'g'ri amalga oshirilsa shunchalik isbot qilishning ko'zlangan maqsadiga erishiladi.

Xadicha Sulaymonova nomidagi davlat sud-ekspertiza muassasasida o'tkazilgan qariyb 1 haftalik o'rganish muddati davomida o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan **asosan sud-xatshunoslik, sud-texnik kriminalistik, hujjatlarni kriminalistik usulda tekshirish, sud-buxgalteriya, sud-tovarshunoslik, sud-qurilish-texnik, mehnat iqtisodiyoti, moliya-kredit, montajni aniqlash maqsadida hujjatning texnik kriminalistik, muhr va shtamplar izlari, dastlabki mazmuni o'zgartirilgan hujjatlar ekspertizalari** o'tkaziladi. Mazkur ekspertiza turlarini tayinlash va o'tkazishda sud-tergov va ekspertiza muassasalarida quyidagi ba'zi asosiy xato va kamchiliklar mavjud: *hal qilinadigan masaladan qat'iy nazar ekspert oldiga ayrim hollarda savolning aniq, lo'nda, faqat bir ma'noda talqin qilinadigan tarzda taqdim etilmasligi; savolning mazmuni ekspertizaning turiga mos kelmasligi;*

ekspertiza oldiga huquqiy ma'nodagi savollarning qo'yilishi; savolda tekshiriladigan hujjat va bevosita tadqiq qilinadigan obyektni aniq ko'rsatmaslik, ekspertiza tekshiruviga oid holatga kerakli hujjat va ashyolarni ilova qilmaslik (Vaholanki, "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning 17- modda 2-qismida "...sud ekspertizasini tayinlagan organ tekshirishlarni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tekshirish obyektlari hamda ish materiallarini taqdim etadi" - deb belgilab qo'yilgan); savol qo'yishda yo'naltiruvchi savollarning qo'yilishi; ekspert tadqiqoti o'tkazish to'g'risidagi qarorda shoshilinch xulosa berilishi kerak bo'lgani holda tegishli xulosani kamchiliklar asosida berish yoki asossiz "Sud ekspertizasi oylik muddatni hisobga olgan holda cho'zish va buning natijasida tergovga qadar tekshiruv muddatini uzaytirish to'g'risida ortiqcha protsessual harakatlarning amalga oshirilishi, ishning holati yuzasidan tayinlanishi lozim bo'lgan ekspertiza imkoniyatini chuqur bilmaslik, sud eksperti voqeа joyiga yetib kelguncha daliliy ashyolarning yetarli darajada qo'riqlanmasligi, ekspert tadqiqoti obyektlarining tekshirish uchun yaroqsiz holatga kelib qolishi yoki yo'q qilinishi; ekspert tadqiqoti uchun namunalar olish uchun tergovchilarining tegishli malakaviy bilimga ega emasligi; ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror va unga tegishli bo'lgan ashyoviy dalillarning yaroqsizligi; taqdim etilgan tekshirish obyektini tadqiq qilish uchun yetarli bilimga ega bo'lmagani holatida ekspert tomonidan tegishli tekshiruvlarning amalga oshirilishi; ekspertiza muassasasi xodimi tomonidan xulosalarning belgilangan talablar asosida tuzilmasligi, xulosalarning qisqa, jo'n, tegishli qo'yilgan savollarga berilishi kerak bo'lgan javoblarning mavjud emasligi; tadqiqot ishi uchun muhim ahamiyat kasb etmaydigan ortiqcha ashyolar va hujjatlarning talab etilishi; tegishli shoshilinch vaziyatlarda tayinlanishi kerak bo'lgan ekspertizalarning vaqtida tayinlanmasligi; ekspertiza turlari keng va ko'pligi bois ish holati yuzasidan kerak bo'lмаган ekspertizalarning tayinlanishi; **tergovga qadar tekshiruv muddati 10 kun ekanligini hisobga olsak, ekspertiza muddatining 1 oy ekanligi uchun ular o'rta**sida **muddat masalasida kollezion holatning mavjudligi;** ekspertiza tayinlangani holatida tegishli ekspert tomonidan xulosa berishning imkoni yo'qligi

to'g'risidagi hujjatda tegishli asoslarning keltirib o'tilmasligi kabi holatlar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan tayinlanadigan ekspertizadagi asosiy muammolar va kamchiliklardir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi JK 167-moddasida nazarda tutilgan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan amalga oshirgan tadqiqot ishimiz o'zining jinoiy-huquqiy jihatlaridagi kvalifikatsiya muammosi bilan, tergovni rejalashtirish va amalga oshirishdagi kamchilik va xatoliklari bilan, tergov harakatlarini amalga oshirishda e'tibor berilishi lozim bo'lган jihatlari bilan, ilmiy va huquqiy

kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalari bilan ham ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqot ishimizda o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatining jinoiy-huquqiy jihatlarini tahlil qilish jarayonida JK 167-moddasining JK 168, 169, 205-209, 228- moddalar bilan o'zaro farqli jihatlari va ularning kvalifikatsiyasidagi muammolar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy va huquqiy asoslarimizni keltirib o'tdik.

Mazkur tadqiqot ishimizda o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilish yuzasidan tergovni rejalahtirish va amalga oshirish jarayonida isbot qilinishi lozim bo'lgan jihatlarga batafsil, ilmiy asosda to'xtalib o'tdik.

Tadqiqot ishimizda ushbu jinoyat yuzasidan hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish, taftish, tintuv, so'roq qilish, yuzlashtirish, ekspertiza kabi tergov harakatlarini tayinlash va o'tkazishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan yangi, ilmiy asoslangan, boshqa ilmiy adabiyotlarda uchramaydigan, real amaliyotni kuzatish va tegishli huquqni muhofaza etuvchi organ xodimlari bilan bo'lgan o'rganish davomida ishlab chiqilgan nazariy tushunchalarni ishlab chiqdik.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan amalga oshiriladigan tergov qilishdagi muammolar va kamchiliklarni atroflicha o'rganib, sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan, bizning nazdimizdagagi takliflarni ishlab chiqdik va ular quyidagicha:

1. Ilmiy adabiyotlarda o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatini tergov qilish degan tushuncha mavjud emas.
Tadqiqot ishimiz davomida biz ushbu tushunchaga beriladigan izohning nazariy jihatini ishlab chiqdik:

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-torojni tergov qilish- aybdor shaxs tomonidan birovning mol-mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning

foydasiga qaratish, shu tariqa mazkur mol-mulkning mulkdori yoki boshqa egasiga zarar yetkazishdan iborat bo'lgan, g'arazgo'ylik niyatlarida sodir etilgan qonunga xilof qilmishini aniqlash maqsadida qonunda nazarda tutilgan tergov harakatlarini o'tkazish orqali haqiqatni aniqlash harakati tushuniladi.

2. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyati ko'p hollarda hujjatlarga o'zgartirish, soxta qo'shimcha kiritish, qalbakillashtirish asosida sodir etiladi. Aybdor shaxslar o'zganing mulkini o'zining foydasiga yoki boshqa shaxslarning foydasi hisobiga talon-toroj qilish maqsadiga erishish uchun hujjatlarni bila turib soxtalashtirish usulida mazkur jinoyatni sodir etadilar. Masalan, A. ismli shaxs o'zining korxonasida ishchilarning ish haqidan muayyan bir qismini o'zlashtirish yoki rastrata qilish asosida talon-toroj qilishni maqsad qildi. Keyinchalik bu maqsadga erishish uchun (hali bu o'ziga ma'lum emas edi), tegishli hujjatlarga o'zgartirish kiritish zaruriyati paydo bo'lib, tegishli soxta ish haqi to'langanligi to'g'risida yoki ish haqining kamaytirilgan miqdori to'langanligi to'g'risida soxta hujjat tayyorlasa shaxsning harakatlarini O'zbekiston Respublikasi JK 167-moddasiga qo'shimcha ravishda 228- modda bilan qo'shib kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Chunki, bu yerda maqsad bitta, ya'ni o'zganing mulkini talon-toroj qilish. Hujjatlarni soxtalashtirish esa yagona maqsadga erishish usuli sanaladi. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish ko'plab usullarda sodir etiladi. Agar shaxs jinoyatni sodir etishdan oldin tegishli hujjatlarga o'zgartirish kiritish maqsadi bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilsa, bu holatda shaxsning qilmishini JK 167-moddasiga qo'shimcha ravishda 228-modda bilan kvalifikatsiya qilsa bo'ladi. Chunki, shaxsda bir paytning o'zida hujjatlarni soxtalashtirish hamda o'zganing mulkini talon-toroj qilish maqsadi bir paytning o'zida vujudga kelmoqda. Shundan kelib chiqib, aybdor shaxsning o'zganing mulkini talon-toroj qilish maqsadidan keyin vujudga kelgan hujjatlarni soxtalashtirish qilmishi biz bermoqchi bo'lgan taklifimiz asosida kvalifikatsiya qilinishi tavsiya etiladi. Bizning bu holatda beradigan taklifimiz, **JK 167- moddasi**

2-qismiga “e” bandini qo’shish, ya’ni tegishli hujjatlarni o’zgartirish yoki soxtalashtirish asosida sodir etish bandini qo’shish taklif qilindi.

3. Agar O’zbekiston Respublikasi JK 167- moddasi 2-qismiga “e” bandi, ya’ni *tegishli hujjatlarni o’zgartirish yoki soxtalashtirish asosida sodir etish bandi* qo’shiladigan bo’lsa, **O’zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2004-yil 21-mayda qabul qilingan “Jazolarni liberallashtirish to’g’risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi 4-sonli qarorining 8-bandiga quyidagi mazmunda o’zgartirish kiritish** tavsiya qilinadi: “*Tushuntirib o’tilsinki, agar aybdor shaxs o’zi sodir etgan talon-toroj jinoyatini yengillashtirish yoki yashirish maqsadida (mulkni talon-toroj qilish maqsadidan keyinchalik vujudga kelgan holatda) rasmiy hujjatlarga bila turib yolg’on ma’lumotlar va yozuvlar kiritgan bo’lsa, uning qilmishi JK 167-moddasi 2-qism “e” bandi bilan qamrab olinadi, JK 228- moddasi bilan qo’shib kvalifikatsiya qilinishi shart emas.* Agar aybdor shaxs (asosan mansabdar shaxs) o’zi sodir etadigan *talon-toroj jinoyatidan oldin rasmiy hujjatlarga bila turib yolg’on ma’lumotlarni va yozuvlar kiritishni maqsad qilgan bo’lsa hamda buni amalga oshirsa, uning qilmishi tegishincha JK 167 va 209-moddalarida yoki JK 167 va 228-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinmog‘i kerak.* Agar mansab soxtakorligi mansabdarlik jinoyatining subyekti bo‘lмаган бoshqa shaxslar bilan ishtirokchilikda sodir etilgan bo’lsa, bunday ishtirokchilarning harakatlari, basharti ular talon-toroj jinoyati ishtirokchisi bo‘lmasa, JK 228-moddasi bilan emas, balki mazkur Kodeksning 28, 209-moddalarini bilan kvalifikatsiya qilinmog‘i kerak.”

4. Tergov amaliyotida muayyan jinoyat ishlari yuzasidan, xususan, o’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan o’zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan o’tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv jarayonida muayyan muammolar kelib chiqmoqda. Tegishli hududning tegishli tergovchilari bilan o’rganish olib borilganda, ular asosan tergovga qadar tekshiruv muddati yuzasidan bir qator kamchiliklarni aytib o’tishdi. Tergov qadar tekshiruv muddatining ***huquqiy asosi***

O'zbekiston Respublikasi JPK 329-moddasi 2-qismida quyidagicha ifoda etilgan:

"10 kun muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish ushbu Kodeks 162-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi". O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganining mulkini talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan taftish hamda ekspertiza tergov harakatlari amalga oshiriladi. Tergovga qadar tekshiruv muddati 10 kun bo'lgani holda "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning 17- moddasiga ko'ra ekspertiza o'tkazish muddati 1 oy, O'zbekiston Respublikasi JPK 187⁷-moddasiga muvofiq taftish o'tkazish muddati 1 oy etib belgilangan. Odatta, jinoyat ishi yuzasidan tegishli ekspertiza tayinlanganda ekspertiza bo'yicha xulosa talab qilinganda ekspertiza muassasasi eksperti 1 oylik muddati borligini ro'kach qiladi. Ushbu kollezion holatning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi JPK ning 329-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan 10 kunlik muddatni 1 oy etib o'zgartirish taklifini beramiz.

5. Tergovga qadar tekshiruv jinoyat protsessining, tergovning muhim tarkibiy qismi ekanligini hisobga olib, tergovga qadar tekshiruv o'tkazishning huquqiy asosi, prinsiplari, o'tkazuvchi organlar tasnifi, tergovga qadar tekshiruv o'tkazish asoslari, tergovga qadar tekshiruv o'tkazuvchi organ mansabdor shaxslarning huquq (vakolatlari) va majburiyatlarini o'z ichiga qamrab oluvchi "Tergovga qadar tekshiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasini yaratish lozimligi taklifini beramiz. Boisi, tergovga qadar tekshiruv tushunchasi, uni o'tkazish asoslari JPK da batafsil o'z ifodasini topmagan. Bu qonunning jinoyat qonunchiligi va tergov qilishdagi ahamiyati mazkur qonunning isbot qilish jarayonidagi ahamiyatida ko'rindi.

6. O'zbekiston Respublikasi JPK 173-moddasida nazarda tutilgan ekspertiza tayinlash va o'tkazish shartligini nazarda tutuvchi normaga 10-band sifatida “*o'zganing mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq ishlar yuzasidan ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart*” degan bandini qo'shish taklifini beramiz. Chunki, talon-toroj jinoyatlarini, xususan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan o'zganing mulkini talon-toroj qilish jinoyatlari yuzasidan taftishning natijasiga asoslanib, ishning muayyan holatlariga qarab ekspertiza tergov harakati tayinlanmaydi. Agar bu bandni JPK ning 173- moddasiga qo'shadigan bo'lsak, taftish natijasi borligi, uning to'g'ri yoki xato ekanligini aniqlash zaruriyati paydo bo'lib, ekspertiza tergov harakati doimiy xususiyat kasb etadi. Bugungi kunda, aynan mazkur jinoyatning ko'payib borayotgani, ekspertizaning bir qator turlaridan unumli foydalanilmayotgani bois, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning miqdori to'liq aniqlanmayapti. Davlat manfaati buzilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati yuzasidan ham ekspertiza tergov harakati tayinlanishi maqsadga muvofiqdir.

7. Jinoyat kodeksiga “talon-toroj” ta'rifi taklif qilinmoqda: “talon-toroj deganda, o'zganing mulkini yoki mulkiy huquqini qonunga xilof ravishda o'zi yoki uchinchi shaxs foydasiga qasddan, g'araz niyatda, qaytarib bermaslik sharti bilan, o'rnini qoplamasdan egallash tushuniladi”. O'zgalar mulkini talon-toroj qilish ta'rifini VIII bo'limi – “Atamalarning huquqiy ma'nosi”ga kiritish taklif qilinishi va “Talon-toroj” tushunchasining jinoyat qonuniga kiritilishi talon-toroj uchun javobgarlikni belgilovchi qonun normalarini mazmunan to'g'ri qo'llashga, o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlashga, talon-toroj bilan bog'liq jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga asosiy omil bo'lib, jinoyat qonunini takomilashtirishga yordam beradi.

8. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilishda o'zganing mulki aybdorning egaligiga (o'g'irlik, firibgarlikdan farqli ravishda) mansab majburiyatları, shartnomaviy munosabatlar yoki maxsus topshiriq asosida yuridik rasmiylashtirilgan va tegishli hujjat (shartnomá, mehnat shartnomási, qabul qilish

dalolatnomasi, buyruq va shu kabilar)da mustahkamlangan holda qonuniy tarzda o'tadi.O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, o'xshash tarkibli jinoyat (firibgarlik, o'g'irlik)lardan farqlash uchun qat'iy chegara belgilanishi kerak, ya'ni mulk aybdorga faqat uning soni, miqdori ko'rsatilgan holda yozma tarzda rasmiylashtirilgan holda berilgan bo'lsa, qilmish JK 167-moddasi bilan, agarda mulk aybdorga o'zaro ishonchli munosabatlar (do'stlik, qarindoshlik, tanish-bilishchilik)ga asoslangan holda yoki yozma rasmiylashtirilmagan tarzda berilgan bo'lsa, bunday qilmish boshqa moddalar (ish holatlariga ko'ra JK 168, 169-moddalar) bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

9. MJtK amaldagi 61-moddasida aslida tashmachilik uchun, ya'ni korxona, muassasa yoki tashkilotda mehnat faoliyatini yuritayotgan, ishlayotgan xodimi tomonidan mayda talon-toroj sodir etish uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutiladi. Lekin, qonun matnida "shu yerda mehnat faoliyatini yuritayotgan shaxs tomonidan" so'zlarining ishlatilmaganligi sababli har qanday jismoniy shaxs tomonidan (hatto talon-toroj qilingan korxona, muassasa yoki tashkilotda ishlamaydigan "begona" shaxs tomonidan ham) yuridik shaxsning bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha miqdordagi mulkini o'g'ir=lik, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiis-te'mol qilish yoki firibgarlik yo'li talon-toroj qilinishi mazkur moddaga asosan ma'muriy javobgar qilinishiga olib keladi. Qonunda yuridik shaxs mulkini oz miqdorda talon-toroj qilish uchun emas, balki tashmachilikka nisbatan yengillik berilgan. Mulk shakliga ko'ra turlicha javobgarlik belgilanishi qonunni qo'pol buzish hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61-moddasi dispozitsiyasi "shu yerda mehnat faoliyatini yuritayotgan shaxslar tomonidan" degan so'zlar bilan to'ldirilishi kerak.

10. Kvalifikatsiyadagi xatoliklarni oldini olish maqsadida hamda jinoyat sodir etishda aybdor bo'lган shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi kerakligidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi 30-moddasini quyidagi mazmundagi yangi qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

“Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida maxsus subyekt nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda, shunday subyekt belgisiga ega bo'limgan shaxs ishtirok etgan bo'lsa, ushbu jinoyatda tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida javobgarlikka tortiladi”.

11. JK 167-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi normadagi “o'rni qoplangan taqdirda” degan jumlesi “o'rni to'liq qoplangan taqdirda” deb ifodalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Rag'batlantiruvchi normaning shunday ifodalanishi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish natijasida yetkazilgan zararning to'liq hajmda qoplanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iylik bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz” 1-T Toshkent “O'zbekiston” 2017. 68-b;
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b;

3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O'zbekiston, 2016. - 48 b;
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2017. - 32 b;
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak;
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tarkkiyot yulimizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga kutaramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 52 b. T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T. "O'zbekiston", 2017// <http://constitution.uz/uz>;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi// <https://www.lex.uz/acts/111460>;
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi //<https://www.lex.uz/acts/111453>;
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. T.: "Adolat"-2018-yil;
5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. T.: "Adolat"-2018-yil;
6. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi (yangi taxrir) O'zbekiston Respublikasi Qonuni (29.08.2001) //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2001. 9-10-son, 168-modda;
7. Уголовный кодекс Республики Армения //<http://www.parliament.am/legislation.php?sell=show&ID=1349&-lang-rus>;
8. Уголовный кодекс Республики Белорусь-СПб-Юридический центр Пресс.2001-C267-268;

9. Уголовный кодекс Республики Молдова-СПб-Юридический центрПресс.2003-C262-263;
10. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики -СПб-Юридический центрПресс.2001-C197-198
- 11.Уголовный кодекс Российской Федерации-М.Дашков и К. 2004-С 102;
- 12.Уголовный кодекс Кыргызской Республики-СПб-Юридический центр Пресс.2002-С 181-182;
- 13.Уголовный кодекс Республики Казахстан-СПб-Юридический центр Пресс.2001-С 198-199 ;
- 14.Уголовный кодекс Грузии-СПб-Юридический центрПресс.2001-С 218-219;
- 15.Уголовный кодекс Республики Таджикистан-СПб-Юридический центрПресс.2001-C254-255;
- 16.Уголовный кодекс Украины-СПб-Юридический центрПресс.2001-С 167-168.

Monografiya, o'quv adabiyotlar va to'plamlar.

- 17.Kriminalistika taktikasi: darslik / Т.М.Mamatkulov, Sh.T.Djimanov, U.T.Turgunov va boshq. -Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. - 200 b.;
18. Jinoyatlarni tergov kilishning metodikasi: O'quv qo'llanma/ R.RShakurov, Sh.T.Djumanov, N.Toshtemirov, D.R.Turaeva, O.D.Allanazov. -Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. -200 b.;
- 19.Kriminalistika: Darslik T.B. Mamatkulov, Sh.R.Astanov va boshq. - -Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. -457 b.; Джуманов Ш.Т. Криминалистика: Учебник. -Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, - 2017. -476 стр.;

20. Rustambev M.X., Norboev A. Kriminalistika (sxemalar). O'quv qo'llanma. - T.: TDYuI, 2002. -62 b. 21.Kriminalistika: Uchebnik. / Zakurlaev A., Bazarova D. i dr. - T.: TDYuU, 2016. - 533 str.
- 22.Kriminalistika. Darslik 1-jild. -T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. -447 b.; Zakurlaev A.K., Maxmudov K.O;
- 23.Kriminalistika. Darslik 2-jild. -T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. -365 b;
24. Mamatkulov T.B., Astanov I. Va boshk. Kriminalistika: Darslik. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. -B. 498;
25. S.A.Otaxo'jayev, O.Ch.Xoliqov. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005-yil;
26. M.F.Ergashev, M.H.Obidov, Sh.P Alaev. Tergovchi.Qo'llanma. T: "G'afur G'ulom matbaa ijodiy uyushmasi;
27. I.R.Astanov. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlari. Monografiya. T:2018-yil;
28. Sh.P.Muxammadov. Tanib olish uchun ko'rsatish va guvohlantirish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;
29. A.B.Hikmatov, I.R.Astanov, A.B.Abdulaxatov. Dastlabki tergovning protsessual va taktik asoslari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;
30. A.O.Aripov. Iqtisodiyot sohasidagi va mansabdarlik jinoyatlarini tergov qilish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;
31. A.X.Imomnazarov, I.R.Astanov, E.A.Xayrullayev, F.Z.Mirzaev. Ko'zdan kechirish tergov harakati imkoniyatlari. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;
32. Sh.P.Muxammadov. So'roq qilish va yuzlashtirish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" -2021-yil;
33. Sh.P.Muxammadov. Tintuv va olib qo'yish. Uslubiy qo'llanma. T: "Sahhof" - 2021-yil;

34. A.K.Zakurlayev, D.B.Bazarova, M.Abdukarimova. Kriminalistika. Darslik. T: 2015-yil;
- 35.Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). O'quv qo'llanma-T,:TDYU nashriyoti,2021;
36. Ochilov X.R, Haydarov Sh.D, Shamsiddinov. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). O'quv qo'llanma-T,:TDYU nashriyoti,2021;
37. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). Darslik. “Yangi asr avlodii”-T,:2005;
38. B.D.Matmurodov. Jinoyat tarkibi bo'yicha kvalifikatsiya qilish masalalari. T,:“Lessons press”-2019;
39. O.Zokirova. Jinoyat huquqining umumiylar to'plami. O'quv uslubiy qo'llanma. TDYuI nashriyoti, 2005;
40. M.H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Umumiy qism). T,:“O'qituvchi”-2003;
41. M.H.Rustamboyev.Jinoyat huquqi (Maxsus qism). T,:“O'qituvchi”-2003.